ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

# ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

# JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

SPECIAL ISSUE-1

ТОШКЕНТ-2026

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№SI-1 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-SI-1

**Бош муҳаррир:**
**Главный редактор:**
**Chief Editor:**
**Сеитов Азамат Пулатович**
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**
**Заместитель главного редактора:**
**Deputy Chief Editor:**
**Сабирова Умида Фархадовна**
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

### 22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Каланов Комил Куллахматович**
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Негматова Шахзода Шухратовна**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Шайылдаева Асель Кокоевна**
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**
доктор экономических наук, (Узбекистан)
**Щепилова Галина Германовна**
доктор философских наук, профессор (Россия)
**Рожанский Михаил Яковлевич**
кандидат философских наук (Россия)
**Маматов Нормурат**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Бурнашев Рустам Ренатович**
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

### 22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Холбеков Абдуғани Жуманазарович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Акулич Мария Михайловна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**
доктор политических наук, профессор (Испания)
**Фадеева Любовь Александровна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Виктор Агаджаньян**
доктор философии по социологическим наукам, профессор (США)
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллевич**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

### 22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Николов Стефан**
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Ли Ци**
доктор исторических наук, профессор (Китай)
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

## 22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари. Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований. Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)
**Каланова Сабохат Мурадовна**
доктор философии по социологическим наукам, доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Тагиева Гулсум Гафуровна**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
**Ахмедова Феруза Медетовна**
доктор философии по социологическим наукам (PhD) (Узбекистан)
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

## 22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи. Социальные структуры, социальные институты и образ жизни. Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Заитов Элёр Холмаматович**
доктор философии по социологическим наукам, доцент (Узбекистан)
**Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна**
доктор философии по социологическим наукам, доцент (Узбекистан)
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**
доктор философии по социологическим наукам, и.о. профессор (Узбекистан)
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

## 22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси. Социология социального сознания и социального процесса. Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрахон Пиржановна**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Абдуллаев Акмал Гадаймурадович**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Доспанова Дилара Уракбаевна**
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Якубов Ильдар Харрасович**
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов**

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

**1. Сеитов А.П.**
СОЦИОЛОГИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ДИАЛОГА МЕЖДУ ОБЩЕСТВОМ И ГОСУДАРСТВОМ....................................................................................................................5

**2. Rasulov Abdimumin**
O‘ZBEKISTONDA PSIXODIAGNOSTIKA METODIKALARINING TATBIQ ETISH TARIXI..8

**3. Xusanova Xayriniso, Kamilov Farxod**
G‘ARB DAVLATLARIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASHNING KONSEPTUAL VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI...............................................................................................16

**4. Hojiyev Zavqiddin**
INNOVATSION TA’LIM KLASTERI MAMLAKATNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA: SOTSIOLOGIK TAHLIL..............................................24

**5. Yunusov Alisher**
YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR QATLAMI: SOTSIOLOGIK TAHLIL...........................33

**6. Kadirova Xalima**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MEDIA TA’LIM VA MEDIA SAVODXONLIKNING IJTIMOIY AHAMIYATI.................................................................................................40

**7. Abdikadirova Nigora**
RAQAMLASHTIRISH VA RAQAMLI TA’LIMNING INSON SALOHIYATIGA TA’SIRI.......46

**8. Ким Лариса**
ВИРТУАЛЬНАЯ СОЦИОСФЕРА: ТРАНСФОРМАЦИЯ СТРУКТУРЫ И КУЛЬТУРЫ УЗБЕКСКОГО ОБЩЕСТВА..........................................................................................53

**9. Islambaev Ravshan**
QORAQALPOG‘ISTONDA YOSHLAR NORASMIY BANDLIK DINAMIKASINING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI.......................................................................................60

**10. Eshmanova Iroda**
O‘ZBEK YOSHLARINING XITOY XALQ RESPUBLIKASIDAGI MOSLASHUV JARAYONLARI.........................................................................................................................67

**11. Ravshanbekova Xurshidabonu**
YANGI O’ZBEKISTONDA XALQ QABULXONALAR EVALUTSIYASINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI...........................................................74

**12. Mirjavxarova Farida**
YOSHALARNING HARBIY-PROFESSIONAL ORIENTATSIYAGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR..........................................................................................................................81

**13. Boboyev Sherzod**
O‘ZBEKISTONDA XAYRIYA AMALIYOTINING TARIXIY-RETROSPEKTIV TAHLILI.....90

**14. Anorboyeva Marifat**
YANGI O‘ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARIGA DOIR NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING KONTENT TAHLILI................................................................98

**15. Yaxshiliqova Dildora**
NOGIRONLIGI BO‘LGAN YOSHLARNING SOTSIAL MOBILLIK JARAYONLARIGA DOIR YONDASHUVLARNING NAZARIY TAHLILI.....................................................................105

**16. Nuralimova Gulsinoy**
AHOLINING ZAIF QATLAMLARIGA KO‘RSATILADIGAN IJTIMOIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.................................................113

**17. Mirzaaalieva Aziza**
SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA IJTIMOIY-SIYOSIY TAHLILNING NAZARIY MUAMMOLARI..............................................................................................................119

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

# СОЦИОЛОГИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ДИАЛОГА МЕЖДУ ОБЩЕСТВОМ И ГОСУДАРСТВОМ

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**АННОТАЦИЯ**

В настоящей статье представлена тематическая концепция, объединяющая пятнадцать оригинальных исследований, опубликованных в данном номере. Авторы выпуска в лице социологов и других смежных наук рассматривают актуальные проблемы трансформации узбекского общества через призму реформ Нового Узбекистана, инициированных политической волей Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева. Сквозной темой выпуска служит роль социальных и смежных наук в обеспечении эффективного диалога между обществом и государством во имя интересов человека.

**Ключевые слова**: Новый Узбекистан, реформы, социология, диалог общества и государства, человеческий потенциал, молодёжь, социальная защита, цифровизация, образование, права человека, Мирзиёев.

---

Настоящий специальный выпуск журнала выходит в момент, когда Узбекистан переживает один из наиболее динамичных периодов своей современной истории. Масштабные реформы, начатые в 2017 году по инициативе Президента Шавката Мирзиёева и воплощённые в стратегических документах, такие как Стратегия «Узбекистан - 2030», радикально изменили не только архитектуру государственного управления, но и саму ткань социальных отношений в стране.

В этом контексте выделим итоги видеоселекторного совещания под председательством Президента Шавката Мирзиёева от 13 марта 2026 года по вопросам совершенствования системы работы с обращениями граждан, вывода деятельности Народных приемных на новый уровень и углубленного анализа общественного мнения. На совещании подчеркнуто, что отныне девиз «Я должен знать проблемы каждого человека и каждой семьи и своевременно оказывать помощь» должен стать главным принципом деятельности руководителей всех уровней.

Это является логичным продолжением такого принципа, ставший символом эпохи Нового Узбекистана как «Не народ служит государственным органам, а государственные органы служат народу». Именно такой концепт задаёт общую красную линию, связывающую все пятнадцать исследований, собранных в данном выпуске.

Редакционная коллегия убеждена, что социология и смежные с ней дисциплины призваны играть незаменимую роль в осмыслении, сопровождении и верификации реформ Нового Узбекистана. Они способны перевести политическую волю на язык измеримых социальных фактов, выявить разрывы между задекларированными целями и их реальным воплощением в жизни граждан, предложить инструменты, без которых диалог между обществом и государством рискует оставаться декларативным. Настоящий выпуск есть

попытка продемонстрировать именно такую роль практически ориентированной, граждански ответственной и политически актуальной науки социологии.

Тематическая палитра выпуска намеренно широка. В частности, Х.Равшанбекова исследует эволюцию народных приёмных в Новом Узбекистане как института, ставшего одним из важнейших каналов прямой коммуникации граждан с властью. Опираясь на наследие восточных мыслителей в лице аль-Фараби, Ибн Сины, Амира Темура и других, а также западных теоретиков демократии и социального доверия, автор обосновывает народные приёмные как воплощение принципа коммуникативной рациональности в духе Юргена Хабермаса, адаптированного к узбекской социокультурной почве.

Статья А.Расулова, посвящённая истории внедрения психодиагностических методик в Узбекистане, есть исследование, которое несёт важный методологический посыл, что без надёжного, адаптированного к национальному контексту инструментария социальных и психологических измерений невозможно ни диагностировать состояние общества, ни оценить эффект проводимых реформ. Эта мысль становится лейтмотивом всего выпуска.

Вопросы социальной защиты населения занимают в выпуске особое место. Статья Х.Хусановой и Ф.Камилова прослеживает концептуальные и институциональные основы систем социальной защиты в западных странах, создавая сравнительную перспективу для понимания узбекского опыта. Этот опыт детально рассматривается в работе Г.Нуралимовой, посвящённой инновационным подходам к повышению качества социальных услуг для уязвимых слоёв населения. Так, автор анализирует механизм «ключевого работника» (кейс-менеджмент) на уровне махалли, деятельность центров «Инсон» и Единого реестра социальной защиты, то есть, институтов, воплощающих в жизнь лозунг «Inson qadrini ulug'lash» («Возвеличивание достоинства человека»).

Историческую глубину теме социальной солидарности придаёт статья Ш.Бобоева, возводящая традиции благотворительности на территории Узбекистана к идеям «Авесты», исламским институтам вакфа и закята, деятельности Амира Темура и Алишера Навои. Этот ретроспективный взгляд напоминает, что реформы Нового Узбекистана апеллируют не к пустому месту, но к глубокой цивилизационной памяти народа о взаимной заботе и коллективной ответственности.

Молодёжная проблематика представлена в выпуске сразу несколькими углами зрения. А.Юнусов предлагает развёрнутый социологический анализ молодёжи Нового Узбекистана, фиксируя принципиальный сдвиг в государственной молодёжной политике или переход от «объектной» модели, где молодёжь воспринималась как пассивный реципиент заботы государства, к «субъектной», признающей молодого человека активным агентом социального прогресса и стратегическим ресурсом нации.

Ф.Миржавхарова исследует факторы формирования военно-профессиональной ориентации молодёжи, опираясь на теорию социальных практик Пьера Бурдьё и концепцию «общества риска» Ульриха Бека. Выводы статьи о роли семьи, махалли, системы образования и цифровых платформ в профессиональной идентификации молодых людей имеют очевидное практическое значение для кадровой и оборонной политики. Д.Яхшиликова обращается к теоретическому анализу социальной мобильности молодёжи с инвалидностью, ставя вопрос об институциональных и культурных барьерах, препятствующих полноценному участию этой категории граждан в жизни общества. Это тема напрямую связана с провозглашённым государством курсом на инклюзивное развитие.

Региональное измерение реформ введено в выпуск через статью Р.Исламбаева, исследующего социально-экономические факторы динамики неформальной занятости молодёжи в Каракалпакстане. Это исследование ценно вдвойне, так как, во-первых, оно фокусируется на регионе с особой исторической судьбой и острыми экологическими вызовами, связанными с высыханием Аральского моря. Во-вторых, оно прямо отвечает на государственный запрос обеспечения занятости и экономической самостоятельности молодёжи, что является одним из ключевых приоритетов стратегии развития Нового Узбекистана.

Ещё одна сквозная тема выпуска, отражающая стремительно меняющийся контекст, это цифровая трансформация общества, в котором разворачиваются все описываемые процессы. Н.Абдикадирова анализирует влияние цифровизации и цифрового образования на человеческий потенциал, убедительно показывая, что цифровая грамотность становится новым видом социального капитала, от которого зависит жизненный успех личности и конкурентоспособность нации.

Х.Кадирова рассматривает медиаобразование и медиаграмотность как инструменты социализации, культурной интеграции и защиты от информационных угроз в качестве проблемы, приобретающей всё большую остроту в условиях глобальной информационной среды. Л.Ким исследует трансформацию социосферы узбекского общества под влиянием виртуализации коммуникаций, предостерегая от рисков виртуального одиночества и ценностной дезориентации на фоне стремительной цифровой модернизации.

Институциональное измерение реформ занимает центральное место в статьях, посвящённых конкретным механизмам взаимодействия государства и общества. М.Анорбоева применяет метод контент-анализа к нормативно-правовым документам в сфере урбанизации, принятым в период 2019-2025 годов, демонстрируя системность и последовательность государственной политики в создании комфортной городской среды, ориентированной на человека.

Образование и наука как движущие силы социально-экономического развития представлены в статье З.Хожиева, предлагающего социологическую модель инновационного образовательного кластера, основанного на принципе «тройной спирали», взаимодействии университета, предприятия и научной организации. Этот концептуальный вклад перекликается с государственным курсом на построение экономики знаний и подготовку кадров, способных стать локомотивами национального развития.

Наконец, И.Эшманова обращается к теме международной академической мобильности узбекских студентов в Китае, разрабатывая модель предвыездной подготовки, учитывающей как академические, так и социокультурные вызовы межкультурной адаптации. Её исследование вписывается в широкий контекст открытости Нового Узбекистана миру и стремления государства обеспечить своих граждан конкурентоспособным международным образованием.

Осмысливая весь корпус представленных работ в совокупности, редакционная коллегия усматривает в них единую интеллектуальную и гражданскую позицию, а именно, социальные науки в Узбекистане не стоят в стороне от реформ, они участвуют в них как равноправный партнёр власти и голос общества. Авторы выпуска задают вопросы, которые государство должно слышать, в частности, насколько реально доступны социальные услуги для тех, кто в них нуждается? Каковы механизмы трансформации неформальной занятости в занятость достойную? Как обеспечить, чтобы цифровизация не усугубляла, а преодолевала неравенство? Какие институциональные барьеры мешают молодым людям с ограниченными возможностями реализовать себя? Эти вопросы направлены на продуктивную рефлексию, без которой самая благородная политическая воля рискует утонуть в формализме.

Настоящий выпуск подготовлен в убеждении, что эффективный диалог между обществом и государством невозможен без языка, на котором этот диалог ведётся, языка достоверного научного знания о социальной реальности. Создавать, совершенствовать и делать этот язык понятным для тех, кто принимает решения, и для тех, кого эти решения касаются, в этом редакция видит миссию журнала. Мы благодарны всем авторам, доверившим нам свои исследования, членам редакторского коллектива и читателям, для которых наука об обществе есть инструмент понимания и совершенствования жизни.

**Главный редактор**
**Сеитов А.П.**
**Д.с.н., проф. УМЭД**

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Rasulov Abdimumin,**
O‘zbekiston Milliy universitei va
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
e-mail: abdi_1970@mail.ru

## O‘ZBEKISTONDA PSIXODIAGNOSTIKA METODIKALARINING TATBIQ ETISH TARIXI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Psixodiagnostika fan sifatida shakllanishi o‘zining tarixiy ildizlariga ega. Fanning tarixiy ildizlari uning taraqqiyot yo‘lini belgilash imkonini beradi. Bugungi kunda jahon psixodiagnostikasining rivojlanishi o‘zining uzoq yillik tajribasiga tayanib baholanadi. O‘z navbatida O‘zbekistonda psixodiagnostikaning rivojlanishi ham jahon tajribasi tajribasi ta’sirida kechmoqda. O‘zbekistonda psixodiagnostikaning rivojlanishi bo‘yicha tahliliy materiallar mamlakatda amalga oshirilgan dissertatsion tadqiqotlardagi diagnostika vositalarini tatbiqi bilan bog‘liq amalga oshirilgan. Psixodiagnostika metodikalarining tadqiqotlarda qo‘llanish xususiyatiga ko‘ra turlarga ajratilgan va ularning qo‘llanish holati baholangan. O‘zbekistonda psixodiagnostika tadqiqotlarining tarixiy ildizlari va olib borilgan izlanishlarga ko‘ra shartli ravishda bosqichlarga ajratib ko‘rsatilgan. Bu esa mazkur muammo yuzasilan alohida tadqiqot olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** psixodiagnostika, psixodiagnostik metodikalar, psixologik testlar, testlarni tatbiq etish tarixi, O‘zbekiston psixologiyasi, psixologiya tarixi, testlarni adaptatsiya qilish, shaxs psixodiagnostikasi , intellektual salohiyat, psixologik tadqiqot metodlari, mahalliy metodikalar, dissertatsion tadqiqotlar, psixometrik talablar, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar, diagnostik vositalar.

---

**Расулов Абдимумин,**
Национальный университет Узбекистана и
Международная Исламская Академия Узбекистана,
доктор психологических наук (DSc), профессор,
e-mail: abdi_1970@mail.ru

## ИСТОРИЯ ВНЕДРЕНИЯ ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДИК В УЗБЕКИСТАНЕ

**АННОТАЦИЯ**

Психодиагностика имеет исторические корни в своем становлении как наука. Исторические корни науки позволяют установить путь ее развития. Сегодня развитие мировой психодиагностики оценивается, опираясь на анализ ее содержания в историческом контексте. В свою очередь на развитие психодиагностики в Узбекистане также влияет мировой опыт. Анализ развития психодиагностики в Узбекистане был проведен на основе обобщения информации о примененных диагностических инструментах в выполненных диссертациях.

Это позволило разделить используемые психодиагностические методы на типы. Кроме этого в статье предлагаются этапы психодиагностических исследований в Узбекистане.

**Ключевые слова:** психодиагностика, психодиагностические методики, психологические тесты, история внедрения тестов, психология Узбекистана, история психологии, адаптация тестов, личностная психодиагностика, интеллектуальный потенциал, методы психологических исследований, локальные методики, диссертационные исследования, психометрические требования, социально-психологические исследования, диагностические инструменты.

---

**Rasulov Abdimumin,**
National University of Uzbekistan and
the International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor,
e-mail: abdi_1970@mail.ru

# THE HISTORY OF THE IMPLEMENTATION OF PSYCHODIAGNOSTIC METHODS IN UZBEKISTAN

**ANNOTATION**

Psychodiagnostics has historical roots in its formation as a science. The historical roots of science make it possible to establish the path of its development. Today, the development of world psychodiagnostics is assessed, relying on its content in historical context. In turn, the development of psychodiagnostics in Uzbekistan is also influenced by the world experience. Analysis of development of psychodiagnostics in Uzbekistan was conducted based on generalization of information about diagnostical tools, used in performed dissertational studies in Uzbekistan. It allowed to divide used psychodiagnostical methods into types. Besides that stages of psychodiagnostical studies in Uzbekistan are offered in the article.

**Key words:** psychodiagnostics, psychodiagnostic methods, psychological tests ,history of test implementation, psychology of Uzbekistan, history of psychology, test adaptation, personality assessment, intellectual potential, research methods in psychology, local methodologies, dissertation research, psychometric requirements, socio-psychological research, diagnostic tools.

---

## KIRISH

Psixodiagnostikasiga doir izlanishlar jahon psixologiyasi (AQSh va Yevropa mamlakatlari), Sobiq Ittifoq (Rossiya va Mustaqil hamdoʻstlik mamlakatlari)da olib borilgan tadqiqotdarga hamohang tarzda vatanimiz psixologiyasi (Oʻzbekiston Respublikasi) da muammoning oʻrganilganlik holatini tadqiq etishga zarurat tugʻdirmoqda. Tadqiqot doirasida olib borilgan izlanishlar va ilmiy manbalar tahlil doirasidagi yondashuvlar muammoning mamlakatimiz miqyosida tor doirada yoritishda bir oz cheklanishlarga duch kelganligidan dalolat bermoqda. Shu sababli, muammoni shaxs psixodiagnostikasi boʻyicha tadqiqot metodikalari tushunchasi oʻrnida psixologik testlar yoki psixodiagnostika metodikalarni tatbiqi masalasiga aylantirgan holda yoritishni taqozo etmoqda. Bu esa oʻz navbatida Oʻzbekistonda psixologiya fani sohalari boʻyicha psixodiagnostik metodikalarning tatbiqi, oʻz navbatida, shaxs psixodiagnostikasi doirasidagi metodikalarni milliy muhitga joriy etilish holatini yoritish imkonini bermoqda.

## METODOLOGIYA

Tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, avlodlarimiz ham inson psixologiyasini tekshirish uchun oʻz sharoitlari va imkoniyatlari darajasida sinov-tajribalar oʻtkazganliklarining guvohi boʻlamiz. Chunki, oʻz davridayoq Abu Ali Ibn Sino emotsional holatlarni tadqiq etish uchun oddiygina usul qoʻllagan. Biroq, samarali taassurot qoldiruvchi psixologik maʼlumot olishga imkon beruvchi dalilni keltira olgan. U emotsiyaning inson tabiatidagi rolini quyidagi tajribada, yaʼni qoʻy bilan boʻri misolida isbotlagan edi. Tajribada ikkita qoʻy alohidla bir qoʻraga joylashtirilib, ozuqa bilan boqiladi. Natijada hech qanday tashqi xavfsiz holatda unda semirish imkoniyati anchagina yuqori boʻlganligi. Ikkinchi holatda esa parvarishlanayotgan qoʻyning yonida ikkinchi qoʻra hosil qilinib, u yerda boʻri

saqlanadi. Natijada bir xil parvarish qilinayotgan ikkinchi qo‘yning qarshisida bo‘ri turganligi sababli, uni semirish imkoniyati pasayib ketganligi va xotirjamlik bo‘lmasa, ruhiy ta’sir tanada keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi tajriba asosida isbotlangan [14, – B.41-42]. Ushbu eksperiment o‘n asrdan ortiqroq vaqt oldin amalga oshirilgan bo‘lsa-da, uning mohiyatida zamonaviy psixologiyadagi ong, psixika bilan tana o‘rtasidagi munosabat masalasi asoslangan.

Biz sobiq Ittifoqda testlar muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan tahlillarda, aynan psixologik testlarning paydo bo‘lishi emas, balki ularni tatbiq etishdagi urinishlar XX asrning 20-yillarida amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi tarixiy ma’lumotni keltirgan edik. Bunda dastlabki testlarning tatbiqi aholining intellektual salohiyati masalasini tekshirish uchun A.R.Luriya tomonidan tog‘li aholisi o‘rtasida amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan bog‘liqdir [3, – B.47-49]. Bu psixologik tadqiqotlarning dastlabki bosqichi sanaladi. Testlarning tatbiq etilishi bolalarning aqliy taraqqiyotdan ortda qolishiga bog‘liq ma’lumotlar qayd etilganligi bilan xarakterlanganligi, ularning sababi, bolalarning fiziologik, ijtimoiy rivojlanishiga bog‘liq omillarning o‘rni orqali tushuntirilgan. Ushbu xoslik faqat Osiyo mintaqasidagi ishchi-dehqon aholisi uchun emas, balki butun Ittifoqdagi boshqa millat vakillariga ham xosligi ta’kidlangan edi [2].

**ASOSIY QISM**

Biz Respublikamizda psixologik testlar va metodikalarning tatbiq etilishi va ularning psixologik amaliyotda qo‘llanilishi borasidagi tarixiy manbalarga murojaat qilishimiz, anchagina manbalarda cheklanishimizga sabab bo‘ldi. Bu esa psixologik testlar tarixiy ildizlari tahlil etishga ehtiyoj tug‘ildi. Ammo testlarning paydo bo‘lishi borasidagi jahon amaliyoti tarixida sinov-tekshiruv masalalari turli xil ko‘rinishlarda gavdalanganligini e’tirof etishimizga to‘g‘ri keldi.

Ammo, zamonaviy psixologiyada testlarning tatbiq etilishi holatini mamlakatimiz miqyosidagi ahvoli Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan davrda shubhasiz, uning tarixida yuz bergan barcha yutuqlar va yo‘qotishlar bilan chambarchas bog‘liq. Sobiq Ittifoqda psixodiagnostika metodikalarining tatbiq etilishidagi siyosiy tazyiq ta’siri XX asrning 70-yillariga qadar davom etib, mazkur yo‘nalishning rivojlanishida keskin regressiyani keltirib chiqqanligi sir emas [2, – B.86-90]. Bu holat psixodiagnostikaning O‘zbekistonda rivojlanishi tarixi uchun ham xosdir. Ammo o‘tgan asrning 70-yillarida psixologik testlarni erkin tatbiq etishga berilgan ruxsat tufayli ularni shakllantirish va foydalanish masalasining ta’siri ham respublikamizni chetlab o‘tmadi. 1972-yilda Respublikamizda Toshkent davlat universiteti tarkibida “Psixologiya” bo‘limining ochilishi va psixologlar tayyorlashning yo‘lga qo‘yilganligi katta yutuq sanaladi. Bu holat mamlakatimizga zamonaviy psixologiya bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar olib borishga qo‘yilgan qadam hisoblanadi.

Agar psixologik testlarning XX asrning 80-90-yillardagi tatbiqiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular umumiy psixologik, psixodiagnostik, sotsial psixologik, etnospixologik va pedagogik va yosh psixologik xarakterda o‘rganila boshlandi. Bu davrda psixologik tadqiqotlarda yuqorida sanab o‘tilgan testlardan tashqari, Spilberg-Xanin metodikasi (E.G‘.G‘oziev) [13], G.Yu Ayzenkning intellektni o‘rganish testi (E.G‘.G‘oziev, R.Yu.Toshimov) [1; 6], DJ.Ravenning “Progressiv matritsalar” testi (B.R.Qodirov), Ya.Yerasik testi, Qiziqishlar xaritasi, ustanovkalar va kasbiy yo‘nalganlik metodikalari (B.R.Qodirov) [11; 15], oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan Alyoshin testi (G‘.B.Shoumarov [8], B.Umarov [7] va boshqa metodikalarni moslashtirish hamda tatbiq etish ishlari yo‘lga qo‘yilganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Shuningdek, psixologik testlarni tatbiq etish va ularni moslashtirish borasida respublikamizda olib borilgan ishlar 1996-yilda Respublika tashxis Markazining tashkil etilishi va uning viloyatlardagi bo‘limlarini ochilishi, mamlakat talaba tanlovida test tizimi joriy etilishi ham bu sohadagi yutuq sanaladi.

XX asrning 90-yillari va XXI asrda esa psixologik testlarning tatbiqi mamlakatimiz psixologlari tomonidan mustaqil amalga oshirila boshlandi. Testlarning yaratish va ularni amaliyotda qo‘llashning yo‘lga qo‘yilishini O‘zbekiston Mudofaa vazirligi qoshida psixologik markaz, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining psixofiziologik laboratoriyalari faoliyatining tashkil qilinganligi bilan bog‘lash mumkin.

Psixologik testlarni tatbiq etilishi va ularning rivojlanishi tarixini Respublikamizdagi holatiga e'tibor qaratishimiz bugungi kunda qo'llanilayotgan psixodiagnostik metodikalar testlar, so'rovnomalar bilan bog'liq tahliliy materiallar to'plash imkoniyatini keltirib chiqardi. Biz ushbu masalaga to'xtalishimizdan oldin Respublikamiz olimlari tomonidan yaratilgan testlarning ayrimlarini sanab o'tishimizga to'g'ri keladi. Professor E.G'.G'ozieviing "Shaxsning irodaviy sifatlarini testi" (M.V.Chumakov metodikasining modifikatsiyalashtirilgan shakli), "Fidoyilik xislatini baholash" shkalasi, "Barkamol insonni baholash" testi, "Vatanparvarlik xis-tuyg'usini baholash", "Muloqotmandmisiz" (V.F.Ryaxovskiy so'rovnmasining moslashtirilgan shakli) [13], E.G'.G'oziev, Sh.Usmonovalarning jahon psixologiyasidagi intellekt testlari bo'yicha to'plami [12] va professor B.R Qodirovning "Sinf zukkolarini tanlash metodikasi", "Kasbiy yo'nalganlikni aniqlash" (K.B.Qodirov) [11], Iqtidorli bolalarning birlamchi tanlov metodikalari ("100 ta so'z" va "50 ta jumla" savodxonlik testlari) (B.R.Qodirov) [10] ushbu testlarning jumlasidandir. Psixologik testlarni moslashtirishdan shakllantirish bosiqichiga o'tganligini mamlakatimizda psixologik testlar tarixida o'sish yuz berganligidan dalolatdir.

Tadqiqotimizda 1992-2020-yillar oralig'ida bajarilgan psixologiya fanlari nomzodi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasi uchun bajarilgan dissertatsiyalar holati tahlil qilindi. O'tgan davrda Respublika miqyosida qo'llanilgan metodikalarning holati mamlakatimizda bajarilgan psixologiya fani sohalari bo'yicha dissertatsiyalarning tatbiq qilinishiga ko'ra 300 ta metodika qo'llanilganligi aniqlandi. Bu natijalar O'zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot resurs markazlaridagi psixologiya fani ixtisosliklari bo'yicha bajarilgan dissertatsiyalar bilan tanishish asosida ushbu tahlili materiallar qo'lga kiritildi. Ulardan 117 tasi 1992-yildan 2017-yilgacha, 183 tasi esa 2017-2020-yillar oralig'idagi tadqiqotlarda foydalanilganligi ma'lum bo'ldi [4].

Mamlakatimizda 1992-2017-yillar oralig'ida amalga oshirilgan dissertatsiyalarda 117 ta, 2017-2019-yilda esa 40 ta dissertatsion tadqiqotlarda 183 ta turli xil darajadagi metodikalardan foydalanilganligi aniqlandi. Har ikkala bosqichga xos bo'lgan metodikalarning umumiy ko'rsatkichi 300 tani tashkil qildi [4].

Biz ushbu metodikalarni klassifikatsiyalagan holda ularning quyidagicha guruhlarga ajratildi (1-jadval).

Respublika miqyosidagi tadqiqotlarda qo'llanilgan barcha turdagi metodikalarning eng asosiy qismi boshqa milliy-madaniy muhitlarda yaratilgan metodikalar bo'lib, mahalliy sharoitda shakllantirilganlarining holati ancha quyi darajada (39 ta) ekan, ya'ni ular barcha tatbiq qilingan metodikalarning 13 foizini tashkil qilmoqda.

Bundan ko'rinadiki, tadqiqotlarda mahalliy psixologlar tomonidan metodikalarni shakllantirish masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligidan dalolat beradi.

**1-jadval**

**O'zbekistonda 1992-2020-yillarda amalga oshirilgan dissertatsion tadqiqotlarda qo'llanilgan metodikalarning holati**

| № | Metodikalarning turlari | Yillar bo'yicha | | | Metodikakalarning ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 1992-2017 yy. | 2017 dan hozigi kungaacha | 1992-hozirgi kungacha | |
| 1. | Shaxs qirralari, tiplari, qadriyatlari, yo'nalganligi, ustanovkalari va qiziqishlari | 27 | 43 | 70 | 23,33 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | o‘rganishga mo‘ljallagan metodikalar | | | | |
| 2. | Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish metodikalari | 5 | 5 | 10 | 3,33 |
| 3. | Shaxsning motivatsiya , emotsiya va irodaviy sohalarini tadqiq qilish metodikalari | 25 | 36 | 61 | 20,33 |
| 4. | Shaxsning kognitiv sohasini tadqiq qilish metodikalari | 6 | 19 | 25 | 8,34 |
| 5 | Sotsial psixologik tadqiqot metodikalari (sotsial adaptatsiya, ijtimoiy ustanovkalar, oilaviy munosabatlar va qadriyatlarni ) | 19 | 37 | 56 | 18,70 |
| 6 | Ijtimoiy psixologik so‘rovnomalar (mahalliy olimlar tomonidan shakllantirilgan | 12 | 15 | 27 | 9,00 |
| 7 | Proektiv metodikalar | 9 | 8 | 17 | 5,60 |
| 8 | Sotsiometriya | 1 | 1 | 2 | 0,70 |
| 9 | Faoliyat uslublari, faoliyat sohalari va kasb tanlashni o‘rganishga mo‘ljallangan metodikalar | 5 | 4 | 9 | 3,00 |
| 10 | Anketalar | 8 | 15 | 23 | 7,66 |
| | **Jami** | **117** | **183** | **300** | |

Barcha turdagi psixodiagnostika metodikalarining salmog‘iga ko‘ra eng ko‘p tatbiq qilinganlari toifasiga “Shaxs qirralari, tiplari, qadriyatlari, yo‘nalganligi, ustanovkalari va qiziqishlari o‘rganishga mo‘ljallagan metodikalar” guruhi bo‘lib, ular 23,33 foiz, “Shaxsning motivatsiya, emotsiya va irodaviy sohalarini tadqiq qilish metodikalari” 20, 33 foiz, “Sotsial psixologik (sotsial adaptatsiya, ijtimoiy ustanovkalar, oilaviy munosabatlar va qadriyatlarni ) tadqiq qilish metodikalari” esa 18,70 foiz ulushiga ega. Tatbiq etish ko‘rsatkichi past bo‘lgan metodikalar toifasiga “Sotsiometriya” kiritish mumkin (0,70 foiz).

Shuningdek, dissertatsiya ishlarii bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda mahalliy olimlar tomonidan shakllantirilgan metodikalarning ko‘p qismini “Ijtimoiy psixologik so‘rovnomalar” (7,66 foiz) tashkil etdi. Bu esa ko‘proq ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan diagnostika vositalari sanaladi.

Oxirgi yigirma yillik ichida mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar va shakllantirilgan ilmiy adabiyotlarda metodikalarning ishlab chiqish holatiga daxldor sanoqli manbalarni keltirish mumkin.

Masalan, professor B.R.Qodirov tomonidan iqtidorli bolalarning birlamchi tanlovi metodikalari yo‘nalishida “Sinf zukkolarini tanlash metodikasi”, “Savodxonlik testlari” (“100 ta so‘z” testi, “50 ta jumlalar” testi) [10], P.S.Ergashev tomonidan “Simmetriya hissi darajasini tashxis qilish metodikasi (“Barron-Welsh Art Scale”)” bo‘yicha natijalarni qayta ishlash tizimi modifikatsiya qilingan va “Simmetriyaning bosqichli shkalasi” ishlab chiqilganligi (P.S.Ergashev) [9], tadqiqotchi Z.Rasulova tomonidan shakllantirilgan “Oila-nikoh masalalari” assotsiativ so‘rovnomasi [5] shular jumlasidandir.

Bizning e'tiborimizni tortadigan yana bir jihati-bu psixologik tadqiqotlarda diagnostika metodikalarining tatbiq etilishi va ularning qo‘llanilish darajasini tahlil bo‘ldi. Biz 156 ta dissertatsiyalarda qo‘llanilgan tadqiqot metodikalari bilan tanishib ularning tizimlashtirishga harakat qildik. Ularning holati xususidagi ma'lumot navbatdagi 2- jadvalda keltiriladi.

Metodiklarning tadqiqotlarda qo‘llanilishi bo‘yicha G.Yu.Ayzenk metodikasi 13 (0,76) marta foydalanganligi bilan eng yuqori reyting ko‘rsatkichiga ega bo‘ldi. “Shaxs xarakterining aksentuatsiyasini aniqlash” (K.Leongard) metodikasi esa 12 (0.70) ta dissertatsion tadqiqotlarda foydalanilgan.

**2-jadval.**

**Psixologik tadqiqotlarda qo‘llanilgan shaxs psixodiagnostikasi metodikalarining (so‘rovnoma) qo‘llanish holatiga ko‘ra ranjirovkasi***

| № | Metodikaning nomi | Tatbiq etilganlik holati | Koeffitsient |
|---|---|---|---|
| 1. | “Ekstraversiya, introversiya va neyrotizmni o‘rganish” so‘rovnomasi (G.Yu. Ayzenk) | 13 | 0,76 |
| 2. | Shaxs xarakterining aksentuatsiyasini aniqlash (K.Leongard) | 12 | 0,70 |
| 3. | “16 omilli shaxs so‘rovnomasi” (R.B, Kettell) | 10 | 0,5 |
| 4. | Dj.Raven testi | 8 | 0,47 |
| 5. | T.Liri metodikasi | 7 | 0,41 |
| 6. | Psixodiagnostik test (L.T.Yampolskiy) | 7 | 0,41 |
| 7. | Shaxs bilan bog‘lik xavotirlanishni o‘rganish metodikasi” (A.M.Prixojan); | 6 | 0,35 |
| 8. | Spilberger-Xanin metodikasi | 6 | 0,35 |
| 9. | V.V.Stolin metodikasi | 5 | 0,29 |
| 10. | Teylor metodikasi | 5 | 0,29 |
| 11. | Shaxsning individualligini o‘rganishga qaratilgan so‘rovnoma (E.G‘G‘oziev va R.Toshimov) | 5 | 0,29 |
| 12. | “Shaxs kadriyatlarining yunalganligini aniqlash” (I.G.Senin) | 5 | 0,29 |
| 13. | M.Yu.Orlov, A.Mexrabian, E.G‘.G‘oziev metodikalari | 4 | 0,23 |
| 14. | Yoshlarni kasbga yo‘naltirish so‘rovnomasi (B.R.Qodirov) | 4 | 0,23 |
| 15. | Dembo-Rubinshteyn metodikasi | 3 | 0,17 |
| 16. | “O‘smir o‘quvchilarda xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini aniklash so‘rovnomasi” (Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbaeva) | 2 | 0,11 |
| 17. | MMPI va uning modifikatsiyalari | 2 | 0,11 |
| 18. | K.Yung testi | 1 | 0,05 |

*Izoh:*Tadqiqotlarda qo‘llanilganlik holati yuzasidan.*

Qolgan to‘rtlikka kiruvchi metodikalarning ulushi bir necha metodikalarda bir xillikni tashkil etganligi asosida taqdim etildi. R.B.Kettell 16 RG‘ so‘rovnomasi esa 10 marta (0,50) tadqiqot metodikasi sifatida foydalanilgan. Shaxslik so‘rovnomalaridan tashqari keng ko‘lamda Dj.Ravenning “Progressiv matritsalari” testi 8 (0,41) marta tadqiqot ishida metodika sifatida tatbiq qilingan. Mahalliy muhitda yaratilgan metodikalar ulushi haqida so‘z borganda “Shaxsning individualligini o‘rganishga qaratilgan so‘rovnoma (E.G‘.G‘oziev va R.Toshimov) 5 marta (0,29), “Yoshlarni kasbga yo‘naltirish so‘rovnomasi” (B.R.Qodirov) 4 marta (0,23) hamda “O‘smir o‘quvchilarda

xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini aniklash so‘rovnomasi” (Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbaeva) 2 marta (0,11) tatbiq etilganligi kuzatildi.

Biz yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda testlarning tatbiq etilishi bilan bog‘liq tarixini quyidagicha besh davrga shartli ajratishimizga to‘g‘ri keldi (3-jadval).

**3-jadval**

**O‘zbekistonda psixologik testlarni qo‘llanilish tarixining davrlanishi**

| Davr | Xususiyatlari |
|---|---|
| I (XX asrga qadar) | To‘liq fan sifatida shakllanmagan, ammo ayrim psixologik xarakterdagi tajribalarni amalga oshirilishi |
| II (XX asrning 20-30-yillari) | Psixologik tajribalar o‘tkazilishi, ammo mustaqil tadqiqotlar olib borilmagan. Psixologik testlar tubjoy aholisining o‘rganishga yo‘naltirilgan |
| III (XX asrning 50-90 yillari) | O‘zaro ilmiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi, tadqiqot ishlarining olib borilishi, psixologik testlarni mahalliy sharoitga olib kirilishi, ularni moslashtirish ishlarini yo‘lga qo‘yilishi |
| IV (XX asrning 90-yillari) | Mustaqil faoliyatning amalga oshirilishi, psixologik testlarning joriy etilishi, dastlabki psixologik testlar to‘g‘risidagi maqola va qo‘llanmalarning chop etilishi. Tashxis Markazi faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligi. |
| V (2000-2019 yillar) | Psixologik testlarni qo‘llashda keskin burilishning yuz berganligi, yangi metodikalar shakllantirilayotganligi va ularni tadqiqotlarda qo‘llanilishi |

O‘zbekistonda psixodiagnostikaning rivojlanishi bo‘yicha tadqim qilingan ushbu namuna shartli tarzda amalga oshirildi. Bu boradagi izlanishlarni keng ko‘lamda amalga oshirish lozim bo‘ladi.

**XULOSA**

1. Psixodiagnostikaning tarixiy ildizlari chuqur va ko‘p bosqichlidir. O‘zbekiston hududida inson psixikasini o‘rganishga doir ilk qarashlar va tajribalar qadimiy davrlarga, jumladan, Abu Ali ibn Sino ilmiy merosiga borib taqaladi. Bu holat psixodiagnostikaning milliy ilmiy an’analari mavjudligini ko‘rsatadi.

2. Psixodiagnostik metodikalarning tizimli tatbiqi XX asrda shakllangan. Ayniqsa, XX asrning 20-yillaridan boshlab psixologik testlar amaliyotga kiritila boshlangan va bu jarayon A.R. Luria tadqiqotlari bilan bog‘liq holda ilmiy asoslangan bosqichga o‘tgan.

3. Siyosiy va ijtimoiy omillar psixodiagnostika rivojiga ta’sir ko‘rsatgan. Sobiq Ittifoq davridagi siyosiy cheklovlar psixodiagnostika metodikalarining rivojlanishini sekinlashtirgan bo‘lsa-da, 1970-yillardan boshlab ularni qayta tiklash va keng tatbiq etish jarayoni boshlangan.

4. Mustaqillikdan keyin psixodiagnostika sohasida jadal rivojlanish kuzatildi. Respublikada tashxis markazlari, psixologik xizmatlar va ilmiy tadqiqotlar tizimining shakllanishi psixodiagnostik metodikalarni amaliyotga keng joriy etish imkonini berdi. Bu davrda metodikalarni moslashtirishdan ularni mustaqil yaratish bosqichiga o‘tish kuzatildi.

5. Mahalliy psixodiagnostik metodikalar ulushi hali ham yetarli emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, amaliyotda qo‘llanilayotgan metodikalarning katta qismi xorijiy manbalarga asoslangan bo‘lib, mahalliy muhitga mos, milliy xususiyatlarni hisobga olgan metodikalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda

**Adabiyotlar/ Literatura/ References:**

1. Айзенк Г., Айзенк М. Исследования человеческой психики / Пер. А.Озерова. – М: ЭКСМО-Пресс, 2001. – 480 с.

2. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика: учебник для вузов / Л.Ф.Бурлачук. – СПб.: Питер, 2006. – 351 с.

3. Лурия А.Р. Культурные различия и интеллектуальная деятелность//Этапы пройденного пути: Научная автобиография. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1982. – С. 47-69.

4. Расулов А.И. Шахс психодиагностикаси методикаларининг илмий-амалий асослари: психология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – 280 б.

5. Расулова З.А. Ўзбекларда оила-никоҳ анъаналарининг ижтимоий ва этник психологияси: Психология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – 70 б.

6. Тошимов Р.Ю., Фозиев Э.Ф. Психодиагностика ва амалий психология. – Тошкент: ЎзМУ, 2004. – 132 б.

7. Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари: психология фанлари докт. диссертацияси. –Тошкент, 2009. – 360 с.

8. Шоумаров Ғ.Б. Оилага психологик ёрдам кўрсатиш асослари. – Тошкент, 2014. – 201 б.

9. Эргашев П.С. Симметрия ҳисси феноменологик таҳлили, диагностикаси ва коррекцияси: психология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019. – 63 б.

10. Қодиров Б.Р. Иқтидорли болаларнинг бирламчи танлови методикалари. –Тошкент, 2014. – 76 б.

11. Қодиров Б.Р., Қодиров К.Б. Касбий ташҳиси методикалари тўплами //Амалиётчи психологлар учун методик қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2003. – 94 б.

12. Ғозиев Э.Ғ., Усмонова Ш. Интеллект психологияси. – Тошкент: Университет, 1996.- 47 б.

13. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. – Тошкент: “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2010. – 542 б.

14. Ярошевский М.Г. История психологии: От античности до середины XX века: учеб. пособие для вузов / М.Г.Ярошевский. – 2-е изд. – М.: Академия, 1997. – 416 с.

15. Raven J. The Raven’s progressive matrices: change and stability over culture and time // Cognitive Psychology. – 2000. – T. 41, № 1. – S. 1-48.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Xusanova Xayriniso,**
Sotsiologiya fanlari doktori,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston milliy universiteti
Sotsiologiya kafedrasi v.b. professori,
email: hayrinisohusanova@gmail.com
**Kamilov Farxod,**
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi v.b.dotsenti,
email: bekkomilov@mail.ru

# G‘ARB DAVLATLARIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASHNING KONSEPTUAL VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Maqolada Yevropa davlatlarida aholini ijtimoiy himoyalash bo‘yicha chora tadbirlarning davlat ijtimoiy siyosati darajasida institutsionallashish jarayonlari o‘rganilgan. Bunda, nafaqat ijtimoiy fanlar kesimida balki, biologik determinizm tarafdorlari ijtimoiy himoya davlat mablag‘lariga zarar yetkazishi borasidagi munozaralar tahlil qilingan. Gumanistik g‘oya tarafdorlari esa, aksincha, sivilizatsiyalashgan xalqlarda nochor kishilarni teng imkoniyatlar va imtiyozlarga haqli ekanligi talqinlangan. Maqolada, aholini ijtimoiy himoyalashning institutsionallashuvi g‘arb davlatlaridagi obyektiv funksional va strukturali ehtiyojlar ta’sirida sodir bo‘lganligi davriylashtirilgan va turkumlangan. G‘arb davlatlarida ijtimoiy himoya tizimining institutsionallashuvi bu sohadagi chora-tadbirlar hukmdorlarning yuritgan davlat siyosati va ishlab chiqarish birlashmalari doirasida amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Zamonaviy global tendensiyalar bois, umumfarovonlik davlati g‘oyasi dolzarbligini yo‘qotib borishi, ijtimoiy himoyada yalpi qarovdan individual yondashuvga o‘tilishi va aholini ijtimoiy himoyalash sohasidagi ijtimoiy innovatsiyalar tahlil qilingan. Ijtimoiy himoya tizimidagi innovatsiyalardan kelib chiqib ilmiy tahliliy xulosalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy himoya, institutsionallashish, evolyusiya, fuqarolik huquqi, biologik determinizm, kambag‘allik, differensiallashgan individual yordamda, marginallik, mehnatga layoqatsizlik, fragmentarlik, umumfarovonlik davlati, migratsiya, personallik, farovonlik, ijtimoiy tahlikalar, mehnat uylari.

---

**Хусанова Хайринисо,**
доктор социологических наук,
и.о. профессора кафедры социологии
Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека,

email: hayrinisohusanova@gmail.com
**Камилов Фарход,**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
и.о. доцента кафедры «Социально-гуманитарных наук»
Университета журналистики и массовых
коммуникаций Узбекистана
e-mail: bekkomilov@mail.ru

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В ЗАПАДНЫХ СТРАНАХ

**АННОТАЦИЯ**

В статье исследуются процессы институционализации мер по социальной защите населения в европейских странах на уровне государственной социальной политики. Наряду с анализом в разрезе социальных наук, рассматриваются дискуссии сторонников биологического детерминизма о том, что социальная защита наносит ущерб государственным средствам. С другой стороны, интерпретируются взгляды сторонников гуманистических идей о праве, нуждающихся в цивилизованных обществах на равные возможности и льготы. В статье периодизирована и классифицирована институционализация социальной защиты под влиянием объективных функциональных и структурных потребностей западных государств. Институционализация системы социальной защиты в западных странах показывает, что меры в этой сфере осуществлялись в рамках государственной политики правителей и производственных объединений. В связи с современными глобальными тенденциями проанализированы утрата актуальности идеи «государства всеобщего благосостояния», переход от массовой опеки к индивидуальному подходу в социальной защите, а также социальные инновации в этой сфере. На основе инноваций в системе социальной защиты выдвинуты научно-аналитические выводы.

**Ключевые слова:** социальная защита, институционализация, эволюция, гражданское право, биологический детерминизм, бедность, дифференцированная индивидуальная помощь, маргинальность, нетрудоспособность, фрагментарность, государство всеобщего благосостояния, миграция, персональность, благосостояние, социальные риски, рабочие дома.

---

**Khusanova Khayriniso,**
Acting Professor of the Department of Sociology,
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Science (DSc) in Sociology
email: hayrinisohusanova@gmail.com
**Kamilov Farkhod,**
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology,
Associate Professor of the Department of
Social Sciences and Humanities,
University of Journalism and Mass
Communications of Uzbekistan,
e-mail: bekkomilov@mail.ru

## CONCEPTUAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF SOCIAL PROTECTION IN WESTERN COUNTRIES

**ABSTRACT**

The article examines the processes of institutionalizing social protection measures in European countries at the level of state social policy. Alongside analysis from a social science perspective, the paper considers debates by proponents of biological determinism who argue that social protection drains state resources. Conversely, it interprets the views of humanistic thinkers

regarding the rights of the needy to equal opportunities and benefits in civilized societies. The institutionalization of social protection is periodized and classified based on the objective functional and structural needs of Western states. The development of social protection systems in Western countries demonstrates that measures in this field were implemented within the framework of state policies by rulers and industrial associations. In light of contemporary global trends, the article analyzes the waning relevance of the "welfare state" concept, the shift from mass guardianship to individualized approaches in social protection, and social innovations in the field. Scientific and analytical conclusions are presented based on these innovations within the social protection system.

**Keywords:** social protection, institutionalization, evolution, civil law, biological determinism, poverty, differentiated individual assistance, marginality, disability, fragmentation, welfare state, migration, personality, well-being, social risks, workhouses.

---

**KIRISH**

G‘arbda aholini ijtimoiy himoyalashning institutsionallashuvi dinamik jarayon sifatida kechdi. V.Antropovning fikriga ko‘ra: “Ijtimoiy himoyada evolyutsion rivojlanish qonuniyati ishlaydi. Zamonaviy ijtimoiy himoyaning tizimli xususiyat kasb etib borishi sanoatlashuv va davlat funksional vakolatlarining kengayishi, ijtimoiy jarayonlarning tartiblanishi, jamiyatning murakkab ijtimoiy-demografik rivojlanish yo‘liga o‘tish bilan chambarchas bog‘liq holda kechdi” [1, – B.15]. G‘arb davlatlarida ijtimoiy himoya tizimining ilmiy-konseptual va institutsional asoslarining yaratilishi o‘zaro aloqadorlikda jarayonlar ketma-ketligida sodir bo‘ldi va uni shartli ravishda quyidagicha davrlashtirildi:

**METODOLOGIYA**

Sotsiologik nuqtayi nazardan ijtimoiy himoya davlat ijtimoiy siyosatining institutsional tarmog‘i bo‘lib, u o‘zida jamiyatning strategik taraqqiyot maqsadlarini ifodalaydi. Uni sotsiologik o‘rganish «Ijtimoiy himoya sotsiologiyasi» tarmoq yo‘nalishini shartlaydi va quyidagi darajalar kesishmasida o‘rganiladi:

1) umummetodologik daraja – ijtimoiy himoyani ilmiy o‘rganishda multidissiplinar metodologiyaga tayanish;

2) tarmoq sotsiologiyasi – ijtimoiy himoya sotsiologiyasi doirasidagi ilmiy tadqiqotlar mahsuli bo‘lgan maxsus nazariyalar;

3) empirik daraja – amaliy sotsiologik tadqiqot metodlari yordamida sohaning sotsiologik diagnostikasini amalga oshirish.

Ushbu darajalar «Ijtimoiy himoya sotsiologiyasi»ning metodologik va metodik bazasini hosil qiladi. Shuningdek, «ijtimoiy himoya» tushunchasi falsafa, tarix, sotsiologiya, iqtisodiyot, demografiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, psixologiyada fanlararo tadqiqotlarga turtki berdi. Natijada, multidissiplinar loyihalarni amalga oshirish tendensiyasi organik metodologik hamkorlik va fanlararo konsensusni shartladi. Bu akademik ilm-fan doirasida yaqqol sezilmoqda va ijtimoiy himoyaning zamonaviy mazmun-mohiyatini ilmiy o‘rganishda integratsiyalashgan yondashuvni shakllantirmoqda. Demak, ijtimoiy himoya universal ilmiy obyekt sifatida bitta fan doirasida muxtor qola olmaydi. Aksincha, ko‘p qirrali metodologiyaga tayanadi va multidissiplinar simbiozni hosil qiladi.

**ASOSIY QISM**

1-bosqich: Ijtimoiy yordamning ijtimoiy-falsafiy va diniy-teologik dunyoqarashda aks etishi. G‘arbda bir necha avlod vakillarini o‘z ichiga oluvchi katta patriarxal oilalardan iborat natural xo‘jalik yuritilgan. Bu davrda aholini ijtimoiy himoyalash masalalari diniy-teologik dunyoqarash doirasida talqinlandi. Bu davrda nochorlik “insonning qismati” hisoblanib, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va ojizlik Yaratuvchining irodasi bilan bog‘landi [2, – B.3]. Oila tarkibida mehnatga layoqatli kishilar mehnat qobiliyatiga ega bo‘lmagan yetim-yesirlar, beva-bechoralar, nogironlar, qariyalarga g‘amxo‘rlik qilishni o‘z zimmasiga olgan. Ba’zi hollarda ushbu maqsadda cherkov tushumlaridan ham foydalanildi. Rim kasaba uyushmalari shuningdek, o‘rta asrlarga xos bo‘lgan sex birlashmalari tuzuklarida aholining ma’lum qatlamlari hamda ularning oila a’zolari ijtimoiy himoyalanganligi ta’kidlanadi.

Xamurappi bitiklarida (mil. avv 1800-yillar) kirish qismida oʻzi boshqargan mamlakatda adolatni qaror toptirishda kuchlilar tomonidan ojizlarni taʼqib qilishni taʼqiqlash maqsadida qayd etilgan [3, – B.47-90]. Ksenofontning (mil.avv. 425-336-yy.) “Oykonomika” (qadimgi yunoncha – οἰκος-uy, νομος-qonun, yaʼni “uy xoʻjaligini yuritish tartibi”) asari 1-bob, 22-bandida ogʻir mehnat natijasida kuchdan qolib, yaroqsiz holga kelib qolgan nochor qatlamlarga gʻamxoʻrlik qilinmasdan taqdir taqozosiga tashlab qoʻyilishi keskin tanqid qilingan [4]. Uningcha, jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillar oʻrnatilishida turli tabaqa vakillari oʻrtasida tenglikni saqlab turish zarurati shartlaydi.

Aristotel (mil.avv. 384-322-yy.)ning ijtimoiy qarashlarida demokratik boshqaruv usuli aynan ijtimoiy nochor kishilar manfaatlarini himoyalovchi tuzilma sifatida tavsiflanadi. Tenglik qonuniyatiga koʻra, hokimiyat mulkdorlar ham, mulksizlarni ham qoʻlida toʻplanmagan. Ular ham, boshqalar ham oʻzaro tengdirlar [5, – B.149]. Moddiy taʼminlanganlik darajasi boʻyicha keskin tafovut jamiyatning tanazzuliga sabab boʻladi. Tenglik oʻz oʻrnida moddiy imtiyozlar taqsimotida mulkdor uchun ham, nochor uchun ham birdek munosabatni talab etuvchi adolat mezoni boʻlib qoladi. Biroq jamiyatning tanazzulga kelib qolmaslik chorasi sifatida oʻz turmush darajasini oʻrtacha taʼminlash imkonini beruvchi qatlamni qoʻllab-quvvatlash zaruriyatini ilgari suradi. Aristotel: “Shon-shuhrat uchun qilingan ishdan koʻra, adolat, haqiqat uchun qilingan ishlar afzal”, – deb biladi [6, – B.254]. Aristotel insondagi goʻzal sifatlar, fazilatlar haqida gapirar ekan, “saxovat fazilati shunday, saxiy odam boshqa neʼmatlarni qoʻlga kiritadi va boshqalarga ham yaxshilik qiladi” – deydi [7, – B.258]. Uningcha, bagʻrikenglik, daryodillik (megalopsihia) – xayr-saxovatda mardona ishlar qilishdir. Saxiylik (megaloprepea) – koʻp miqdorda xayr-ehson, savob ish qilishdir.

Platon oʻzining “Davlat” asarida ijtimoiy adolatning uch qirrasi haqida pragmatik qarashlarini bildiradi. Bular:

1) davlatda barqarorlik oʻrnatilganligi;
2) jamiyatda ijtimoiy muvozanatning mavjudligi;
3) ijtimoiy-moddiy tafovutda me’yor hissining anglanishi [8].

Platon davlat barqarorligi jamiyatda turli qatlamlar oʻrtasida ijtimoiy muvozanat oʻrnatilganligiga bevosita bogʻliq, deb biladi. Bunda turli qatlamlar oʻrtasida tengsizlik darajasi meʼyordan oshmasligi shart. Platonning fikriga koʻra, adolatli qonunlarga amalga qilgan davlat va jamiyat barqaror rivojlanadi. Bunday jamiyatda farovonlik va tinchlik hukmron boʻladi.

Rimda fuqarolik huquqi kishilar oʻrtasida mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga solinishida fundamental ahamiyat kasb etgan. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda shaxsiy va oilaviy mulk doirasidagi munosabatlar tartiblanishida pekuliy institutini koʻramiz. Unga muvofiq, xizmatkor oʻz xoʻjayinlari tomonidan taqdim etilgan mulkdan oila aʼzolari bilan birgalikda mehnat qilib mustaqil foydalanish huquqiga ega boʻlgan. Agarda ularning mulkiy huquqlari poymol etilsa ular oʻzini oʻzi himoya qilish huquqidan foydalangan. Kishining ijtimoiy manfaatlariga daxldor yana bir xususiyati shundaki, Rim fuqarolik huquqiga muvofiq oʻzini oʻzi taʼminlay olish layoqatiga ega boʻlmagan shaxslar (voyaga yetmaganlar, beva-bechoralar, imkoniyati cheklangan nogironlar, aqli noraso shaxslar, xotin-qizlar)ga nisbatan vasiy va homiylik tartibi joriy etilgan [9, – B.224]. Ushbu qonunchilikka koʻra turli tabaqa vakillari oʻrtasidagi mulkiy munosabatlarning bunday tartiblanishi ijtimoiy ojiz qatlamlar manfaatlarining muhofazalanganligini koʻrsatadi.

2-bosqich: Ijtimoiy himoyada davlat masʼuliyatining legallashtirilishi va uning institutsionallashuvi. Ijtimoiy himoya boʻyicha ilk qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqilishi va institutsionallashgan muassasalarning paydo boʻlishi bilan kechdi. Ijtimoiy yordam mohiyati diniy-teologik dunyoqarashda aks etsada, Yevropada qishloq xoʻjaligining yetarlicha rivojlanmaganligi, turli tabiiy ofatlar ochlik, yuqumli epidemiyalarga sabab boʻldi. Hukmdorlar bu kabi ofatlar oqibatlarini bartaraf qilish va zarar koʻrganlarga koʻmaklashish oʻrniga aziyat chekkanlarni yanada asoratga soluvchi qonunchilik hujjatlarini qabul qildi. Angliyada vabo kasalligining tarqalishi munosabati bilan “Mehnatkashlar toʻgʻrisida”gi qonunni qabul qilindi [10, – B.23]. Qonun ocharchilik natijasida holdan toygan xizmatkorning oʻz xoʻjayinidan ish haqini talab qilishini taʼqiqladi. Vaholanki, hukmron tabaqa vakillarini qashshoqlik va oʻlat natijasida aholining ommaviy qirilib ketish sabablari qiziqtirmasdan, uning oʻgʻirlik, qaroqchilik, talonchlik kabi salbiy oqibatlari

bezovta qilardi. Ijtimoiy madadga, asosan, tabiiy ofat va baxtsiz hodisalardan jabrlanganlar loyiq sanalib, aslida muhtoj qatlamlar bundan mustasno edilar.

Sanoatlashish jarayoni mashinalashgan fabrika va zavodlarning paydo bo‘lishi bilan mehnatning murakkablashuvi, o‘ta holdan toydiruvchi tezlik, cheklanmagan ish kuni, sog‘liq uchun zararli ishlab chiqarish sohasida ayollar va bolalar mehnatidan foydalanishni keltirib chiqardi. Natijada, aholini ijtimoiy himoyalash fragmentar chora-tadbirlar ko‘rinishidan davlat darajasida tizimlashtirish zarurati oshib bordi. Ijtimoiy himoyaning differensial tartiblangan maqsadli shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Angliyada “Kambag‘allar to‘g‘risida”gi (1601-y.) qonunning qabul qilinishi bilan aholini ijtimoiy muhofazalash chora-tadbirlari davlat ahamiyatiga molik masala sifatida tizimlashtirish jarayoni boshlandi [11]. Ushbu qonunga muvofiq, muhtojlarni qo‘llab-quvvatlash mas’uliyati ilk bor davlat zimmasidagi asosiy vazifalar qatoridan o‘rin oldi. Hujjatda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar va ularga ko‘rsatiladigan yordam turlari quyidagicha tartiblandi:

mehnat qobiliyatiga ega bo‘lmaganlarga kun ko‘rish imkonini beruvchi minimal yordam;

mehnat qobiliyatiga ega bo‘lganlarga “mehnat uylari”da ish bilan bandlik;

ishlashni xohlamaydigan boqimandalarga ma’muriy jazo.

Qashshoqlar va gadoylar uchun maxsus uylar tashkil qilinib, bunday uylar Angliyada – “mehnat uylari”, Germaniyada – “axloq tuzatish (yoki tarbiya) uylari”, Fransiyada – “qismat uylari”, Rossiyada “Avliyo Patriarx uylari” deyilib, ularda yarim qamoqxona tartibi o‘rnatildi. Aslida bunday uylarda sog‘lom kishilar qatorida bemorlar, nogironlar ham saqlanib, ulardan shaharning maishiy-gigiyenik holatini saqlash, ifloslangan kanallar va yo‘llar, axlatxonalarni tozalash kabi og‘ir ishlarda majburan foydalanildi.

Yevropa davlatlarida keskin hamda xavfli ijtimoiy bo‘hronlarga sabab bo‘luvchi ijtimoiy muammolarning oldini olish strategiyalari ishlab chiqildi. Buyuk Britaniyada XVIII asrning 60-yillarida fabrika-zavodlarda band bo‘lgan mehnatkashlar ilk bor majburiy ijtimoiy himoyalandi va sug‘urtalandi [12, – B.32]. XIX asrning oxiriga kelib Germaniyada ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilarni majburiy ijtimoiy himoyalash va sug‘urtalash tizimining qonunchilik asoslari yaratildi. Uning tarkibiga kasallikdan (1883-yil), nogironlik va qarilikdan (1889-yil) hamda ishlab chiqarishning zararli oqibatlari hamda baxtsiz hodisalardan (1884-yil) muhofazalash to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari kirdi [13, – B.45]. Ushbu qonun hujjatlari bois, Yevropaning aksariyat davlatlarida 8 soatlik ish kuni o‘rnatildi. Haq to‘lanadigan ta’til muddati uzaytirildi va ayrim ijtimoiy kafolatlar qonunlashtirildi. Bu borada dastlabki ijtimoiy innovatsiyalar kuzatilib, Angliyada filantrop R.Ouen o‘z fabrikasida ishchilarni o‘ta toliqtiruvchi uzoq ish soatini qisqartirdi va korxona qoshida ularning bolalari uchun maxsus bog‘cha ochdi [14, – B.230-232]. Yollanma ishchilarni ijtimoiy himoyalash ish beruvchi manfaatiga xizmat qilishini isbotladi.

3-bosqich. Ijtimoiy himoyaning klassik konsepsiyalari va nazariy-metodologik asoslarining ishlab chiqilishi. Bir paytning o‘zida muhtojlikni shakllantiruvchi kambag‘allik, tengsizlik kabi omillarni ilmiy o‘rganish dolzarblashdi. Ilmiy tadqiqotlar qizg‘in munozaralar, fikrlar xilma-xilligi sharoitida kechib, ijtimoiy himoyaning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ziddiyatli fikrlarni jonlantirdi.

Olimlarning bir guruhi biologik determinizm g‘oyalariga muvofiq, ijtimoiy himoyani tabiat qonuniyatiga zid, deb bilsalar, ikkinchi guruhi, aksincha, gumanistik pozitsiyada turib inson manfaatlarini hamma narsadan ustun bilish zaruratini ta’kidladilar. T.Maltus (1766-1834) “Ungacha band etilgan dunyoga kelgan insonni agarda ota-onasi boqa olmasa… va jamiyat uning mehnatiga ehtiyoj sezmasa, demak, mantiqan u yer yuzida ortiqchadir. Tabiat unga chetlanishni buyuradi va buni amalga oshirishni kechiktirmaydi”, [15] deb ta’kidlaydi. Uningcha, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan moddiy yordam aholi sonining ko‘payishiga olib keladi. Natijada, oziq-ovqatga talab kuchayib davlat xazinasi uchun xavf tug‘iladi va kambag‘allikni keltirib chiqaradi.

G.Spenser (1820-1903) ushbu g‘oyani rivojlantirib, “tug‘ilishning oshib borishi yashash uchun kurash jarayonini murakkablashtirib yuboradi. Bu kurashda faqat kuchlilar g‘olib chiqadilar. Aksincha, yetarlicha faollikka ega bo‘lmaganlar tabiiy tarzda siqib chiqariladi” [16] – degan fikrni bildirdi. Ular ojiz qatlamlarni davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash tabiiy tanlov qonuniyatlarini buzib aqlan, jismonan ojiz kishilar sonini ko‘paytiradi va jamiyat uchun foydali sog‘lom insonlarning

yashash uchun kurash jarayonini murakkablashtiradi, deb bildilar. Biroq, A.Smitning fikriga koʻra: "Sivilizatsiyalashgan xalqlarda koʻpchilik bevosita ishlab chiqarishda band boʻlmasa-da, umumdavlat farovonligi hisobidan yaxshi turmush kechiradilar" [17]. Ushbu gʻoya ijtimoiy himoyaning umuminsoniy tamoyillariga muvofiq inson qard-qimmati, haq-huquqlari davlat va jamiyatning oliy maqsadi ekanligini koʻrsatdi. Bunda moddiy ne'matlarning oqilona taqsimoti turli qatlamlar oʻrtasida ijtimoiy muvozanatni saqlab turuvchi omil boʻldi.

4-bosqich: Ijtimoiy himoya tizimining universallashuvi va umumbashariy normalarning tartiblanishi. Ushbu davr ijtimoiy himoyaning zamonaviy mazmun kasb etishidagi tub burilishni yasadi. Aholining barcha qatlamlari uchun yalpi ijtimoiy himoya choralar qoʻllanilib uning saxiy, moʻl-koʻl shakllari va turlari rivojlanib bordi. Ijtimoiy himoyaga da'vogarlik kishining konstitutsion huquqi sifatida rasman tan olindi. Natijada, ijtimoiy himoya tizimlashtirilgan faoliyat turi sifatida davlatning institutsional sohasiga aylandi va demokratik jarayonlarning jadallashuviga xizmat qildi [18]. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning intensivligi fonida ijtimoiy himoyaning umumbashariy mezonlari, tamoyil va yoʻnalishlari ishlab chiqildi.

Ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini tizimlashtirish va yanada ommalashtirish zarurati dunyo davlatlarini Xalqaro Ijtimoiy Ta'minot AQShda 1935-yilda "Ijtimoiy himoya toʻgʻrisidagi hujjat" deb nomlangan davlat dasturida "ijtimoiy muhofaza" atamasi ijtimoiy muhofaza tegishli sohaga xos tushuncha sifatida ilk bor qoʻllanildi. Angliyada U.Beveridjning "Erkin jamiyatda toʻlaqonli bandlik" deb nomlanuvchi ma'ruzasi Ijtimoiy himoya kategoriyasining kundalik iste'molda ommalshtirdi. Ma'ruzada "davlat – ijtimoiy himoyada bosh subyekt" ekanligi asoslab berildi [19, – B.140]. Natijada, Angliya hukumati ilk bor yalpi ijtimoiy muhofazalash davlat doktrinasi sifatida qonunlashtirdi. Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy himoya yalpi boʻlishi va aholining barcha qatlamlarini istisnosiz qamrab olishi shartlandi. Aholi turmush sifatini muttasil oshirib borishda innovatsion texnologiyalarga talab kuchaydi. Ijtimoiy himoya sohasi mustaqil faoliyat turiga aylanib davlatning ustuvor ahamiyatli universal funksiyalari qatoridan mustahkam oʻrin olib, butun jamiyatni qamrab oluvchi "milliy iftixor"ga aylandi. Ijtimoiy muhofazaning davlat ichki tuzilmalarini (davlat muassasalar, tashkilotlar, kasaba uyushmalari, firmalar, turli jamiyatlar, jamgʻarmalar, oʻzini oʻzi boshqaruvchi organlar, ixtiyoriy shaxslar va hokazolarni) qamrab oluvchi qudratli tizimi yaratildi.

Postsanoatlashuv va modernizatsiya jarayoni aqliy mehnat ustuvorligini shartlab, aqliy mehnat sohasida ijtimoiy haq-huquqlarni muhofazalashda nufuzli Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan "Ijtimoiy ta'minotning minimal normalari toʻgʻrisida"gi №102-sonli Konvensiya bu borada normativ aktlar ichida flagman boʻldi. Natijada, ijtimoiy himoya aholining barcha qatlamlarini "ijtimoiy tahlikalar"dan yalpi himoyalashda minimal standartlarni kafolatlovchi "universal tizim"ga aylandi. Uning fonida Turinda "Yevropa ijtimoiy xartiya"si, Rim Hamkorlik kelishuvi hamda Strasburgda Ijtimoiy himoya boʻyicha Yevropa Kodeksi (SED №048) qabul qilindi. Kopengagenda ijtimoiy taraqqiyot boʻyicha Butunjahon konferensiyasida insonning barqaror rivojlanishi jamiyatning yangi maqsadi sifatida tan olindi va dunyo davlatlarining inson ehtiyojlariga boʻlgan munosabatida tub burilish yasadi. 186 nafar ishtirokchi-davlat rahbarlari oʻz hukumatlarining rivojlanish rejasiga ijtimoiy strategiyalarni kiritish zaruratini tan oldi.

Ushbu hujjatlarda har bir kishining ijtimoiy huquqlari uning irqi, terisining rangi, jinsi, dini, siyosiy qarashlari, milliy mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar ta'minlanishi shartlandi. Ishtirokchi davlatlarda ijtimoiy himoyada bosqichma-bosqich yuqori darajaga erishib borish maqsadi qoʻyildi. Yaponiya va AQSh kabi rivojlangan davlatlarda ijtimoiy dasturlariga (ijtimoiy sugʻurta va ijtimoiy himoya) YAIMning 5-10 foizdan 20-30 foizga chiqarildi. Natijada, rivojlangan davlatlarda koʻmak pullarining miqdori ish haqiga nisbatan oʻsib bordi. Koʻmak pullarini oluvchilar huquqi yanada mustahkamlanib, imtiyozlar doirasi kengaytirildi.

Ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ilmiy tadqiqotlarda jadallikni talab etdi. XX asrning so'nggi choragida ommalashgan "umumfarovonlik davlati" gʻoyasi taraqqiy etgan davlatlarda mustahkam mavqeni egallab, ijtimoiy himoya yanada saxiy koʻrinishga ega boʻla boshlaydi.

**XULOSA**

Rivojlangan gʻarb davlatlarida ijtimoiy davlat va umumfarovonlik davlati gʻoyalari quyidagi omillar sabab tanqid ostida qoldii:

iqtisodiy omil – gʻarb davlatlarida amaldagi universal ijtimoiy himoya xarajatlari (YAIMning 1/3)ning muttasil oʻsib borishi natijasida ularni qoplashda davlat zimmasidagi moliyaviy yuklama ogʻirligini chaqirdi;

ijtimoiy omil – amaldagi saxiy ijtimoiy himoya gʻarbcha turmush tarziga singib ketgan "erkin muhabbat"ning ommalashuvini tezlashtirdi. Birgina AQSH va Shvetsiyadagi ijtimoiy imtiyozlar hamda xizmatlarning moʻl-koʻlligi, yalpiligi, jamiyatning barcha a'zolari uchun teng imkoniyatlar ta'minlanganligi yoshlar orasida tashabbuskorlikni soʻndirdi va boqimandalikni oshirib yubordi. Bunday holat oilaviy munosabatlarga ta'sir qilib, gʻarb tafakkuriga xos "personallik"ni shakllantirdi. Keng qamrovli va saxiy ijtimoiy himoya kishining oʻz muammolari bilan yolgʻiz qolishiga hamda murakkab vaziyatdan oʻz ichki resurslarini ishga solib chiqib ketishida ruhan chiniqishga yoʻl bermaydi. Muhtojlikka tushib qolgan kishi har qanday vaziyatda davlat himoyasida ekanligini bilib turadi. Natijada, ijtimoiy himoyaning saxiy kompensatorlik funksiyasi mashaqqatlarni yengishda bosh suyanchiq boʻlgan oila va oila a'zolarining ijtimoiy qadriyat sifatidagi ahamiyatiga putur yetkazdi;

demografik omil – rivojlangan davlatlarda aholining intensiv qarib borish tendensiyalari natijasida amaldagi ijtimoiy himoya tizimida zahiralar va manbalar taqsimoti izdan chiqib, mavjud ijtimoiy doktrinalar reallikka mos kelmay qoldi. Bunda aholining birmuncha yosh qatlamiga qaratilgan ijtimoiy himoya resusrlarini keksalarni himoyalashga yoʻnaltirish va moslashtirish murakkabliklari oshib bordi;

kasbiy kompetensiyalarga talabning oshib borishi – axborotlashgan jamiyatlarning globallashuvi natijasida intellektual sohaga bolgan ehtiyoj shiddatli oʻsib bordi. Professional sohada aqliy va jismoniy faoliyat turlaridan kelib chiqib ijtimoiy tahlikalarni gayta baholash va prognozlashning mavjud mexanizmlari ish bermay qoldi. Yalpi ijtimoiy himoyaga xos boʻlgan universal yondashuvlar eskirib, kompetentsiyalarni baholash evaziga individual ijtimoiy himoya shakllariga boʻlgan talab oshirib yubordi;

ijtimoiy muammolar mohiyatining oʻzgarishi – migratsiya, kambagʻallik, muhtojlik, marginallik kabi muammolar globallashib, yangicha qiyofa kasb etib borishi natijasida ijtimoiy eksklyuziyaga uchragan va nochorlikdan caziyat chekuvchilar soni oshib bordi;

ommaviy sotsial mobillik va migratsiya – shaharlardagi modernizatsiya jarayonini tezlashtirib yubordi. Xususan, sotsial mobillikni subyektiv qabul qilish dolzarblashdi. U endi post factum, ya'ni bosib oʻtilgan yoʻl, masofaning aks-sadosi, undan erilishgan yutuq va yoʻqotishlarni oʻlchashga aylandi. Migratsiyaning oldin kuzatilmagan geometrik progressiyadagi oʻsishi gayd etildi;

individuallikning universallashuvi – AQSH, Germaniya, Xitoyda tezlashdi. Natijada, odatiy ijtimoiy aloqalar tizimidan uzilgan marginallar (lotincha marginalis – chetda qolish)da sotsial identiklik muammosidan aziyat chekish oqibatiida kuchli ruhiy tanglik shakllandi. Bu jamiyatning katta qismini tashkil qiluvchi qatlamlar orasida ishsizlik va kambagʻallikni oshirmoqda. Ushbu omillar aholini ijtimoiy himoyalash tizimida prinsipial islohotlar davri kelganligini anglatdi va dunyo hamjamiyatida umumfarovonlik davlati ta'limoti asosida yotuvchi ijtimoiy yordamdagi universallikdan chekinilib, muhtojlikning nisbiy darajasi bilan belgilanuvchi differensiallashgan maqsadli yordam koʻrsatish tizimi dolzarblashib bordi.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**

---


1. Антропов В.В. Экономические модели социальной защиты населения в государствах ЕС. Автореф. дисс. док. эк. наук. – М., 2007. – С. 15.
2. Немировский А. История древнего мира. Античность. В 2-х т. – М.: Владос, 2000. Т. 2. – С. 379; Роик В. Основы социального страхования. – М.: АНКИЛ, 2005. – С. 3.
3. Свод законов Хамурапппи. Всеобщая история государства и права / под ред. В.А.Томсинова. – М.: Зерсало, 2011. Т. 1. – С. 47-90.

4. Ксенофонт. Домострой. Сократические сочинения. Киропедия. – М.: Издательство АСТ, 2003.

5. Аристотель. Политика // Сочинения в 4-х томах. – М.: Мысль, 1983. Т. 4. – С. 149.

6. Арасту. Ахлоқи кабир / тарж. З.Аълам ва У.Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 254.

7. Арасту. Ахлоқи кабир / тарж. З.Аълам ва У.Отажон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 258.

8. Платон. Государство / Перевод Карпов В.Н. – М., 2019.

9. Topildiyev V.R. Rim huquqi. Darslik. XII jadval qonunlarining 8 va 5-jadvallari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B. 224-230.

10. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – Москва: Государственное социально-экономическое издательство, 1931. – С. 23.

11. Гайдар Е. Становление и кризис системы социальной защиты в современном мире / Вестник Европы. – М., 2003. – № 10.

12. Баранник Л.Б. Современные тенденции в развитии социальной защиты населения в мире / Социально-экономические явления и процессы, 2013. – № 1 (047). – С. 32.

13. Роик В. Основы социального страхования. – М.: АНКИЛ, 2005. – С. 45.

14. Блауг М., Оуен Р. 100 великих экономистов до Кейнса. – СПб: Экономикус, 2008. – С. 230-232.

15. Юсупов Б. Становление и развитие экономической науки. – Бишкек: Учкун, 1999. – С. 62.

16. Барулин В. Социальная философия. – М.: Фаир-Пресс, 1999. – С. 181.

17. Khusanova K. T. EMPIRICAL MEASUREMENT PROCEDURE FOR PUBLIC SPHERE EFFICIENCY //Academic research in educational sciences. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – S.788-792.

18. Хайринисо Хусанова. Институциональные основы социальной защиты нуждающихся слоев населения // ОИИ. 2021. №2. УРЛ: https://cyberleninka.ru/article/n/institutsionalne-osnovy-sotsialnoy-zaschity-nuzhdayuschihsya-sloev-naseleniya3.2026).

19. Beveridje W. Social Insuranse and Allied Services. – London: Report, 1942. – R.140.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Hojiyev Zavqiddin,**
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi,
Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
e-mail: zfarxodov1938@gmail.com

# INNOVATSION TA’LIM KLASTERI MAMLAKATNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA: SOTSIOLOGIK TAHLIL

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Maqolada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muhim ahamiyati sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Innovatsion klasterlar iqtisodiy yoki tashkiliy tuzilma sifatida emas, balki institutlar, ijtimoiy munosabatlar, ishonch, hamkorlik va institutsional aloqalar tizimi sifatida talqin etiladi. Shu asosda «korxona – oliygoh – ilmiy tashkilot» hamkorligi inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion salohiyatni yuksaltirish va barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizm sifatida ochib berildi. Ta’lim, ilm-fan, tadbirkorlik, davlat boshqaruvi, jamoatchilik hamda ekologik omillarning institutsional va funksional uyg‘unligiga tayanuvchi sotsiologik model shaklida tizimlashtirildi.

**Kalit so‘zlar:** davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tizim, klaster, uch yoqlama spiral, universitet, ta’lim, innovatsiya, biznes.

---

**Хожиев Завкиддин,**
Соискатель Национального университета Узбекистана,
Доктор социологических наук (DSc), dotsent
e-mail: zfarxodov1938@gmail.com

# ИННОВАЦИОННЫЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ КЛАСТЕР КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

**АННОТАЦИЯ**

В статье на основе социологического подхода анализируется важное значение интеграции образования, науки и производства в социально-экономическом развитии страны. Инновационные кластеры рассматриваются не только как экономическая или организационная структура, но и как система институтов, социальных отношений, доверия, сотрудничества и институциональных связей. На этой основе сотрудничество в формате «предприятие – вуз – научная организация» раскрывается как важный институциональный механизм, способствующий развитию человеческого капитала, повышению инновационного потенциала и обеспечению устойчивого развития. Также систематизирована социологическая модель, основанная на институциональной и функциональной согласованности образования, науки, предпринимательства, государственного управления, общественности и экологических факторов.

**Ключевые слова:** государственное управление, социально-экономическое развитие, социальная система, кластер, тройная спираль, университет, образование, инновация, бизнес.

---

**Khojiev Zavkiddin,**
Researcher of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Sociology (DSc), Associate Professor
e-mail: zfarxodov1938@gmail.com

# INNOVATIVE EDUCATIONAL CLUSTER AS A FACTOR OF THE COUNTRY'S SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT: A SOCIOLOGICAL ANALYSIS

**ABSTRACT**

The article analyzes, from a sociological perspective, the significant role of integrating education, science, and production in the country's socio-economic development. Innovative clusters are interpreted not merely as economic or organizational structures, but as systems of institutions, social relations, trust, cooperation, and institutional linkages. On this basis, the «enterprise – university – research organization" partnership is revealed as an important institutional mechanism that contributes to the development of human capital, the enhancement of innovative capacity, and the achievement of sustainable development. In addition, a sociological model based on the institutional and functional coherence of education, science, entrepreneurship, public administration, civil society, and environmental factors is systematized.

**Keywords**: public administration, socio-economic development, social system, cluster, triple helix, university, education, innovation, business.

---

## KIRISH

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida amaliy tadqiqotlar koʻlamini kengaytirish va ularning natijadorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarish amaliyoti bilan integratsiyalashuvini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "korxona – oliygoh – ilmiy tashkilot" klaster tizimini shakllantirish va rivojlantirish ilmiy-tadqiqot faoliyatini iqtisodiyotning real sektori ehtiyojlari bilan uygʻunlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur klaster modeli ilmiy gʻoyalarni tijoratlashtirish, innovatsion mahsulot va texnologiyalarni yaratish hamda ularni amaliyotga joriy etish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, bunday integratsion hamkorlik mexanizmi kadrlar tayyorlash sifatini yuksaltirish, ta'lim jarayonini ishlab chiqarish talablari asosida takomillashtirish va ilmiy salohiyatdan samarali foydalanishga zamin yaratadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, iqtisodiyot tarmoqlarini klasterlashtirish ishlab chiqarish, ilm-fan, ta'lim va infratuzilma oʻrtasidagi integratsion aloqalarni mustahkamlash orqali innovatsion rivojlanish uchun qulay institutsional muhitni shakllantiradi. Bunday yondashuv tarmoqlar oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bilan birga, aholi bandligini oshirish, yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholi turmush darajasini yaxshilash orqali hududlarning ijtimoiy farovonligi va inklyuziv rivojlanishini ta'minlashning muhim omili boʻlib xizmat qiladi.

## METODOLOGIYA

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasini "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi boʻyicha amaliy tadbirlar rejasining 10-maqsadida iqtisodiyotning eng tez oʻsib borayotgan yoʻnalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, "korxona – oliygoh – ilmiy tashkilot" klaster tizimini samarali joriy etish orqali ilmiy-texnik salohiyatni mustahkamlash va innovatsion rivojlanishni ta'minlash belgilab berilgan [1].

Lugʻaviy jihatdan «klaster» (ingl. cluster) tushunchasi oʻxshash belgilarga ega boʻlgan va oʻzaro yaqin joylashgan elementlar guruhini anglatadi [2]. Iqtisodiy yondashuvda mazkur tushuncha

alohida subyektlarning yig‘indisi sifatida emas, muayyan yo‘nalishda bir-birini to‘ldiradigan va o‘zaro bog‘langan yaxlit tizimni ifodalaydi [3]. Shu nuqtayi nazardan klaster tushunchasini muayyan makonda joylashgan, umumiy qiymat yaratish zanjirining turli bo‘g‘inlarida ishtirok etuvchi va o‘zaro bog‘liqlik asosida shakllangan subyektlar tizimi sifatida tavsiflash mumkin.

Klaster konsepsiyasining nazariy asoslari iqtisodchi olim Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u klasterlarni o‘zaro bog‘liq korxonalar, ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va davlat institutlarining muayyan hududdagi konsentratsiyasi sifatida tavsiflaydi [4].

**ASOSIY QISM**

Ilmiy adabiyotlarda klasterlarning aksariyati u yoki bu darajada innovatsion rivojlanish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi, innovatsiyalarni yaratish, o‘zlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish sur’atlarini jadallashtirishga xizmat qilishi ochib berilgan. Boshqa ilmiy tadqiqotlarda klasterlar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda bilim va texnologiyalar transferini jadallashtirishning samarali mexanizmi sifatida baholanadi.

Xususan, Uch yoqlama spiral (Triple Helix) modeli bilimga asoslangan iqtisodiyot va bilim jamiyati kontekstida iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi mexanizm sifatida oliy ta’lim muassasasi, sanoat va hukumat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni konseptuallashtiradi. Mazkur modelda har bir sektor spiral shaklida ifodalanadi. Vazifalarni amalga oshirishda o‘zaro munosabatlarga kirishishi natijasida sektorlar orasidagi dinamik aloqalarni vizuallashtiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Dastlabki ikki o‘lchovli model vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchi kompleks ta’sirlarni aks ettirish maqsadida rivojlantirib borilgan.

Bunday yondashuv nazariy jihatdan 90-yillarda Henry Etzkowitz va Loet Leydesdorff tomonidan «Uch yoqlama spiral: universitet-sanoat-hukumat munosabatlari va bilimga asoslangan iqtisodiy rivojlanish laboratoriyasi» nomli nashrda ilgari surilgan [5]. Ta’kidlash lozimki, oliy ta’lim muassasalari, sanoat va hukumatlar o‘rtasidagi hamkorlik texnologiya transfer ofislari, ilmiy parklar va boshqa vositachi institutlarning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu olimlar ko‘rsatib o‘tilgan uch sektor o‘rtasidagi munosabatlarni ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilib, yangi gibrid tashkilotlar shakllanish mexanizmlarini asoslab berishgan [6]. Fikrimizcha, olimlar tomonidan taklif qilingan modelning konsepsiyasi shundan iboratki, murakkab tarzda tashkil etilgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni tashkiliy jihatdan davlat apparati, biznes va ilmiy hamjamiyati bilan birlashtirishdan iborat.

Ta’kidlash joizki, mazkur modelda fanning ustuvor ahamiyat kasb etishi muhim ahamiyatga ega. Unda o‘zaro manfaatli sheriklik ekotizimini yaratish orqali ilmiy muassasa haqiqiy buyurtmachiga ega bo‘ladi, korxona esa ishlab chiqaruvchi sifatida g‘oyalar va texnologiyalarga ega bo‘ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv nuqtayi nazaridan, bunday yondashuv nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda, balki hududlarda inson kapitalining rivojlanishi, aholi bandligini ta’minlash, kasbiy malakasini oshirish va ijtimoiy faollikni yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim tizim sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Amerikalik sotsiolog olim Henry Etzkowitz va gollandiyalik sotsiolog olim Loet Leydesdorfflar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan ushbu model universitet, sanoat va hukumat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar hamda ularning “boshlang‘ich roli”ga asoslanadi. Taklif etilgan mazkur modelda universitetlar asosiy tadqiqotlarni amalga oshirsa, sanoat sohasi tijorat mahsulotlarini ishlab chiqaradi, hukumat esa o‘z navbatida bozorlarni tartibga solish va nazoratni amalga oshiradi. O‘zaro hamkorlik doirasida ularning har biri boshqa tashkilotning ayrim xususiyatlarini o‘zlashtiradi va natijada gibrid institutlar shakllanishiga olib keladi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, mazkur model doirasida ishtirokchilar o‘rtasida ikki yoqlama hamkorlik munosabatlari shakllanadi va ular bilim, texnologiya hamda innovatsiyalar transferini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zaro munosabatlarning dinamik tarzda o‘zgarib borishi evolyusion jarayonlar orqali funksional integratsiyaning mustahkamlanishiga va natijada mamlakatning bilimga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda mazkur model mintaqaviy va milliy innovatsion siyosatni shakllantirishda muhim strategik mexanizm sifatida keng qo‘llanib kelinmoqda.

Shuni alohida ko‘rsatib o‘tish joizki, ushbu modelda tadqiqot universitetlari markaziy o‘rinni egallaydi. Dunyoning yetakchi ilg‘or mamlakatlarida bilimlarni iqtisodiyot bilan integratsiyalash

jarayoni jadallik bilan olib borilmoqda va yangi bilim hamda texnologiyalar milliy raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy manbalaridan biriga aylanmoqda. Shu bois ilmiy tadqiqot faoliyatini amalga oshiruvchi muassasalar bilimga asoslangan ishlab chiqarish tizimini shakllantirishda muhim institutsional bo'g'in sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy axborot makonida yangi bilimlarning shakllanishi va ularning texnologiya hamda innovatsion mahsulotlarga transformatsiya qilinishi jarayonini hisobga olgan holda, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy bosqichni innovatsion taraqqiyot davri sifatida baholash mumkin. Ilmiy g'oyaning shakllanishidan tortib, uning tayyor mahsulot sifatida ishlab chiqarishga joriy qilinishigacha bo'lgan davr ilmiy sohalar va real sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik darajasiga bevosita bog'liq bo'lib qoladi.

Ta'kidlash joizki, universitet, biznes va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik murakkab institutsional jarayon hisoblanib, u muayyan vaqt davomida izchil hamkorlikni hamda unda ishtirokchi tomonlarning muvofiqlashtirilgan faoliyatini va strategik manfaatlarini uyg'unlashtirishni talab qiladi. Mazkur jarayonda "ilm-fan-biznes", "davlat-ilm-fan" va "davlat-biznes" o'rtasidagi munosabatlar, odatda, ikki subyekt o'rtasidagi hamkorlikni ifodalovchi "ikki yoqlama spiral" modeli asosida shakllanadi. Mazkur modelda har bir institut innovatsion jarayonning muayyan bosqichlarini ta'minlab, o'zaro hamkorlik orqali bilim va texnologiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion jarayonlarning tobora murakkablashib borishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, ikki tomonlama hamkorlik mexanizmining imkoniyatlari ma'lum darajada cheklanib boradi.

Shu sababli universitet, biznes va davlat institutlarining o'zaro integratsiyalashgan hamkorligini nazarda tutuvchi "uch yoqlama spiral" (Triple Helix) modeli innovatsion rivojlanishning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur model doirasida mazkur institutlar nafaqat o'zining an'anaviy funksiyalarini bajaradi, balki innovatsiyalarni yaratish, joriy etish va tijoratlashtirish jarayonlarida o'zaro hamkorlik orqali bir-birining faoliyatini to'ldirib boradi. Natijada bilimlarni yaratish, ularni iqtisodiyotga transfer qilish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlari yanada samarali tashkil etiladi. Davlat esa institutsional muhitni shakllantiruvchi va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Natijada mazkur institutlar o'rtasidagi integratsiya bilimlarni yaratish, texnologiyalarni transfer qilish va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Bunday sharoitda innovatsion ekotizim shakllanib, u ilm-fan, davlat va biznes o'rtasidagi barqaror hamkorlikni ta'minlash orqali bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion klasterlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. AQShning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi klaster yondashuviga asoslangan bo'lib, innovatsion klasterlarni shakllantirish va ularni rivojlantirish mamlakatning muhim strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda innovatsion klasterlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan maxsus dasturlar va institutsional mexanizmlar ishlab chiqilgan. Xususan, U.S. Economic Development Administration kabi tashkilotlar hududiy innovatsion klasterlarni shakllantirish, ularni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ishtirokchilar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mazkur institutsional mexanizmlar klaster ishtirokchilari o'rtasida vazifalarni muvofiqlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va tashkiliy-byurokratik masalalarni hal etishga xizmat qiladi [7].

AQShda klasterlar, odatda, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq ravishda shtatlar darajasida shakllantiriladi. Bunda asosiy e'tibor tashkil etilayotgan klasterlarning global raqobatbardoshligini ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) natijalarini tijoratlashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, bunday jarayonlarda tadqiqot universitetlari muhim o'rin tutadi. Davlat tomonidan universitetlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ilmiy grantlar va innovatsion dasturlar orqali tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish natijasida ilm-fan yutuqlarini iqtisodiyotga joriy etish uchun qulay institutsional muhit yaratiladi [8].

Natijada universitetlar, biznes subyektlari va davlat institutlari oʻrtasidagi hamkorlik innovatsion gʻoyalarning texnologiyalar va bozorbop mahsulotlarga aylanishini tezlashtirib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ilmiy manbalarda Silicon Valley hududi “uch yoqlama spiral” (Triple Helix) modelining amaliyotda muvaffaqiyatli tatbiq etilgan eng yorqin misollaridan biri sifatida qayd etiladi [9]. Ta’kidlash lozimki, mazkur hududda jahon miqyosida raqobatbardosh innovatsion klaster kompleksi shakllangan boʻlib, uning tarkibida yirik IT kompaniyalari, ilmiy tadqiqot markazlari va nufuzli universitetlar faoliyat yuritadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, mazkur hududda innovatsion ekotizimning shakllanishi universitetlar, sanoat korxonalari va davlat institutlari oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikning yuqori darajada tashkil etilganligi bilan izohlanadi.

“Uch yoqlama spiral” konsepsiyasi ham AQSh universitetlarining innovatsion salohiyatini, ularning davlat va biznes oʻrtasidagi oʻzaro hamkorligini oʻrganish natijasida shakllangan. Mazkur konsepsiyaning amaliyotga tatbiq etishning asosiy formati sifatida innovatsion klaster shakllangan. Xususan, Stanford University va University of California, Berkeley kabi yetakchi universitetlar tomonidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish, innovatsion gʻoyalarni shakllantirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim oʻrin tutadi. Shu bilan birga, Google, Apple va Intel kabi texnologik korporatsiyalar ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va ularni keng ommaga moʻljallangan innovatsion mahsulotlarga aylantirish jarayonida faol ishtirok etadi. Davlat tomonidan yaratilgan institutsional muhit, venchur moliyalashtirish tizimining rivojlanganligi va innovatsiyalarni ragʻbatlantiruvchi siyosat mazkur hududda innovatsion faoliyatning jadal rivojlanishiga poydevor boʻlib xizmat qiladi [10].

Soʻnggi yillarda jahon ta’lim tizimida universitet ta’limi tobora ixtisoslashgan xususiyat kasb etmoqda. Koʻplab mamlakatlarda talabalar oʻz ta’lim traektoriyasi doirasida faqat muayyan bir ixtisoslikni tanlash imkoniyatiga ega boʻlib, u texnik, gumanitar yoki iqtisodiy yoʻnalishlardan biri boʻlishi mumkin [11]. Bunday yondashuv industrial jamiyat talablariga ma’lum darajada mos kelgan boʻlsa-da, bugungi kunda mehnat bozori va ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb talablari keng dunyoqarashga, tanqidiy va tizimli fikrlay olish qobiliyatiga, shuningdek, turli sohalar kesishmasida shakllanuvchi kompleks kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ta’lim tarixiga oid ma’lumotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, oʻrta asrlarda universitet ta’limi Trivium (uch asosiy «soʻz san’ati») modeli asosida tashkil etilgan boʻlib, u grammatika, ritorika va mantiq kabi fundamental fanlarni oʻrganishni oʻzida mujassamlashtirgan [12]. Mazkur fanlarni oʻqitishdan koʻzlangan asosiy maqsad ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, fikrini ravon ifodalash madaniyati va mantiqiy mushohada yuritish qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat boʻlgan.

Zamonaviy ta’lim tizimida esa mazkur yondashuvning yangilangan shakli sifatida Novum Trivium konsepsiyasi taklif etilmoqda [13]. Unga koʻra, zamonaviy mutaxassis tayyorlash jarayoni uchta asosiy yoʻnalishning uygʻunlashgan faoliyatiga asoslanadi: sohaviy-professional tayyorgarlik, innovatsiya va tadbirkorlik koʻnikmalari, shuningdek, xorijiy tillarni bilishi hamda umummadaniy kompetensiyalarga ega boʻlishi. Bunday integratsiya ta’lim oluvchilarning nafaqat kasbiy salohiyatini, balki bilimlarni amaliyotga joriy etish, xalqaro muhitga moslashish va turli sohalar kesishmasida samarali faoliyat olib borish imkoniyatini ham kengaytiradi.

Keyinchalik Triple Helix modeli yanada rivojlantirilib, innovatsion jarayonlarda jamoatchilik, madaniy muhit, ijtimoiy institutlar va ekologik omillarni hisobga oluvchi **Quadruple Helix** (toʻrt yoqlama spiral) va **Quintuple Helix** (besh yoqlama spiral) modellari taklif qilindi. Mazkur yondashuvlarda innovatsion rivojlanish nafaqat universitet, biznes va davlat oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar bilan, balki fuqarolik jamiyati va tabiiy muhit ta’siri bilan ham bogʻliq tizim sifatida talqin etiladi.

Quadruple Helix (toʻrt yoqlama spiral) modelini innovatsion faoliyat tarkibiy tuzilishiga fuqarolik jamiyatini, ommaviy axborot vositalarini, madaniy muhitni va ijtimoiy institutlarning ta’sirini ham kiritadi. Bu yondashuvga koʻra, innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy va institutsional omillar, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy salohiyati bilan ham chambarchas bogʻliq hisoblanadi. Shu sababli

innovatsion g‘oyalarning shakllanishi va joriy etilishida jamoatchilikning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda innovatsion tizimlarning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida Quintuple Helix (besh yoqlama spiral) modeli taklif qilingan bo‘lib, mazkur konsepsiya innovatsion jarayonlarda ekologik omillarni ham inobatga oladi. Xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va «yashil iqtisodiyot» tamoyillarini joriy etish innovatsion jarayonning ajralmas qismi sifatida baholanadi. Natijada innovatsion rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlarni o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi yaxlit jarayon sifatida namoyon bo‘ladi [14]. Fikrimizcha, zamonaviy klasterli rivojlanish strategiyalari ushbu jarayonda fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy salohiyatdan samarali foydalanish hamda ekologik barqarorlik talablarini hisobga olishni ham taqozo etadi.

Amerikalik sotsiolog olim Powell W.W. ta’kidlagan tarmoqli boshqaruv g‘oyasi zamonaviy innovatsion rivojlanishning Quadruple Helix va Quintuple Helix modellarini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Olimning tadqiqotlariga ko‘ra, tarmoqli muvofiqlashtirish ierarxik bo‘ysunuvdan ko‘ra o‘zaro almashinuv, ishonch, jamiyatdagi nufuzi va uzoq muddatli hamkorlikka tayanadi. Quadruple Helix modelidagi aynan shu jihati innovatsion jarayonlarga faqat universitet, biznes va davlat emas, balki fuqarolik jamiyati, media va madaniy muhit ham faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida qo‘shilishi bilan izohlaydi.

Quintuple Helix yondashuvida esa mazkur hamkorlik tizimi yanada murakkablashib, unga tabiiy muhit va ekologik barqarorlik kabi qo‘shimcha omillar integratsiya qilinadi. Shu sababli, Pauell ilgari surgan ishonch va o‘zaro manfaatdorlikka asoslangan tarmoqli boshqaruv tamoyillari Quadruple Helix modelida ijtimoiy ishtirokni, Quintuple Helix modelida esa barqaror rivojlanish va ekologik mas’uliyatni ta’minlovchi institutsional asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Olim nazariyasiga ko‘ra, tarmoqli tashkil etish shakllari bozor va ierarxiyadan farqli ravishda ishonch, o‘zaro manfaatli almashinuv, nufuzi va uzoq muddatli majburiyatlarga asoslangan munosabatlar tizimi sifatida shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, klaster boshqaruvini faqat ma’muriy nazorat yoki buyruqbozlik asosida tashkil etish yetarli emas. Uning haqiqiy samaradorligi turli ishtirokchilar o‘rtasida ishonch muhiti, kelishuv madaniyati va tarmoqli koordinatsiya mexanizmlarining qay darajada rivojlangani bilan belgilanadi [15].

Boshqa bir amerikalik sotsiolog olim T.Parsons nazariyasiga ko‘ra, har qanday ijtimoiy tizimning barqaror faoliyati undagi rollar, me’yorlar va umumiy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuviga asoslanadi [16].

Shu ma’noda, ushbu klaster ham turli ishtirokchilardan tashkil topgan ijtimoiy tizim sifatida ularning vazifasi va roli aniq belgilangan, me’yoriy kelishuv ta’minlangan hamda umumiy maqsadlarga yo‘naltirilgan faoliyat asosida samarali amal qiladi. Bunday yondashuv orqali klaster barqarorligi tasodifiy holat emas, balki institutsionallashgan qoidalar va mushtarak qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy tartib natijasidir, degan xulosaga kelish mumkin.

Fransuz sotsiolog olimi P.Burde o‘z tadqiqotlarida ijtimoiy kapital shaxs yoki guruh ixtiyoridagi barqaror ijtimoiy aloqalar tarmog‘i hamda shu tarmoq orqali safarbar etiladigan real hamda salohiyatli resurslar majmuasini urg‘u beradi [17]. Shu jihatdan har qanday klasterda asosiy salohiyat ishtirokchilar o‘rtasida shakllangan ishonch, o‘zaro tan olish, nufuzi va barqaror hamkorlik munosabatlari bilan ham belgilanadi.

Ispaniyalik sotsiolog olim M.Kastelsning tarmoq jamiyati konsepsiyasiga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tuzilmaning yetakchi shakli tarmoqlardan iborat [18]. Shu nuqtayi nazardan, klaster hududiy yoki tashkiliy chegaralar bilan cheklanadigan oddiy institutsional birlashma emas, balki axborot, bilim, kapital va kommunikatsiya oqimlari o‘zaro kesishadigan tarmoqli ijtimoiy makon sifatida namoyon bo‘ladi.

Fikrimizcha, ushbu olimlarning nazariy qarashlarini integrativ asosda umumlashtirish taklif etilayotgan modelni ta’lim, ilm-fan, tadbirkorlik, davlat boshqaruvi, jamoatchilik hamda ekologik omillarning institutsional va funksional uyg‘unligiga tayanuvchi, inson kapitali va innovatsion salohiyatni rivojlantirish orqali mamlakatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiluvchi intellektual ekotizim sifatida asoslash imkonini beradi. Ularning bu boradagi

yondashuvlari va nazariyalarini umumlashtirgan holda holda quyidagi sotsiologik nazariy model shaklida turkumlab olamiz (1-jadval).

**1-jadval**

**Zamonaviy innovatsion klasterining sotsiologik modeli**

| Tarkibiy qismlar | Sotsiologik mazmun-mohiyati | Asosiy funksiyasi | Klasterdagi faoliyati |
|---|---|---|---|
| **Ijtimoiy institutlar** | O‘zaro ta’sirga kirishuvchi subyektlar - davlat, universitet, olimlar, tadqiqotchilar, biznes, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoatchilik, media va ekologik guruhlar | Innovatsion jarayonda ishtirokchi subyektlarni shakllantirish | Klaster doirasida qaror qabul qilish, hamkorlik va tashabbuslar |
| **Institutsional muhit** | Huquqiy asoslar, ta’lim standartlari, innovatsiya siyosati, tashkiliy va ijtimoiy me’yorlar tizimi | Hamkorlik uchun qulay muhitni shakllantirish | Klasterda hamkorlikning rasmiy asosini ta’minlaydi |
| **Ijtimoiy kapital** | O‘zaro ishonch, jamiyatdagi nufuzi, majburiyatlar, norasmiy aloqalar, hamkorlik madaniyati | xarajatlarni minimallashtirish va barqarorlik ta’minlash | Ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi |
| **Kommunikatsiya va hamfikrlik muhiti** | Bilim, axborot, qadriyat va tarmoqlar o‘rtasida fikr almashinuvi | Innovatsiya uchun umumiy hamfikrlilik muhitini yaratish | Raqamli platformalar, media, ilmiy forumlar, hamkorlik maydonlari |
| **Madaniy-qadriyatlar muhiti** | Innovatsiyaga ochiqlik, tadbirkorlikka moyillik, ekologik mas’uliyat, jamoaviy ishlash madaniyati | Yangi g‘oyalarni qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash | Klasterning ijtimoiy barqarorligi oshadi |
| **Tarmoqli boshqaruv** | Ishonch, kelishuv va muvofiqlashuvga asoslangan boshqaruv | Ishtirokchilarning manfaatlarini uyg‘unlashtirish | Ishtirokchilar o‘rtasidagi uyg‘unlashgan faoliyat shakllantiriladi |
| **Innovatsion faollik** | Yangi g‘oya, startap, texnologiya, ijtimoiy innovatsiya va bilim transferi | Ijtimoiy munosabatlarni innovatsion natijaga aylantirish | Loyihalar, startaplar, tadqiqotlar, texnologik transfer |
| **Ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik natija** | Inson kapitali, bandlik, ijtimoiy mobillik, inklyuzivlik va barqarorlik | Klaster samaradorligini kompleks baholash | Hududiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik, “yashil” o‘sish |

Ko‘rsatib o‘tilgan modelni iqtisodiy yoki tashkiliy sxema sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar, institutlar, qadriyatlar, ishonch, hamkorlik va tarmoqli o‘zaro ta’sirlar tizimi sifatida takomillashtirib borish kerak bo‘ladi. Bunday yondashuvda asosiy e’tibor “Kim nimani ishlab

chiqaradi?" degan savolga emas, balki "Qaysi ijtimoiy institutlar qanday munosabatga kirishadi, qanday me'yorlar va ishonch mexanizmlari orqali innovatsiya shakllantiriladi?" degan konseptual savolga qaratilishi lozim.

Zamonaviy sharoitda innovatsion klasterlarni an'anaviy tarzda faqat sanoat, ishlab chiqarish yoki biznes subyektlarining hududiy jamlanishi sifatida talqin qilish yetarli emas. Chunki, bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning kengayib borishi, raqamli transformatsiya, ijtimoiy ishtirok mexanizmlarining faollashuvi va barqaror rivojlanish tamoyillarining ustuvor ahamiyat kasb etishi klasterlar mazmun-mohiyatini ancha murakkab va ko'p o'lchovli hodisa sifatida ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu bois innovatsion klasterni nafaqat tor iqtisodiy yoki tashkiliy tuzilma sifatida, balki ta'lim, ilm-fan, tadbirkorlik, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati va ekologik mas'uliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liq hamkorlik munosabatlariga asoslanauvchi yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy ekotizim sifatida baholash maqsadga muvofiq.

**XULOSA**

Yuqoridagi tahlillarning mantiqiy davomi sifatida "smart innovatsion ta'lim klasteri" tushunchasini ilgari surish mumkin. Taklif etilayotgan konsepsiya innovatsion rivojlanishni faqat yangi texnologiyalar yaratish yoki iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan cheklamaydi, balki inson kapitali, institutsional hamkorlik, ijtimoiy ishonch, raqamli transformatsiya va ekologik barqarorlikni o'zaro uyg'unlashtiradi. Shu sababli taklif etilayotgan model ta'lim, ilm-fan, tadbirkorlik, davlat boshqaruvi, jamoatchilik va ekologik omillarning uyg'unlashgan faoliyati asosida shakllanuvchi, inson kapitali va innovatsion salohiyatni rivojlantirish orqali hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan intellektual ekotizim sifatida tavsiflash mumkin. Unda samaradorlik alohida tashkilotning faoliyati natijasi sifatida emas, balki ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar darajasi, axborot va bilim almashinuvining intensivligi, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish tezligi hamda umumiy maqsadlarga erishishdagi institutsional uyg'unlik orqali namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan innovatsion ta'lim klasteri mazmunan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan ustuvor vazifalar bilan bevosita uyg'unlashadi [19]. Shuningdek "korxona – oliygoh – ilmiy tashkilot" klaster tizimi orqali amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish va mamlakat hududlari rivojlantirishning yangi ustuvor vazifalarini shakllantirishda muhim institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 22-fevraldagi «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va «O'zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida»gi PF-22-son Farmoni // https://lex.uz/docs/8050787.

2. Социологический энциклопедический словарь. На русском, английском, немецком, французском и чешском языках. Редактор-координатор - академик РАН Г. В. Осипов. – М.: Издательская группа ИНФРА М НОРМА, 1998. – Б. 126. // https://www.isras.ru/files/File/publ/Scan_2018/Soc_entsikloped_slovar_1998.pdf; https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/cluster.

3. Mirzayev Q.J. Shavqiyev E.Sh., Janzakov B.K. Innovatsion iqtisodiyot. – Toshrent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – B 282.

4. Porter M.E. *Clusters and the New Economics of Competition*. Harvard Business Review, 1998. 76 (6). – PP. 77-90.

5. Loet Leydesdorff. The Triple Helix of University-Industry-Government Relations. https://www.researchgate.net/publication/228130923_The_Triple_Helix_of_University-Industry-Government_Relations_February_2012.

6. Yuzhuo Cai. Neo-Triple Helix Model of Innovation Ecosystems: Integrating Triple, Quadruple and Quintuple Helix Models // https://www.semanticscholar.org/reader/3a0cd7699ac72d57cacf13a981ac4873ed564885.

7. Ketels C. *Recent research on competitiveness and clusters: What are the implications for regional policy?* Cambridge Journal of Regions, Economy and Society. 2013.

8. Etzkowitz, H. *The Triple Helix: University-Industry-Government Innovation in Action.* New York: Routledge. 2008.

**9.** Etzkowitz H., Leydesdorff L. The dynamics of innovation: From National Systems and Mode 2 to a Triple Helix of university-industry-government relations. *Research Policy,* 2000, vol. 29 (2). – PP. 109-123.

10. Audretsch D.B. From the entrepreneurial university to the university for the entrepreneurial society. Journal of Technology Transfer. June 2014. № 39 (3), 313-321 // DOI:10.1007/s10961-012-9288-1

11. Etzkowitz H. *The Triple Helix: University-Industry-Government Innovation in Action.* Routledge. 2008. – 157 p. // https://mguntur.id/files/ebook /ebook_1605608206_cf742d707b4e0bf22bf3.pdf

12. https://www.encyclopedia.com/places/africa/benin-political-geography/medieval - education?utm_source=chatgpt.com

13. Etzkowitz H., Ranga M. & Dzisah J. Whither the university? The Novum Trivium and the transition from industrial to knowledge society. Social Science Information, 2012. № 51(2), – P. 143-164.

14. Carayannis E.G, & Campbell D.F. Triple Helix, Quadruple Helix and Quintuple Helix and How Do Knowledge, Innovation and the Environment Relate To Each Other? A Proposed Framework for a Trans-disciplinary Analysis of Sustainable Development and Social Ecology. January-March 2010. № 1(1), – PP. 41-69.

15. Powell W.W. *Neither Market nor Hierarchy: Network Forms of Organization.* In B. M. Staw & L. L. Cummings (Eds.), *Research in Organizational Behavior,* 1990. Vol. 12. – PP. 295-336.

16. Parsons T. The Social System. Routledge is an imprint of the Taylor & Francis Group This edition published in the Taylor & Francis e-Library, 2005. – 374 p.

17. Bourdieu P. The forms of capital. Richardson J., Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education, Westport, CT: Greenwood, 1986. – PP. 241-58.

18. Castells M. Materials for an exploratory theory of the network society. British Journal of Sociology, Vol. 51 issue 1, – PP 5-24.

19. Muhandislik sohalarida ilm va ta’limni rivojlantirish bo‘yicha muloqot bo‘ldi. 20.06.2024. // https://president.uz/oz/lists/view/7333; Олий таълим ва илм-фан соҳасидаги устувор вазифалар кўриб чиқилди. 22.01.2025 // https://president.uz/uz/lists/view/7832

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Yunusov Alisher,**
Yoshlar muammolarini o’rganish va istiqbolli kadrlar
tayyorlash instituti direktori o’rinbosari,
sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
e-mail: alisheryunusov@rambler.ru

## YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR QATLAMI: SOTSIOLOGIK TAHLIL

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar qatlamini sotsiologik tahlil qilishning metodologik asoslari yoritilgan. XXI asrda globallashuv, axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi natijasida yosh avlodning ijtimoiy qiyofasi va ijtimoiy rollari sezilarli darajada o‘zgarib borayotgani tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining institutsional shakllanishi va tarixi, mustaqillikdan keyingi davrdagi transformatsion jarayonlar hamda 2017-yildan keyingi Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar siyosatida yuz bergan sifat o‘zgarishlari qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada yoshlar siyosatida obyektli modeldan subyektli modelga o‘tish jarayoni, yoshlarni jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi va strategik resursi sifatida talqin qilish tendensiyasi asoslab berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda yoshlar muammolarini sotsiologik tadqiq etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy ishlar, dissertatsion tadqiqotlar va ilmiy maktablar faoliyati ham tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar sotsiologiyasi, yoshlar siyosati, davlat yoshlar siyosati, ijtimoiy transformatsiya, ijtimoiy agentlik, institutsional rivojlanish, ijtimoiy faollik, Yangi O‘zbekiston.

---

**Юнусов Алишер,**
Заместитель директора Института
изучения проблем молодёжи
и подготовки перспективных кадров,
кандидат социологических наук, доцент
e-mail: alisheryunusov@rambler.ru

## МОЛОДЕЖЬ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье освещены методологические основы социологического анализа молодежи в условиях Нового Узбекистана. Анализируется значительная трансформация социального облика и ролей молодого поколения, вызванная стремительным развитием глобализации, информационных технологий и цифровых коммуникаций в XXI веке. Также проведен сравнительный анализ институционального формирования и истории государственной молодежной политики в Узбекистане, трансформационных процессов постсоветского периода и качественных изменений в молодежной политике после 2017 года. В статье обоснован процесс перехода от объектной модели к субъектной в молодежной

политике, где молодежь трактуется как активный участник общественного прогресса и стратегический ресурс. Кроме того, рассматриваются научные работы, диссертационные исследования и деятельность научных школ, занимающихся социологическим изучением проблем молодежи в Узбекистане.

**Ключевые слова:** социология молодежи, молодежная политика, государственная молодежная политика, социальная трансформация, социальное агентство, институциональное развитие, социальная активность, Новый Узбекистан.

---

**Yunusov Alisher,**
Deputy Director of the Institute for Research
of the Youth Problems and Training Prospective Personnel,
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology, Associate Professor,
email: alisheryunusov@rambler.ru

## YOUTH IN THE NEW UZBEKISTAN: A SOCIOLOGICAL ANALYSIS

**ABSTRACT**

This article explores the methodological foundations for the sociological analysis of youth within the context of the New Uzbekistan. It examines how the social identity and roles of the younger generation are undergoing significant changes in the 21st century due to rapid globalization, the advancement of information technologies, and digital communications. Furthermore, the paper provides a comparative analysis of the institutional formation and history of state youth policy in Uzbekistan, covering post-independence transformational processes and the qualitative shifts occurring after 2017. The article substantiates the transition from an "object-oriented" to a "subject-oriented" model in youth policy, where young people are viewed as active participants in social progress and a strategic resource. It also reviews current academic research, dissertations, and the activities of scientific schools dedicated to the sociological study of youth issues in Uzbekistan.

**Keywords:** youth sociology, youth policy, state youth policy, social transformation, social agency, institutional development, social activism, New Uzbekistan.

---

### KIRISH

XXI asr jamiyat taraqqiyotida globallashuv, texnologik innovatsiyalar va raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda ijtimoiy munosabatlar tizimida ham sezilarli oʻzgarishlar yuz bermoqda. Xususan, axborot texnologiyalarining keng tarqalishi va internet kommunikatsiyalarining rivojlanishi yosh avlodning ijtimoiy qiyofasiga, dunyoqarashiga va ijtimoiy faolligiga katta taʼsir koʻrsatmoqda.

Ilgari bir avlodning toʻliq almashishi uchun taxminan 30-40 yil vaqt talab etilgan boʻlsa, bugungi kunda bu jarayon ancha tezlashib, taxminan 20-25 yilgacha qisqarib bormoqda. Bu esa yangi avlodning jamiyatga kirib kelish jarayonini tezlashtirmoqda va jamiyatdagi ijtimoiy oʻzgarishlarning dinamikasini yanada kuchaytirmoqda.

Globallashuv sharoitida yoshlar bilan ishlash, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini oʻrganish va ularni jamiyat taraqqiyotiga jalb etish har bir davlatning strategik vazifalaridan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlar muammolarini sotsiologik jihatdan tadqiq etish nafaqat ilmiy ahamiyatga, balki davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosatni takomillashtirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekistonda ham soʻnggi yillarda yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakat rahbariyati tomonidan yoshlarni qoʻllab-quvvatlash, ularning intellektual va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev taʼrifi bilan aytganda “Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana

nima ish qilishim kerak?" degan savollarga javob beradigan, shunday e'tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi" [3]. Ushbu jihatlarni e'tiborga olgan holda aytish mumkinki, yoshlar qatlamini sotsiologik jihatdan tahlil qilishning metodologik asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

**METODOLOGIYA**

Yoshlar qatlamini sotsiologik jihatdan oʻrganish jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, yoshlar har qanday jamiyatda ijtimoiy-demografik jihatdan eng faol va dinamik guruh hisoblanadi. Ular jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biri boʻlib, ijtimoiy innovatsiyalar va modernizatsiya jarayonlarida muhim rol oʻynaydi.

Oʻzbekistonda yoshlar qatlamini sotsiologik tahlil qilish metodologiyasi davlat yoshlar siyosati bilan uzviy bogʻliq holda shakllanib bormoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida yoshlar jamiyat taraqqiyotining strategik resursi sifatida qaralayotgani bois, ularni oʻrganishga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar ham davlat siyosati ustuvor yoʻnalishlari bilan uygʻun holda olib borilishi zarur.

Metodologiyaning davlat siyosati bilan uygʻunligi bir nechta jihatlarda namoyon boʻladi.

Birinchidan, tadqiqot maqsad va vazifalari davlat yoshlar siyosatida belgilangan ustuvor yoʻnalishlarga mos ravishda belgilanishi lozim. Masalan, yoshlar bandligi, ta'lim sifati, tadbirkorlik faolligi, ijtimoiy faollik, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish kabi masalalar sotsiologik tadqiqotlarda asosiy tahlil obyektlari sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, sotsiologik tadqiqotlarda qoʻllaniladigan indikatorlar tizimi davlat statistikasi va milliy dasturlar koʻrsatkichlari bilan uygʻun boʻlishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, yoshlar ishsizligi darajasi, ta'lim bilan qamrov, ijtimoiy mobillik imkoniyatlari va yoshlarning ijtimoiy kayfiyati kabi koʻrsatkichlar davlat siyosatining samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirishda institutsional hamkorlik muhim rol oʻynaydi. Yoshlar ishlari agentligi, ta'lim muassasalari, mahalla instituti va fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan tadqiqotlar empirik ma'lumotlarning ishonchliligini oshiradi va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish imkoniyatini kengaytiradi.

**ASOSIY QISM**

**Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishi**

Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining shakllanishi tarixiy jihatdan bir necha bosqichlardan oʻtgan. Sovet davrida yoshlar siyosati asosan mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilgan. Komsomol tashkilotlari yoshlarni kommunistik gʻoyalar asosida tarbiyalash va davlat siyosatini qoʻllab-quvvatlovchi ijtimoiy kuch sifatida shakllantirish vazifasini bajargan [11].

Mustaqillikka erishilganidan keyin esa yoshlar siyosatida yangi bosqich boshlandi. Sovet davri institutlari oʻrnida milliy manfaatlarga asoslangan yangi yoshlar tashkilotlari shakllantirildi. Jumladan, Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. Ushbu tashkilot yoshlarni mustaqil davlat gʻoyasi atrofida birlashtirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vazifalarini bajarishga qaratilgan edi.

Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi davlat organi emas, balki jamoat tashkiloti sifatida faoliyat yuritgan boʻlsada, davlat bilan yaqin hamkorlikda ishlagan. Uning faoliyati koʻp jihatdan ma'muriy meros va sobiq tuzilmalarga tayangan edi. Bu holat tashkilotning jamoatchilik tabiati toʻliq shakllanishiga ma'lum darajada toʻsqinlik qilgan.

Shunday boʻlsada, Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi mustaqil Oʻzbekistonda yoshlar siyosati institutsionallashuvining ilk bosqichi hisoblanib, sovet davri yoshlar tashkilotlaridan milliy yoshlar institutlariga oʻtishda transformatsiya modeli vazifasini oʻtagan va oʻzidan keyingi yoshlar tuzilmalari uchun asos boʻlib xizmat qilgan.

Shu bilan birga, 1992-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida yoshlar ishlari boʻyicha Respublika kengashi tuzilgan edi [2]. Yoshlarning eng katta jamoat tashkiloti sifatida Oʻzbekiston Yoshlar Ittifoqining birinchi kotibi Respublika kengashi raisining oʻrinbosari etib saylandi. Viloyat, shahar va tuman yoshlar ittifoqi birinchi kotiblari tegishli hududdagi hokimlarning qarori bilan jamoatchilik asosida hokim oʻrinbosari maqomiga ega boʻlishdi.

Kengash oʻz oldiga quyidagi vazifalarni qoʻygan edi:

- yoshlarning ahvoli haqida yillik hisobot ma’ruzalari tayyorlash;
- yoshlar siyosatini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturining loyihasini ishlab chiqish;
- yoshlarning ijtimoiy xizmati toʻgʻrisidagi nizomni tayyorlash;
- yoshlarning davlat-jamoat jamgʻarmalarini tashkil qilish manbalari, tartibi, uning faoliyat maqsad va vazifalari haqidagi nizom loyihasini tayyorlash va hukumatga taqdim etish;
- yoshlar oʻrtasida sotsiologik tadqiqotlar oʻtkazishni tashkil etish;
-yoshlarning jamoatchilik tashkilotlari tarmogʻini kengaytirish boʻyicha takliflar bilan chiqish va boshqalar.

1990-yillarda mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli yoshlar tashkilotlarining faoliyati cheklangan imkoniyatlar doirasida amalga oshirildi. Shu bilan birga, yoshlar siyosatining huquqiy asoslarini yaratishga alohida e’tibor qaratildi [8].

**Yoshlar siyosatida institutsional islohotlar**

1996-yilda Oʻzbekiston yoshlarining “Kamolot” jamgʻarmasi tashkil etildi. Keyinchalik 2001-yilda uning negizida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati shakllantirildi. Ushbu tashkilot yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va yoshlarning huquqlarini himoya qilish vazifalarini bajarishi koʻzda tutilgan edi.

Biroq amaliyot shuni koʻrsatdiki, mazkur harakat yoshlarning keng qatlamlarini qamrab olgan ommaviy harakatga aylana olmadi. Tashkilot faoliyatida rasmiyatchilik va byurokratik yondashuv ustuvor boʻlib qoldi [5].

2017-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekistonda amalga oshirilgan yoshlarga oid siyosatda yoʻl qoʻyilgan yana bir muhim kamchilik haqida toʻxtalish lozim. Bu ishlarning funksional metodologiyaga tayanib olib borilganligida deyish mumkin. Oʻsha paytda qabul qilingan me’yoriy hujjatlarda hamda rahbariy adabiyotlarda keltirilgan yondashuvlarda yoshlar davlat siyosatining subyekti emas, obyekt sifatida qaralganligini koʻrishimiz mumkin.

Islom Karimovning asarlari va nutqlarida yoshlar masalasi mustaqil, tizimli va mafkuraviy ahamiyatga ega ijtimoiy guruh sifatida qaraladi. Uning asarlari tahlili mazmun va yondashuv jihatidan uning pozitsiyasini bir nechta klassik va neoklassik sotsiologik nazariyalar bilan bogʻlash mumkinligini koʻrsatadi.

Asosiy yondashuv albatta T.Parsons va R.Mertonlar ishlab chiqqan strukturaviy funksionalizmga asoslanadi. I.Karimov asarlarida yoshlar jamiyatning strategik resursi sifatida talqin qilinadi, jamiyat barqarorligi va davlat mustaqilligining funksional tayanchi sifatida koʻriladi. Bu aynan funksionalizmdagi ijtimoiylashuv, ijtimoiy tizimning oʻzini qayta ishlab chiqarishi hamda avlodlar vorisligi gʻoyalariga mos keladi [11; 6].

Shuningdek, uning asarlarida yoshlar “Ijtimoiylashuv nazariyasi”, “Modernizatsiya nazariyasi” hamda “Madaniy reproduksiya va ma’naviy yondashuv” nazariyalari asosida tahlil qilinganligini koʻrishimiz mumkin. U yoshlarni nazoratsiz erkin subyekt emas, balki mas’uliyatli, tarbiya orqali shakllanadigan ijtimoiy kuch deb qaraydi.

2016-yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi Qonun yoshlar siyosati rivojlanishida muhim burilish nuqtasi boʻldi. Mazkur qonunda yoshlar tushunchasi huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi va yoshlar siyosatidagi asosiy tamoyillar belgilab qoʻyildi [1].

**Yangi Oʻzbekistonda yoshlar siyosati**

2017-yildan keyin Oʻzbekistonda yoshlar siyosatiga yondashuv tubdan oʻzgardi. Yangi davrda yoshlar jamiyat taraqqiyotining faol subyekti sifatida qarala boshladi. Bu yondashuvda yoshlar faqat tarbiya obyekti emas, balki islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida talqin etilmoqda.

Bugungi kunda yoshlar siyosati quyidagi ustuvor yoʻnalishlarni qamrab oladi:

- yoshlar ta’limini rivojlantirish;
- yoshlar bandligini ta’minlash;
- yoshlar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash;
- yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- yoshlar bilan davlat oʻrtasida ochiq muloqot mexanizmlarini shakllantirish.

2017-yildan keyingi davrda yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoev rahbarligida amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati, yoshlarga munosabat, avvalo, yoshlarni jamiyat va davlat taraqqiyotining **faol subekti** sifatida e’tirof etish bilan tavsiflanadi, deyish mumkin. Bu yondashuvda yoshlar faqat tarbiya va himoya obektigina emas, balki islohotlarning tashabbuskori va ijrochisi sifatida ko‘riladi. Davlat siyosatida yoshlarning ta’lim olishi, kasb egallashi, bandligi, tadbirkorligi va zamonaviy bilimlarni (IT, xorijiy tillar) o‘zlashtirishi ustuvor yo‘nalishga aylangan, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga real imkoniyatlar yaratila boshlandi.

“Yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati biz uchun kuch-qudrat, mamlakatimiz kelajagiga tayanch. Bugun farzandlarimiz zamonaviy yo‘nalishlarni egallab, ancha ilgarilab ketyapti. Ularni qo‘llab-quvvatlasak, sifatli ta’lim berib, sharoit yaratsak, bundan ham katta natijalarga erishadi” [4].

Shu bilan birga, so‘ngi yillarda olib borilayotgan yoshlarga oid siyosat **ochiq muloqot va amaliy qo‘llab-quvvatlash** tamoyiliga asoslanishini ta’kidlash lozim. Yoshlar bilan davlat o‘rtasidagi aloqalar muloqot shaklida bo‘lib, ularning muammo va takliflarini bevosita eshitish va hal etishga yo‘naltirilgan mexanizmlar joriy etildi. Bu jarayonda ma’naviy tarbiya saqlanib qolgan holda, mafkuraviy bosimdan ko‘ra yoshlarning tashabbusi, tanqidiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Umuman O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda 2017-yilgacha bo‘lgan holat bilan undan keyingi davr o‘rtasida ma’lum transformatsion o‘zgarishlar yuz berganligini kuzatishimiz mumkin.

Xususan, 2017-yilgacha bo‘lgan yoshlar siyosatida **strukturaviy-funksional va ijtimoiylashuv paradigmasi** ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, undan keyingi davrda yoshlar **faol ijtimoiy agent**, inson kapitali va demokratiyaning faol subyektlari sifatida talqin etiladi. Bu esa, yoshlar siyosatida **obyektli modeldan subyektli, mafkuraviydan inklyuziv rivojlanish modeliga o‘tilganlikni** anglatadi (1-jadval).

**1-jadval**

**I.A.Karimov va Sh.M.Mirziyoev tomonidan amalga oshirilgan yoshlarga oid davlat siyosatining qiyosiy tahlili**

| Qiyosiy o‘lcham | I.A.Karimov yondashuvida | Sh.M.Mirziyoev yondashuvida |
|---|---|---|
| **Yoshlarning maqomi** | Obyekt | Subyekt |
| **Asosiy vazifasi** | Barqarorlik | Rivojlanish |
| **Nazariy yondashuv** | Funksionalizm | Agentlik/partisipatsiya |
| **Davlatning roli** | Nazoratchi | Fasilitator |
| **Yoshlar siyosatining yo‘nalganligi** | Mafkuraviy | Inklyuziv-amaliy |

**O‘zbekistonda yoshlar sotsiologiyasi rivojlanishi**

O‘zbekistonda sotsiologiya fani jamiyat hayotining turli sohalarini qamrab olgan holda rivojlanib bormoqda. Yoshlar muammolarini tadqiq etish ham sotsiologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda yoshlar muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshdi. Xususan, yoshlar faolligi, raqamli muhit ta’siri, ijtimoiy mobillik, ta’lim va bandlik masalalari bo‘yicha keng tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

2017-yildan keyin sotsiologiya sohasida ixtisoslashgan ilmiy kengashlar tashkil etildi va dissertatsion tadqiqotlar soni ham sezilarli darajada oshdi. Bu esa yoshlar sotsiologiyasining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yoshlar sotsiologiyasi yo‘nalishida olib borilgan hamda muvaffaqiyatli himoya qilingan dissertatsion tadqiqotlar dinamikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 1991-2016-yillarda atiga 6 ta doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan va ularning birontasi yoshlar muammolarini o‘rganishga qaratilmagan, 26 ta nomzodlik dissertatsiyalarining esa, faqat 6 tasi yoshlar va yoshlik davrini bevosita yoki bilvosita tadqiq etishga bag‘ishlangan.

2017-yildan boshlab esa, sotsiologiya bo‘yicha dissertatsion tadqiqotlar keng amalga oshirila boshlandi va faqat yoshlar muammolarini o‘rganishga qaratilgan 2 ta doktorlik (DSc) hamda 20 dan ortiq sotsiologiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari himoya qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yoshlar muammosini alohida tadqiqot mavzusi qilib olgan S.S.Otamurodov o‘z ilmiy tadqiqotlarida yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy-innovatsion jarayonlarda yoshlarning faolligi masalalarini keng o‘rganib chiqqan bo‘lsa [7], sotsiologiya fanlari doktori D.Toshmuxamedova O‘zbekiston yoshlarining zamonaviy raqamli dunyoda tutgan o‘rni, virtual olamning yoshlar faolligiga ta’siri masalalarini o‘rgangan [9].

Xususan, sotsiologiya fanlari doktori S.Otamuratov “mamlakatimiz uchun murakkab muammolardan biri nafaqat modernizatsiyalashtirishning vazifalarini samarali amalga oshirish, balki siyosiy tajribalarga ega bo‘lmagan aholimizning yarmidan ko‘pini tashkil qilayotgan mehnat resurslarimiz bo‘lgan yoshlarimizni amalga oshiriladigan modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etishiga erishish hisoblanadi. Chunki, modernizatsiyalashish sharoitida yuzaga keladigan ishsizlik, uyushmagan yoshlarning paydo bo‘lishi, moddiy yetishmovchilik, yoshlar o‘rtasida tabaqalanish, uning ta’sirida jamiyatdan begonalashish kabilar ularda siyosiy jarayonlarga nisbatan ishonchsizlik ruhiyatini yuzaga keltiradi” deydi. S.Otamurodovning fikriga ko‘ra, “yoshlarda bunday imkoniyatlar yuzaga kelgan taqdirda, ulardan samarali foydalanishning asosiy omillaridan biri bo‘lgan yoshlarda yaratuvchilik, ijtimoiy-innovatsion faollik ruhiyatini shakllantirishdek o‘ta murakkab vazifani hal etish zarur bo‘ladi” [7].

Umuman 2016-yildan keyingi davrda O‘zbekiston sotsiologlarining yoshlar muammolarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarini guruhlashtiradigan bo‘lsak, bular birinchi navbatda yoshlarning xavfsizligi hamda ularni turli deviant holatlardan himoyalash masalalariga ko‘proq e’tibor qaratilayotganligini (B.Tojibaev, 2019; O.To‘raev, 2021; A.Tolipov, 2021; A.Madraximov, 2024.), ikkinchi o‘rinda esa, ularning ijtimoiy himoyasi va ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan institutlarning faoliyati tahliliga bag‘ishlanganligini ko‘rishimiz mumkin (Z.Uzakova, 2019; E.Zaitov, 2020; F.Karimov, 2020; M.Abduvalieva, 2022.).

Keyingi yo‘nalishlar esa, yosh avlodning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan raqobatbardoshlik xususiyatini shakllantirish (N.Nazarova, 2024; B.Hamzaev, 2025.), ular hayotida alohida ahamiyatli institut bo‘lgan ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini tahlil qilishga (Q.Mahkamov, 2019; F.Abduvaliev, 2022; S.Abduhakimov, 2023; U.Xomidjonov, 2024;) hamda yoshlar hayotining muhim qismi bo‘lgan bo‘sh vaqt va uni mazmunli tashkil etish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan (N.Abdukadirova, 2024; H.Akramov, 2023; O.Dulanboeva, 2022.).

Shuningdek, G.Jiyanmuratovaning yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faolligi, X.Mirzaxmedovning yoshlarda tolerantlikni shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlari, A.Abdullaevning yoshlarning sotsial mobilligini takomillashtirish masalalari, R.Saparbaevning yosh oilalarni kambag‘allikdan chiqarish jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari ham amalga oshirildi. N.Zaretdinova va M.Seitovlar tomonidan yoshlar muammolarini tadqiq etishda amaliy tadqiqot usullarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar kuzatilayotganligini alohida e’tirof etish lozim.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati rivojlanishi bir necha bosqichlardan o‘tgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida yoshlar siyosati asosan ijtimoiylashuv va barqarorlikni ta’minlash vazifalariga qaratilgan bo‘lsa, 2017-yildan keyin yoshlar jamiyat taraqqiyotining faol subyekti sifatida qarala boshlandi.

Bu o‘zgarish yoshlar siyosatida obyektli modeldan subyektli modelga o‘tishni anglatadi. Yangi yondashuv yoshlarni jamiyat taraqqiyotining strategik resursi sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, yoshlar muammolarini sotsiologik tadqiq etish davlat siyosatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar yoshlar hayotidagi ijtimoiy o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish va ularga mos ijtimoiy siyosat ishlab chiqish imkonini beradi.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida. – Toshkent, 2016.
2. Oʻzbekiston yoshlar ishlari boʻyicha Respublika kengashini tashkil etish toʻgʻrisida. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 568-son qarori. – Toshkent, 1992.
3. Mirziyoev Sh.M. "Yoshlar kelajagi bilan bogʻliq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega". – Toshkent, 2020.
4. Mirziyoev Sh.M. "Yoshlarimizning har bir muvaffaqiyati biz uchun kuch-qudrat". – Toshkent, 2025.
5. Mirziyoev Sh.M. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. – Toshkent, 2017.
6. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура / Роберт Мертон. – М., 2006.
7. Otamurodov S.S. Yangilanayotgan Oʻzbekiston ijtimoiy-innovatsion jarayonlarida yoshlar faoliyati. – Toshkent, 2020.
8. Tangriev L.X. Yoshlar siyosati subyekti: bandlik muammosi. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2001.
9. Toshmuxamedova D. Raqamli muhitda yoshlar faolligi. – Toshkent, 2021.
10. Туленова Г. Молодёжная политика в Республики Узбекистан: состояние и перспективы развития. – Ташкент, 2008.
11. Parsons T. The Social System. – N.Y.: Psychology Press, 1991.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Kadirova Xalima,**
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
e-mail: kadirovaxalima@gmail.com

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA MEDIA TA’LIM VA MEDIA SAVODXONLIKNING IJTIMOIY AHAMIYATI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy transformatsiyalar kontekstida media ta’lim va media savodxonlikning ijtimoiy ahamiyati sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Media makonining kengayishi, raqamli platformalarning ommalashuvi hamda axborot oqimining intensivlashuvi sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati ilmiy asoslanadi. Media ta’lim zamonaviy jamiyatda ijtimoiylashuv, madaniy integratsiya va fuqarolik faolligini oshirishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Shuningdek, media savodxonlikning dezinformatsiya, manipulyativ kontent va axborot tahdidlariga qarshi ijtimoiy immunitetni shakllantirishdagi roli yoritiladi. Maqolada strukturaviy-funksional, institutsional va kommunikativ yondashuvlar asosida media ta’lim hamda media savodxonlikning jamiyat barqarorligi, ijtimoiy ong rivoji va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, ta’lim, raqamli transformatsiya, media ta’lim, media savodxonlik, ijtimoiylashuv, ijtimoiy institut, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, raqamli jamiyat, ijtimoiy ong.

---

**Кадырова Халима,**
доцент Национального педагогического университета
Узбекистана имени Низами,
доктор философии (PhD) по социологическим наукам,
e-mail: kadirovaxalima@gmail.com

# СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ И МЕДИАГРАМОТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье с социологической точки зрения анализируется социальная значимость медиаобразования и медиаграмотности в контексте социальных трансформаций, происходящих в условиях глобализации и стремительного развития информационно-коммуникационных технологий. Обосновывается необходимость формирования у студентов навыков критического мышления в условиях расширения медиапространства, популяризации цифровых платформ и интенсификации информационных потоков. Медиаобразование

рассматривается как важный фактор социализации, культурной интеграции и повышения гражданской активности в современном обществе. Освещается роль медиаграмотности в формировании социального иммунитета к дезинформации, манипулятивному контенту и информационным угрозам. На основе структурно-функционального, институционального и коммуникативного подходов раскрывается значение медиаобразования и медиаграмотности в обеспечении социальной стабильности, развитии общественного сознания и информационной безопасности.

**Ключевые слова**: глобализация, образование, цифровая трансформация, медиаобразование, медиаграмотность, социализация, социальный институт, информационная безопасность, критическое мышление, цифровое общество, общественное сознание.

---

**Kadirova Khalima,**
Associate Professor National Pedagogical
University of Uzbekistan
named after Nizami,
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology
e-mail: kadirovaxalima@gmail.com

## THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF MEDIA EDUCATION AND MEDIA LITERACY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

**ABSTRACT**

This article analyzes the social significance of media education and media literacy from a sociological perspective within the context of social transformations caused by globalization and the rapid development of information and communication technologies. The necessity of developing students' critical thinking skills in the context of expanding media space, the growing popularity of digital platforms, and the intensification of information flows is scientifically substantiated. Media education is interpreted as an important factor in socialization, cultural integration, and the enhancement of civic engagement in modern society. The role of media literacy in forming social immunity against disinformation, manipulative content, and information threats is also examined. Based on structural-functional, institutional, and communicative approaches, the article reveals the role of media education and media literacy in ensuring social stability, the development of social consciousness, and information security.

**Keywords**: globalization, education, digital transformation, media education, media literacy, socialization, social institution, information security, critical thinking, digital society, social consciousness.

---

### KIRISH

Globallashuv zamonaviy jamiyat taraqqiyotining kompleks va koʻp qirrali jarayoni boʻlib, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda axborot-kommunikatsion makonning integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi natijasida axborot ishlab chiqarish, tarqatish va isteʼmol qilish jarayonlari tubdan oʻzgardi. Natijada jamiyatda "raqamli muhit" va "axborotlashgan makon" shakllanib, u shaxs ijtimoiylashuvi, tafakkuri va qadriyatlar tizimiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda.

Shu sharoitda media taʼlim va media savodxonlik zamonaviy taʼlim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Media taʼlim - bu shaxsni media makonida ongli, tanqidiy va masʼuliyatli faoliyat yuritishga tayyorlashga qaratilgan pedagogik jarayon boʻlib, u media matnlarini tahlil qilish, ularning mazmunini baholash va mustaqil media mahsulotlarini yaratish koʻnikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Media savodxonlik esa shaxsning axborotni tanqidiy qabul qilish, saralash, tekshirish va ijtimoiy kontekstda talqin etish kompetensiyalarini ifodalaydi.

Globallashuv tarixiy taraqqiyot jarayonida turli siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlar orqali jahon hamjamiyati rivojiga sezilarli taʼsir koʻrsatib kelmoqda. Bugungi kunda globallashuv

mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning kengayishi, moddiy va nomoddiy qadriyatlarning milliy chegaralardan chiqib, global miqyosda tarqalishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki ta’lim, madaniyat, huquq va axborot-kommunikatsiya tizimlarida ham chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida axborot makoni kengayib, bilim olish, uni qayta ishlash va uzatish shakllari tubdan yangilanmoqda.

**METODOLOGIYA**

Tadqiqotning metodologik asosini globallashuv, media ta’lim va mediasavodxonlik bo‘yicha ilgari surilgan nazariy konsepsiyalar tashkil etadi.

Xorijlik olimlardan X.G.Barnett, D.A.Xarvey [1], A.J.Brovn, K.S.Findliy, L.Nefiodov [2] larning ilmiy izlanishlarida globallashuv jarayonlari va innovatsion texnologiyalarning munosabati keng yoritib berilgan.

(MDH) mamlakatlari olimlaridan, M.M.Reshetnikov [3] globallashuv jaraѐning dunѐ hamjamiyatiga ta’siri masalasini, V.L.Inozemsev globallashuvning paydo bo‘lishi va uning tadrijiy rivojlanish tamoyillarini, I.V.Bestujev-Lada, A.I.Prigojin [4] zamonaviy sharoitda ijtimoiylashuv jaraѐnining o‘rni va ahamiyatini kabi masalalarni tahlil qilishgan.

Shuningdek, media ta’lim va mediasavodxonlik bo‘yicha ilgari surilgan nazariy konsepsiyalar jumlasiga, David Buckingham, Renee Hobbs va Marshall McLuhanning ilmiy qarashlari media ta’limning nazariy poydevorini belgilaydi. Marshall McLuhan tomonidan ilgari surilgan “global qishloq” konsepsiyasi media vositalarining jamiyat va tafakkurga ta’sirini ochib beradi. David Buckingham media ta’limni pedagogik jarayon sifatida talqin qilib, uni mediasavodxonlikdan farqlaydi hamda talabalarda tahliliy va tanqidiy ko‘nikmalarni shakllantirish zarurligini asoslaydi [5]. Renee Hobbs esa mediasavodxonlikni axborotni tanqidiy baholash va yaratish kompetensiyalari bilan bog‘laydi [6]. Len Masterman media ta’limning demokratik jamiyatdagi o‘rnini asoslab bergan. Shuningdek, Paulo Freirening kritik pedagogika nazariyasi talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, axborotni ijtimoiy kontekstda tahlil qilish va ijtimoiy adolat masalalarini anglash zaruratini asoslaydi [7].

A.V.Fedorov media ta’limni shaxsning kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi jarayon sifatida talqin qiladi [8]. Y.N.Usov va L.S.Zaznobina media ta’limni shaxs rivojiga yo‘naltirilgan tizimli pedagogik faoliyat sifatida baholaydilar [9;10].

Tadqiqotda strukturaviy-funksional, institutsional hamda kommunikativ yondashuvlardan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar media ta’limning jamiyat barqarorligi va ijtimoiy ong rivojiga ta’sirini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

**ASOSIY QISM**

Media ta’lim - bu shaxsni zamonaviy axborot muhitida ongli faoliyat yuritishga tayyorlovchi pedagogik jarayon bo‘lib, u media matnlarini tahlil qilish, mazmunini baholash va mustaqil media mahsulotlarini yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Media savodxonlik esa shaxsning axborotni tanqidiy qabul qilish, uning manbaini tekshirish, maqsad va kontekstini anglash hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir.

Mazkur tushunchalar o‘zaro bog‘liq bo‘lsada, media ta’lim pedagogik jarayonni, mediasavodxonlik esa natijaviy kompetensiyani ifodalaydi.

Media ta’lim – ommaviy kommunikatsiya vositalarini (matbuot, radio, televideniye, kino, internet va boshqalar) o‘rganishga qaratilgan pedagogik yo‘nalish bo‘lib, uning asosiy maqsadi shaxsni zamonaviy axborot muhitida ongli va mas’uliyatli faoliyat yuritishga tayyorlashdan iborat. Media ta’lim media orqali o‘qitishdan farq qiladi. U media matnlarining yaratilishi, tarqatilishi va iste’moli jarayonlarini tahlil qilish, ularning mazmunini baholash hamda mustaqil media mahsulotlarini yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Media savodxonlik esa shaxsning axborotni tanqidiy tahlil qilish, baholash va yaratish kompetensiyalarini ifodalaydi.

Fedorov media ta’limni media bilan muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni sifatida izohlaydi [8]. Usov esa uni shaxsning hissiy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik tizim deb baholaydi[9]. Zaznobina media ta’limni axborotlashgan makonda yashashga tayyorlovchi jarayon sifatida talqin qiladi [10].

Media ta’limning an’anaviy ta’limdan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:
talaba markazli yondashuv;

- interaktiv va vizual boyitilgan o‘qitish metodlari;
- moslashuvchan va individual o‘qish trayektoriyasi;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- global axborot resurslariga ochiqlik.

An’anaviy ta’lim esa ko‘proq o‘qituvchi markazli, nazariy bilimlarga tayangan va standartlashtirilgan yondashuv bilan tavsiflanadi.

Globallashuv sharoitida axborot oqimining keskin ortishi talabalardan axborotni saralash, tahlil qilish va tanqidiy baholash ko‘nikmalarini talab etadi. Dezinformatsiya va manipulyativ kontentning keng tarqalishi media savodxonlikni ijtimoiy xavfsizlik omiliga aylantirmoqda.

Shu jihatdan media ta’lim nafaqat individual kompetensiya, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishi va fuqarolik faolligining oshishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot maqsadi va usuli: Globallashuv sharoitida media ta’lim va mediasavodxonlikning talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va global resurslardan foydalanish ko‘nikmalarini qanday rivojlantirishini aniqlashdan iborat**.** Tadqiqot metodikasi sifatida so‘rovnoma va strukturalangan intervyu usullari qo‘llanildi. So‘rovnoma 2026-yilning fevral oyida Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti bakalavriat 1-kurs talabalari o‘rtasida o‘tkazildi. Ishtirokchilar soni: 120 kishi. Quyidagi jadvalda asosiy ko‘rsatkichlar foizda ifodalangan bo‘lib, bu globallashuv sharoitida media ta’lim va mediasavodxonlikning talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va global resurslardan foydalanish ko‘nikmalarining tahliliy tasvirini beradi (1-jadval):

**1-jadval**

**Talabalarda media ta’lim kompetensiyalarini baholash natijalari (N=120)**

| Natijalar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | O‘rtacha |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Tanqidiy fikrlash | | | | | | 3,85 |
| Media tahlili | 3 | 10 | 30 | 45 | 32 | 3,95 |
| Mustaqil media yaratish | 8 | 15 | 40 | 35 | 22 | 3,62 |
| Global resurslar | 4 | 8 | 25 | 48 | 35 | 4,05 |
| Ijtimoiy immunitet | 6 | 10 | 30 | 42 | 32 | 3.88 |

So‘rovnoma savollari quyidagi ko‘nikmalarni baholashga yo‘naltirilgan bo‘lib. Bular:

1. Axborotni tanqidiy baholash qobiliyati;
2. Media matnlarini tahlil qilish va izohlash;
3. Mustaqil media mahsulotlarini yaratish ko‘nikmasi;
4. Global resurslardan foydalanish;
5. Dezinformatsiya va manipulyatsiyaga qarshi ijtimoiy immunitet.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalar eng yuqori ko‘rsatkichni global resurslardan foydalanish (4,05) va media tahlili (3,95) bo‘yicha namoyon qilishgan, eng past ko‘rsatkich mustaqil media yaratishda (3,62) kuzatilgan. Bu media ta’lim jarayonida amaliy ijodiy faoliyatga yetarli e’tibor berilmayotganini bildiradi.

Statistik tahlil: So‘rovnoma natijalari bo‘yicha o‘rtacha va standart og‘ish (SD) qiymatlari hisoblandi (2-jadval):

**2-jadval**

**O‘rtacha va standart og‘ish (SD) qiymatlari**

| Ko‘nikmalar | O‘rtacha | SD |
|---|---|---|
| Tanqidiy fikrlash | 3,85 | 0,89 |
| Media tahlili | 3,95 | 0,87 |

| Ko'nikmalar | O'rtacha | SD |
|---|---|---|
| Mustaqil media yaratish | 3,62 | 0,94 |
| Global resurslar | 4,05 | 0,81 |
| Ijtimoiy immunitet | 3,88 | 0,88 |

**Tahlil:** O'rtacha qiymatlar 3,6-4,1 oralig'ida bo'lib, talabalar media ta'lim va savodxonlik bo'yicha o'rta darajada yuqori kompetensiyaga ega ekanligini ko'rsatadi. Standart og'ish 0,81-0,94 oralig'ida, bu natijalarni ishonchli deb baholash mumkinligini bildiradi. Xulosalar:

1. Talabalarda tanqidiy tafakkur va media tahlil ko'nikmalari amalda yuqori darajada rivojlangan.
2. Mustaqil media yaratish va ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha metodik ishlar zarur.
3. Global resurslar bilan ishlash bo'yicha kompetensiya yuqori, bu esa media ta'limning raqamli komponenti samarali ishlayotganini ko'rsatadi.
4. Ijtimoiy immunitet va media savodxonlikka oid kompetensiyalar o'rtacha darajada, lekin ularni oshirish jamiyat barqarorligi va axborot xavfsizligi uchun muhimdir.

Globallashuv sharoitida ta'lim tizimi jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashuvchi va ularni yo'naltiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim ijtimoiy o'zgarishlarning ham obyekti, ham subyekti hisoblanadi. Shu bois media ta'lim va media savodxonlik masalasi zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.

Globallashuv sharoitida mediasavodxonlikning ijtimoiy ahamiyati quyidagicha tahlil qilish mumkin:

- Ijtimoiylashuv omili sifatida zamonaviy yoshlar axborotning asosiy qismini raqamli platformalar orqali qabul qilmoqda. Media vositalari ijtimoiy qadriyatlar, me'yorlar va xulq-atvor modellarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Media ta'lim ushbu jarayonni ongli ravishda boshqarish imkonini beradi.

- Tanqidiy tafakkur va analitik kompetensiyalar - media savodxonlik shaxsda tanqidiy tafakkur, tahliliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Axborot xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik - dezinformatsiya va feyk xabarlar jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarishi mumkin. Media savodxonlik ijtimoiy "axborot immuniteti"ni shakllantirib, zararli kontent ta'sirini kamaytiradi.

- Demokratik jamiyat rivojidagi roli -ongli va tanqidiy fikrlovchi fuqaro ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Media ta'lim fuqarolik madaniyatini rivojlantirib, demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

- Ta'lim tizimi transformatsiyasi - globallashuv sharoitida ta'lim tizimi interaktiv va talaba markazli modelga o'tmoqda. Media ta'lim:

- raqamli kompetensiyalarni shakllantiradi;
- ijodiy fikrlashni rivojlantiradi;
- global resurslardan foydalanish imkonini yaratadi;
- innovatsion pedagogik metodlarni qo'llashni ta'minlaydi.

Bu esa mehnat bozorida raqobatbardosh, moslashuvchan va kreativ mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri - yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan birga, ularni mustaqil fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlovchi, yuksak insoniy fazilatlarga ega vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamda yoshlar ongida turli mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishda mediasavodxonlik oid bilim malaka va ko'nikmalarini shakillantirishdan iboratdir [11].

Bugungi globallashuv, transformatsiyalashuv, zamonaviylashuv davri deb atalayotgan zamonda hayot darajasi tezlashishi natijasida insonlarning ongi va ruhiyati o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, bu jarayonlarning yoshlarga bo'layotgan turli ta'sirlari va buning oqibatida ularda

shakllanayotgan o'ziga xos yangicha kayfiyat jamiyat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi [12].

**XULOSA**

Globallashuv sharoitida media ta'lim va media savodxonlik ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Media ta'lim keng pedagogik jarayon sifatida media vositalarini o'rganish va ulardan ongli foydalanishni o'z ichiga olsa, mediasavodxonlik ushbu jarayon doirasida tanqidiy tahlil, baholash va axborot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Media ta'lim:

- talabaning media bilan faol o'zaro aloqasini ta'minlaydi;
- interaktiv pedagogik metodlarga asoslanadi;
- ijodiy va analitik kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Mediasavodxonlik:

- axborotni tanqidiy tahlil qilishni;
- ma'lumotni yaratish va baholashni;
- ijtimoiy kontekstni anglashni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida media ta'lim va media savodxonlik ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Media ta'lim talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy va analitik kompetensiyalarni rivojlantiradi, mediasavodxonlik esa axborotni tanqidiy tahlil qilish, baholash va ijtimoiy kontekstni tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, media ta'lim va media savodxonlik jamiyatning barqaror rivojlanishi, demokratik qadriyatlar va axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**


1. Harvey D.A Brief Historiy of Neoliberalism. W. Ross MacDonald School Resource Services Library, 2014.
2. Глебов Г. И., Милаева О.В.Современные международные отношения. Учебное пособие. – Пенза: Изд. Пенз. гос. ун-та, 2010. – 98 с.
3. Решетников М. М. Глобализация - самый общий взгляд. Часть 1. - СПб., Восточно-Европейский институт психоанализа, 2002. – 76 с.
4. Иноземцев В.Л. Вестернизация как глобализация и глобализация как американизация // Вопросы философии. – М., 2004. №4. – С. 60.
5. Buckingham D. *Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture*. Cambridge: Polity Press, 2000.
6. Hobbs R. The Seven Great Debates in the Media Literacy Movement. *Journal of Communication*. 1998. Vol. 48, No. 1. P. 16-32. Hobbs R. Multiple Visions of Multimedia Literacy: Emerging Areas of Synthesis. In: Livingstone S., Drotner K. (eds.). *International Handbook of Children, Media and Culture*. – London: Sage, 2006. – P.15-28.
7. Freire P. *Pedagogy of the Heart*. New York: Continuum, 1997.
8. Fedorov A. *Media Education in Modern Pedagogy*. – M.: Academy, 2005.
9. Usov Y.N. *Media Education and the Development of Personality*. –M.: Russian Academy of Education, 1995.
10. Zaznobina L.S. *Media Education in School Practice*. – M.: Institute of General Secondary Education, 2000.
11. Kadirova X.B. (2025). Ta'lim tizimida media savodxonlik va sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari. Философия и право, 31(1), 7-10.
12. Kadirova X., & Sheraliev, A. (2022). Глобаллашув ва ёшлар. Science and innovation, 1(B8), 1690-1694.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Abdikadirova Nigora,**
Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
Sotsiologya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: abdikadirovanigora004@gmail.com

# RAQAMLASHTIRISH VA RAQAMLI TA’LIMNING INSON SALOHIYATIGA TA’SIRI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada raqamlashtirish jarayonlari va raqamli ta’limning inson salohiyatini rivojlantirishdagi oʻrni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etish orqali bilim olish sifatini oshirish, intellektual, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Unda axborot texnologiyalarining ta’lim sifatini oshirishdagi roli, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishi va shaxsiy rivojlanishga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, mustaqil oʻrganish, ijodiy va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish masalalari koʻrib chiqiladi. Maqolada raqamli ta’limning afzalliklari bilan birga muammolari va cheklovlari ham tahlil etilib, samarali foydalanish yoʻllari taklif etiladi. Bu jarayon inson kapitalini oshirishga xizmat qiladi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir koʻrsatadi. Shuning uchun raqamli ta’lim dolzarb hisoblanadi bugungi kunda ham muhim. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasida raqamli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, qonun va strategiyalari tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** raqamlashtirish, raqamli ta’lim, inson salohiyati, inson kapitali, axborot texnologiyalari, ta’lim islohotlari, raqamli iqtisodiyot.

---

**Абдикадирова Нигора,**
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
Доцент кафедры социально-гуманитарных дисциплин,
доктор философии (PhD) по социологии
e-mail: abdikadirovanigora004@gmail.com

# ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье всесторонне проанализирована роль процессов цифровизации и цифрового образования в развитии человеческого потенциала с научно-теоретической и практической точек зрения. Освещаются вопросы повышения качества образования за счёт внедрения цифровых технологий, формирования интеллектуальных, социальных и профессиональных компетенций. Рассматривается роль информационных технологий в расширении доступа к знаниям и их влияние на личностное развитие. Особое внимание уделяется развитию навыков самостоятельного обучения, творческого и критического мышления. Наряду с преимуществами цифрового образования анализируются его проблемы

и ограничения, предлагаются пути их эффективного решения. Подчёркивается, что данный процесс способствует росту человеческого капитала и оказывает положительное влияние на развитие общества. В связи с этим цифровое образование остаётся актуальным и значимым в современных условиях. Также проанализированы государственная политика, законы и стратегии Республики Узбекистан, направленные на развитие цифрового образования.

**Ключевые слова:** цифровизация, цифровое образование, человеческий потенциал, человеческий капитал, информационные технологии, реформы образования, цифровая экономика.

---

**Abdikadirova Nigora,**
Uzbek State University of Physical Culture and Sports
Docent of the Department of Social and Humanitarian Disciplines
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology
e-mail: abdikadirovanigora004@gmail.com

# THE IMPACT OF DIGITALIZATION AND DIGITAL EDUCATION ON HUMAN POTENTIAL

**ABSTRACT**

This article provides a comprehensive scientific and practical analysis of the role of digitalization processes and digital education in the development of human potential. It examines how the integration of digital technologies into the education system improves the quality of learning and contributes to the formation of intellectual, social, and professional competencies. The study highlights the role of information technologies in expanding access to knowledge and supporting personal development. Particular attention is given to the development of independent learning, creative, and critical thinking skills. In addition to the advantages of digital education, the article analyzes its challenges and limitations and proposes effective solutions. It emphasizes that these processes contribute to the growth of human capital and have a positive impact on societal development. Therefore, digital education remains highly relevant today. The article also analyzes the state policy, laws, and strategies of the Republic of Uzbekistan aimed at developing digital education.

**Keywords:** digitalization, digital education, human potential, human capital, information technologies, educational reforms, digital economy.

---

## KIRISH

Jahon miqyosida kechayotgan raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Toʻrtinchi sanoat inqilobi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va raqamli platformalar nafaqat iqtisodiyot va boshqaruv tizimiga, balki ta’lim sohasiga ham chuqur ta’sir koʻrsatmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimining raqamlashtirilishi inson salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Inson salohiyati zamonaviy ilmiy qarashlarda jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy resurs sifatida qaraladi. Bunda inson salohiyati nafaqat bilim va malakalar yigʻindisi, balki tanqidiy fikrlash, innovatsion faollik, ijodkorlik, raqamli savodxonlik va uzluksiz ta’limga tayyorlik kabi sifat koʻrsatkichlarni ham oʻz ichiga oladi. Mazkur komponentlarning shakllanishi esa tobora raqamli ta’lim muhiti bilan chambarchas bogʻliq boʻlib bormoqda.

Bugungi kunda an’anaviy ta’lim modellari mehnat bozorida tez oʻzgarib borayotgan talablarni toʻliq qondirish imkoniyatiga ega emas. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yuqori malakali, raqamli kompetensiyalarga ega, moslashuvchan va innovatsion fikrlay oladigan kadrlarga boʻlgan ehtiyoj ortyapti. Shu nuqtayi nazardan, raqamli ta’lim inson salohiyatini rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon boʻladi.

## METODOLGIYA

Inson salohiyati – bu faqatgina alohida shaxsning individual imkoniyatlari yig‘indisidan iborat emas. U jamiyatning strategik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali tushuncha hisoblanadi. Inson salohiyati nafaqat shaxsiy taraqqiyotni ta’minlovchi omil, balki ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish uchun muhim strategik resursdir. Uning samarali rivojlanishi mamlakat taraqqiyoti va barqaror kelajagining asosiy kafolatlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Zamonaviy sharoitda ushbu salohiyatni rivojlantirish jarayoni bevosita raqamlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Raqamli texnologiyalar insonning bilim olish, axborotga ega bo‘lish, kasbiy malakasini oshirish va ijodiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamlashtirish natijasida ta’lim tizimi transformatsiyaga uchrab, inson kapitalini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, raqamli ta’lim platformalari orqali bilim olishning ommaviylashuvi, uzluksiz ta’lim konsepsiyasining rivojlanishi inson salohiyatining yanada samarali namoyon bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitda mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlar shakllanib, shaxsning raqobatbardoshligi ortmoqda.

Raqamlashtirish jarayonlari va raqamli ta’limning inson salohiyatini rivojlantirishga ta’sirini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini inson kapitali nazariyasi (G.Becker, T.Schultz), innovatsion rivojlanish nazariyasi, raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi hamda ta’lim sohasidagi transformatsiya jarayonlarini izohlovchi zamonaviy ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda raqamli ta’lim inson salohiyatini shakllantirishning strategik omili sifatida qaralib, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan o‘zaro bog‘liqligi dialektik yondashuv asosida tahlil qilindi. Ushbu yondashuv raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanish dinamikasi, ziddiyatlari va transformatsiya mexanizmlarini ochib berish imkonini berdi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan UNESCO va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli ta’limning inson kapitali sifatini oshirish, ta’limda teng imkoniyatlarni ta’minlash va ijtimoiy mobillikni kuchaytirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlangan [1]. Biroq raqamli ta’limni joriy etish jarayonida raqamli tengsizlik, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi va axborot xavfsizligi kabi muammolar ham mavjud bo‘lib, ular ilmiy tahlilni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda raqamlashtirish va raqamli ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda ta’lim tizimida elektron platformalarning joriy etilishi inson salohiyatini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlardan dalolat beradi. Shu bilan birga, raqamli ta’limning inson salohiyatiga ta’sirini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda.

**ASOSIY QISM**

Inson salohiyatini yuksaltirishda ta’lim o‘rni, muhim va hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ta’lim – insonning aqliy, ma’naviy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish, unga kasbiy, ijtimoiy va madaniy salohiyat berish vositasidir. Ziyoli, bilimdon va fikrlaydigan avlodni shakllantirish inson kapitali sifatida jamiyat taraqqiyotining asosiy resursiga aylanadi. BMT Taraqqiyot Dasturining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, ta’lim inson salohiyatini shakllantiruvchi asosiy va strategik komponentlardan biri hisoblanadi [2]. Ta’lim insonga faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki uning intellektual salohiyatini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda shaxsiy salohiyatini to‘liq namoyon etish imkonini yaratadi. Ayniqsa, uzluksiz ta’lim tizimi orqali shaxs o‘z qobiliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashishi va raqobatbardosh kadr sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topishi mumkin. Ta’lim shu jihatdan inson salohiyatining mehnat kapitaliga transformatsiyasida ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Shu bilan birga, ta’lim sohasidagi tenglik, sifatli ta’limga barcha qatlamlar uchun yetarli va adolatli imkoniyat yaratilishi inson salohiyatining umummilliy darajada yuksalishi uchun muhim sharoit hisoblanadi.

Taniqli iqtisodchi T.Shuls ta’limni inson kapitaliga yo‘naltirilgan muhim investitsiya sifatida baholab, uni iqtisodiy o‘sishning asosiy manbai deb hisoblaydi [3]. Uning fikricha, har bir shaxs muayyan tug‘ma qobiliyatlar bilan dunyoga keladi, ammo bu qobiliyatlar faqatgina sifatli va tizimli ta’lim orqali rivojlantirilishi mumkin. Ta’lim insonga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy hayotda

foydalanish imkonini beradigan koʻnikmalarni ham beradi, shu orqali shaxs mehnat bozorida oʻz oʻrnini topadi va iqtisodiy faollikka hissa qoʻshadi. Mazkur nuqtayi nazarni V.L.Kvint ham qoʻllab-quvvatlaydi. U taʼkidlaydiki, «barcha strategik oʻzgarishlarning asosiy va yakuniy tayanch nuqtasi – bu shaxsning oʻzi boʻlib, unga shart-sharoit yaratish intellektual rivojlanish, hissiy barqarorlik va moddiy farovonlikni taʼminlash bilan chambarchas bogʻliqdir» [4]. Bu qarash taʼlimning faqat shaxsiy rivojlanish uchun emas, balki jamiyat va davlat miqyosidagi strategik taraqqiyot uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga egaligini koʻrsatadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samarali taʼlim yondashuvlarini shakllantirish va oʻqitish metodikasini takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Ayniqsa, raqamlashtirish hamda axborot texnologiyalarining qoʻllanilishi talabalarning oʻqishga boʻlgan qiziqishini oshiradi, vaqtni tejash imkonini beradi hamda interaktiv va koʻrgazmalar orqali oʻquv materialini yanada aniqroq tushunish va chuqurroq oʻzlashtirishga yordam beradi.

Axborot texnologiyalari va raqamlashtirishning taʼlim jarayonidagi asosiy pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, jumladan, ijodiy va mantiqiy-izlanish tafakkurini shakllantirish, shuningdek, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;
- murakkab va noanʼanaviy vaziyatlarda mustaqil hamda samarali qaror qabul qilish koʻnikmalarini rivojlantirish;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bogʻliq malaka va koʻnikmalarni takomillashtirish.
- Taʼlim jarayonida raqamlashtirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish yoʻnalishlari keng qamrovli boʻlib, ular faqatgina turli pedagogik dasturiy vositalarni (oʻqituvchi, diagnostik, nazorat qiluvchi, modellashtiruvchi, trenajyor va oʻyin dasturlari) yaratish bilan cheklanib qolmaydi. Shu bilan birga, oʻquv maqsadlariga xizmat qiluvchi veb-saytlar ishlab chiqish, metodik va didaktik materiallar tayyorlash, real obyektlarni (masalan, oʻquv robotlarini) boshqarish, virtual modellar asosida kompyuter tajribalarini tashkil etish va oʻtkazish kabi yoʻnalishlarni ham oʻz ichiga oladi.
- Axborot texnologiyalaridan foydalanishda shaxsning barcha imkoniyatlarini bilish, axloqiy-ruhiy, ijodiy, kommunikativ va estetik salohiyatlarini toʻliq rivojlantirishga intilish zarur. Hozirgi kunda ayniqsa multimedia vositalari qoʻllanilgan integratsiyalashgan darslar keng tarqalgan. Taʼlimiy prezentatsiyalar oʻquv jarayonining ajralmas qismiga aylangan boʻlsa-da, bu axborot texnologiyalaridan foydalanishning eng sodda koʻrinishlaridan biridir.
- Soʻnggi yillarda oʻqituvchilar tomonidan muayyan fan sohasini aks ettiruvchi, uni oʻrganish texnologiyalarini qisman ifodalovchi hamda turli oʻquv faoliyatlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi mualliflik pedagogik dasturiy vositalar yaratilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish va ularni yuqori darajada roʻyobga chiqarish uchun esa oʻqituvchilarning axborot-taʼlim texnologiyalarini puxta egallagan boʻlishi, yaʼni yuqori darajadagi pedagogik kompetensiyaga ega boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogning professional axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kompetentsiyasiga erishishning optimal modeli quyidagi omillarni uygʻunlashtirish orqali taʼminlanadi:

- davlat taʼlim standartlarining amal qilishi (har qanday taʼlim darajasi uchun);
- yetarli texnologik bazaning mavjudligi: keng polosali internet, mobil kompyuterga doimiy kirish imkoniyati, taʼlim muassasalarining raqamlashtirilganligi;
- oʻqituvchida va taʼlim muassasasi rahbariyatida davlat taʼlim standartlarini amaliyotga joriy etishga boʻlgan haqiqiy intilish va mahalliy normativ hujjatlarni qabul qilish, jamoaning axborot muhitida samarali ishlashini taʼminlash;
- pedagogning malakasini oshirish tizimida asosiy AKT va raqamlashtirishdagi kompetentsiyalarni egallash va uning faoliyati ekspert baholash orqali sertifikatlash;
- oʻqituvchining oʻz-oʻzini rivojlantirish va AKT kompetentsiyasini mustaqil oshirishga boʻlgan intilishi [5].

Shu tarzda, yuqoridagi omillar birgalikda pedagogning yuqori darajadagi AKT - kompetentsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi va zamonaviy taʼlim jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanishni taʼminlaydi.

Raqamlashtirish – axborotni raqamli shaklga oʻtkazish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali uni qayta ishlash, saqlash hamda uzatish jarayonidir. Ta’lim tizimida raqamlashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ta’lim resurslaridan keng va teng foydalanish imkonini beradi (onlayn platformalar, masofaviy ta’lim);
- individual yondashuvni kuchaytiradi, ya’ni har bir oʻquvchining ehtiyoji va qobiliyatiga mos ta’limni tashkil etishga xizmat qiladi;
- ta’lim sifatini oshiradi, interaktiv usullar va raqamli vositalar orqali bilimni chuqurroq oʻzlashtirishga yordam beradi;
- uzluksiz ta’limni qoʻllab-quvvatlaydi, ya’ni inson hayoti davomida bilim va koʻnikmalarni yangilab borish imkonini yaratadi;
- boshqaruv va monitoring jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Natijada, raqamlashtirilgan ta’lim tizimi nafaqat bilim berish jarayonini takomillashtiradi, balki inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion fikrlashni shakllantirish va jamiyatning barqaror iqtisodiy oʻsishini ta’minlashda muhim omilga aylanadi.

Raqamlashtirishning ta’lim tizimiga ta’sirini bir necha yoʻnalishlarda koʻrib chiqish mumkin.

Birinchidan, bu jarayon ta’lim dasturlari bitiruvchilariga qoʻyiladigan talablarning tubdan yangilanishi bilan bogʻliq boʻlib, ayniqsa ularning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga boʻlgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bugungi kunda nafaqat nazariy bilim, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish koʻnikmalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchidan, ushbu jarayon oliy ta’lim muassasalarining ichki faoliyat muhiti ham raqamli asosga oʻtayotgani bilan tavsiflanadi. Universitetlarning tashqi hamkorlar bilan aloqalari kengayib borayotgani, ta’lim muassasalari oʻrtasida sogʻlom raqobatning kuchayishi hamda ta’lim dasturlarini tezkor ravishda yangilash zarurati ularni yangi texnologik sharoitlarga moslashishga undamoqda. Shu bilan birga, zamonaviy talabalar ehtiyojlariga mos innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish ham muhim omil hisoblanadi [6].

Oʻzbekiston ta’lim tizimini raqamlashtirish, onlayn ta’lim platformalarini rivojlantirish, elektron resurslardan foydalanishni kengaytirish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, yoshlarning raqamli koʻnikmalarini rivojlantirish hamda ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ta’lim tizimini zamonaviy texnologik oʻzgarishlarga mos holda takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekistonda ham ta’lim tizimini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Soʻnggi yillarda mamlakatimizda “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda [7]. Xususan, maktablar va oliy ta’lim muassasalarida elektron ta’lim platformalari, masofaviy oʻqitish tizimlari, elektron kutubxonalar va onlayn kurslar joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, oʻquv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish hamda ta’lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud boʻlib, ular qatoriga hududlar oʻrtasida raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanganligi, internet tezligi va sifati bilan bogʻliq masalalar, shuningdek, ayrim aholi qatlamlarida raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi kiradi. Bu esa ta’limda inklyuzivlikni toʻliq ta’minlash uchun qoʻshimcha chora-tadbirlarni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’limning insoniy rivojlanishga qoʻshayotgan hissasi uzluksiz, sifatli va inklyuziv ta’lim tizimiga ega boʻlgan jamiyatlarda yanada yaqqol namoyon boʻladi. Bunday tizimlar inson salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqarish, shaxsiy imkoniyatlarni amaliy salohiyatga aylantirish hamda iqtisodiy foyda yaratish uchun mustahkam zamin yaratadi. Aynan shu jarayonda raqamlashtirish muhim omil sifatida namoyon boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasida raqamli ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Xususan: Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonunita’lim jarayonida

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni qonuniy asosda belgilab berdi [8]. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida raqamli ta’limni rivojlantirish, elektron ta’lim platformalarini joriy etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Oliy ta’lim muassasalarida HEMIS, maktab ta’limida kundalik.com tizimlarining joriy etilishi raqamli boshqaruv va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, pandemiya davrida masofaviy ta’lim tizimining joriy etilishi raqamli infratuzilmaning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatdi. Elektron darslar va videokonferensiya orqali ta’lim jarayonining uzluksizligi ta’minlandi. Bu esa inson salohiyatining inqiroz sharoitida ham rivojlanishi mumkinligini isbotladi. Shu bilan birga, raqamli ta’limda qator muammolar mavjud:

- raqamli tengsizlik;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi;
- axborot xavfsizligi masalalari.

Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat-xususiy sheriklik, pedagoglarni qayta tayyorlash va huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish zarur.

Raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ular orqali ta’lim jarayonini raqamlashtirish, boshqaruv tizimini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ta’lim sifatini global mehnat bozori talablariga moslashtirish mumkin. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida raqamli texnologiyalarni joriy etish strategik vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan sun’iy intellekt texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. U ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, ta’lim natijalarini prognozlash va avtomatik baholash tizimlarini shakllantirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Texnologiya hamma narsalarni murakkablashtiradi. Algoritmlar va kontent (mazmun)ni shaxsiylashtirish bizni ma’lumot pufakchalariga eltib qo‘yadi. Bu foydalanuvchi faqat o‘zi yoqtirgan kontentni ko‘radigan holat. Ijtimoiy tarmoqlar (Youtube, Telegram, Facebook va hakozolar), qidiruv tizimlari (Google, Yahoo, Yandex, Rambler kabilar) va cheksiz ilovalarning algoritmlari – afzalliklar, qidiruv tarixi, joylashuvi va boshqa foydalanuvchi ma’lumotlarini tahlil qiladi [9].

Axborot nazariyasida axborotning qanchalik foydali ekani va maqsadga yo‘naltirilganligiga urg‘u beradigan pragmatik jihat kuchli tavsiflab berilgan. Bu qarashga ko‘ra axborotning foydalilik me’yori uning mavhumlik me’yoriga bog‘liq bo‘lib, agar xabar olish jarayonida iste’molchi ongidagi muayyan masala bo‘yicha mavhumlik o‘zgarsa, axborotning foydaliligi xabar olingungacha bo‘lgan va undan keyingi mavhumlik o‘rtasidagi farqqa teng bo‘ladi [10].

Mazkur yondashuvni inson salohiyati bilan bog‘lab qaraydigan bo‘lsak, axborotning foydaliligi bevosita shaxsning rivojlanish darajasi va uning bilimlarni qabul qilish, tahlil qilish hamda amaliyotga tatbiq etish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, u axborotni shunchalik samarali qayta ishlaydi va undan real natija chiqaradi. Axborot orqali mavhumlikning kamayishi esa insonning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ya’ni, yangi bilimlar egallanishi natijasida noaniqliklar bartaraf etilib, qaror qabul qilish jarayoni yanada aniq va asosli bo‘lib boradi. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki uning kasbiy va ijtimoiy faoliyatida ham samaradorlikni oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, raqamlashtirish jarayonida taqdim etilayotgan axborotning sifati va maqsadga yo‘naltirilganligi inson salohiyatini rivojlantirishda hal qiluvchi omilga aylanadi. Chunki faqat mazmunli, tizimli va foydali axborotgina shaxs ongidagi mavhumlikni kamaytirib, uning bilim darajasini oshiradi. Natijada esa inson kapitali yuksalib, jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Inson salohiyati – bu faqatgina ta’lim orqali emas, balki umrbod o‘qish, kasbiy rivojlanish, shaxsiy salohiyatni amaliy ko‘nikmaga aylantirish jarayonlari orqali yuksaladi. Shunday ekan, ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi, imkoniyatlarni kengaytiruvchi va shaxsni jamiyatda faol fuqaroga aylantiruvchi muhitni yaratishi zarur.

Raqamli ta'lim texnologiyalari — bu ta'lim jarayonida elektron vositalar, internet resurslari, multimedia texnologiyalari, masofaviy o‘qitish tizimlari, virtual platformalar hamda interaktiv o‘quv dasturlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, bilimlarni tezkor yetkazish va ta'lim jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi. Raqamli ta'lim muhiti orqali talabalar mustaqil bilim olish, o‘z ustida ishlash va bilimlarini mustahkamlash

imkoniyatiga ega boʻladi. Shu bilan birga, oʻqituvchi va talaba oʻrtasidagi axborot almashinuvi tezlashadi hamda ta'lim samaradorligi oshadi [11].

Shuningdek, ta’lim faqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash vositasi boʻlibgina qolmasdan, balki inson huquqlari, teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat va shaxsiy erkinliklarni rivojlantirishda ham hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi. Ta’lim – insonning ongini shakllantirish, uning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, jamiyatdagi oʻzgarishlarni fahmlash va ularni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Bilimli shaxs oʻz huquq va majburiyatlarini yaxshi biladi, jamiyatdagi tenglik va adolat uchun kurasha oladi, fuqarolik jamiyatida faol ishtirokchiga aylanadi. Natijada, raqamlashtirilgan ta’lim muhiti nafaqat bilim berish vositasi, balki inson huquqlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishning samarali mexanizmiga aylanadi. Shu bois, ta’lim va raqamlashtirish uygʻunligi zamonaviy jamiyatda erkin fikrlaydigan, mas’uliyatli va faol fuqaroni shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon boʻladi.

**XULOSA**

Umuman olganda, Oʻzbekistonda ta’lim tizimini raqamlashtirish inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning zamonaviy bilim va koʻnikmalarini shakllantirish hamda mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda. Kelgusida ushbu yoʻnalishda tizimli va izchil islohotlarni davom ettirish orqali ta’limning sifatini yanada oshirish va uning insoniy rivojlanishga qoʻshayotgan hissasini kuchaytirish mumkin. Raqamlashtirish va raqamli ta’lim inson salohiyatini rivojlantirishning strategik omili hisoblanadi. Ilmiy tahlillar va amaliy misollar shuni koʻrsatadiki, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali intellektual, kasbiy va ijtimoiy salohiyatni sezilarli darajada oshirish mumkin. Davlat siyosati va huquqiy asoslar bilan uygʻunlashgan holda raqamli ta’lim barqaror taraqqiyotning muhim poydevoriga aylanadi.

**Adabiyotlar / Литература/ References:**


1. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000374309
2. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Тараққиёт Дастури. Human Development Report 2023: The Choice in the Age of AI. Нью-Йорк: UNDP, 2023.
3. Schultz T.W. (2012). The Economic Value of Education. New York: Columbia University Press. – 38 b. ISBN: 978-0231150650.
4. Квинт В. Л. Стратегическое управление и экономика на глобальном формирующемся рынке: учеб. пособие. – М.: Бизнес Атлас, 2012. – 627 с.
5. Картукова А. А. Цифровая образовательная среда как фактор профессионального развития педагога //Цифровая образовательная среда: новые компетенции педагога. – 2019. – С. 8.
6. Дерюгина И.А. Цифровые навыки студентов для цифрового мира [Текст] / И.А.Дерюгина // Тогу-старт: фундаментальные и прикладные исследования молодых. – 2020.
7. https://lex.uz/ru/docs/-5030957 “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.
8. https://lex.uz/docs/-5013007 Oʻzbekiston Respublikasining “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
9. Tuychiyev A. Raqamli texnologyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №.1. – С. 32-32.
10. Shermuhammadov B. va Raxmatov O. "Raqamli ta’lim muhitida bo ‘lajak o ‘qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi. Scientific journal of the Fergana State University 1 (2023): 1-1.
11. Xamroyeva M. D. Oliy ta'lim tashkilotkarida raqamli ta'lim texnologiyalarining oʻrni //Modern education and development. – 2026. – Т. 45. – №.3. – С. 244-249.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Ким Лариса,**
Алмалыкский филиал
национального исследовательского
технологического университета «МИСИС»
Республика Узбекистан,
старший преподаватель

# ВИРТУАЛЬНАЯ СОЦИОСФЕРА: ТРАНСФОРМАЦИЯ СТРУКТУРЫ И КУЛЬТУРЫ УЗБЕКСКОГО ОБЩЕСТВА

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируются актуальные проблемы формирования новой архитектуры социосферы в условиях современного развития Узбекистана, включая становление ее виртуального сегмента, трансформацию культуры и расширение пространства виртуальной коммуникации. Отмечается переход к виртуальным формам социального взаимодействия, в рамках которых формируются новые социальные сети и поля, не всегда совпадающие с традиционными стратификационными и культурно-идентификационными моделями, характерными для узбекского общества. Показаны изменения в системе социальных отношений, институтах, образовании, сфере обслуживания и на рынке труда, а также трансформация роли культуры в условиях глобальной нестабильности и ускоренной цифровизации.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, сетевое общество, виртуальное одиночество, риски, коммуникация, ценности.

---

**Kim Larisa,**
O‘zbekiston Respublikasi
“MISIS” Milliy tadqiqot texnologiya
universitetining Olmaliq filiali,
katta o‘qituvchi

# VIRTUAL SOTSIOSFERA: O’ZBEKISTON JAMIYATI TUZILMASI VA MADANIYATINING TRANSFORMATSIYASI

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O'zbekistonning zamonaviy rivojlanishi kontekstida yangi sotsiosfera arxitekturasini shakllantirishning dolzarb muammolari, jumladan, uning virtual segmentini rivojlantirish, madaniyatning o‘zgarishi va virtual aloqa makonining kengayishi tahlil qilingan. Ijtimoiy o‘zaro ta’sirning virtual shakllariga o‘tish qayd etilgan, bunda har doim ham O‘zbekiston jamiyatiga xos bo‘lgan an’anaviy tabaqalanish va madaniy-identifikatsiya modellariga mos kelmaydigan yangi ijtimoiy tarmoqlar va sohalar paydo bo‘lmoqda. Unda ijtimoiy munosabatlar, institutlar, ta’lim, xizmat ko‘rsatish sohasi va mehnat bozori tizimidagi o‘zgarishlar, shuningdek,

global beqarorlik va tezlashtirilgan raqamlashtirish sharoitida madaniyat rolining oʻzgarishi oʻrganilgan.

**Kalit soʻzlar:** raqamli transformatsiya, tarmoq jamiyati, virtual yolgʻizlik, xavflar, muloqot, qadriyatlar.

---

**Kim Larisa,**
Almalyk branch of the National Research
Technological University "MISIS"
Republic of Uzbekistan,
Senior Lecturer

# VIRTUAL SOCIOSPHERE: TRANSFORMATION OF THE STRUCTURE AND CULTURE OF UZBEK SOCIETY

**ABSTRACT**

This article analyzes the current challenges of shaping a new sociosphere architecture in the context of Uzbekistan's contemporary development, including the development of its virtual segment, the transformation of culture, and the expansion of virtual communication space. The article emphasizes that in the process of transitioning to virtual forms of social interaction, new social networks and fields are emerging that do not always align with the traditional stratification and cultural-identification models characteristic of Uzbek society. It examines changes in the system of social relations, institutions, education, the service sector, and the labor market, as well as the transformation of the role of culture in the context of global instability and accelerated digitalization.

**Keywords:** digital transformation, network society, virtual loneliness, risks, communication, values.

---

## ВВЕДЕНИЕ

На современном этапе формируется новая виртуализированная социокультурная среда, основанная на качественно ином уровне коммуникационных процессов [6,7,9,13,14]. Существенные изменения претерпевают социально-экономические структуры [2], механизмы социального управления, а также формы и интенсивность социальных взаимодействий.

Трансформируются рынок труда и структура занятости населения, усиливается глобализация экономических и культурных процессов, нивелируются национальные барьеры и коммуникационные ограничения. Вместе с тем теоретическое осмысление специфики взаимодействия в виртуальном пространстве пока не обладает достаточной степенью концептуальной разработанности.

Указанные процессы в полной мере проявляются в Узбекистане, где в последние годы реализуются масштабные социально-экономические реформы, направленные на модернизацию государственного управления, цифровизацию экономики, развитие системы образования и укрепление гражданского общества. Активное внедрение электронных государственных услуг, развитие цифровой инфраструктуры, расширение интернет-пространства и интеграция в глобальные информационные потоки формируют новые условия функционирования национальной социосферы [1].

В этих условиях меняются не только институциональные структуры, но и культурно-ценностные основания общественной жизни. Усиливается роль молодежи как ключевого субъекта цифровых трансформаций, трансформируются модели профессиональной социализации, расширяются возможности дистанционной занятости и онлайн-образования. Одновременно обостряются вопросы цифрового неравенства, информационной безопасности, сохранения культурной идентичности и духовно-нравственных ориентиров в условиях глобального виртуального пространства.

Для Узбекистана особое значение приобретает поиск баланса между модернизацией и сохранением историко-культурной преемственности. Виртуализация общественных процессов не отменяет значимости традиционных ценностей, а требует их переосмысления и

адаптации к новым реалиям. В этом контексте актуализируется проблема формирования устойчивой модели развития, способной обеспечить гармонизацию технологических инноваций, экономического роста и духовного развития личности.

Недостаточная теоретическая разработанность феномена виртуальной социосферы, а также необходимость учета национально-культурной специфики трансформационных процессов предопределяют актуальность данной темы. Формирование и концептуальное обоснование социосферной стратегии развития современного общества должна быть одной из приоритетных задач исследований, направленных на выработку долгосрочных ориентиров устойчивого и безопасного будущего Узбекистана.

**МЕТОДОЛОГИЯ**

Исследование трансформации социосферы, виртуальной культуры и ценностных изменений в условиях цифровизации опирается на комплекс методов. Идеи постиндустриального и информационного общества развивали Дэниел Белл [3] и Элвин Тоффлер [10], рассматривая переход к экономике знаний и усиление роли информации как стратегического ресурса.

Теоретической основой анализа цифровой среды как новой формы социальной реальности послужили концепции сетевого общества Мануэля Кастельса [14, 15], теории медиатизации и цифровой публичной сферы Юргена Хабермаса [11], а также структурной трансформации социального пространства в логике теории поля Пьера Бурдье [5]. Это позволило рассматривать виртуальную социосферу не как автономный сегмент, а как интегрированную часть общественной системы.

Рассмотрение социосферы как целостной системы, включающей экономическую, социальную, культурную и виртуальную подсистемы, осуществлялось с применением системного анализа [4]. Данный подход обеспечил выявление структурных взаимосвязей между институтами цифровой экономики, образования, культуры и информационной среды. Структурно-функциональный метод, основанный на положениях Талкотта Парсонса [8], позволил определить функции цифровых платформ, образовательных институтов и культурных практик в обеспечении социальной интеграции и устойчивости общества.

Историко-сравнительный анализ применялся для сопоставления этапов модернизации Узбекистана с глобальными процессами цифровизации, описанными в работе **Ульриха Бека** [16]. Это позволило выявить специфику национального пути в контексте глобальных рисков и сетевых трансформаций.

Анализ национальной модели развития с учетом культурной самобытности и глобальных вызовов осуществлялся на основе цивилизационного подхода [12], что обеспечило рассмотрение цифровизации как процесса, взаимодействующего с историко-культурными основаниями общества.

Эмпирическая часть исследования включала анализ статистических данных о цифровизации, занятости и образовательной динамике на основе официальных источников [17]. Контент-анализ цифровых платформ и социальных сетей проводился с опорой на методологию исследования сетевой коммуникации Нормативно-правовой анализ базировался на изучении стратегических документов цифрового развития, включая государственные программы, цифровой трансформации и концепции развития образования и информационной безопасности Республики Узбекистан [1], а также международные рекомендации UNESCO по цифровой грамотности и устойчивому развитию.

Таким образом, исследование трансформации социосферы в Узбекистане строилось на интеграции теоретического анализа и эмпирических данных, с опорой на национальные особенности и глобальные тенденции цифровой эпохи.

**ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ**

На современном этапе сформировалось глобальное коммуникационное пространство, функционирующее в виртуальной среде и оказывающее существенное влияние на все аспекты общественной и индивидуальной жизни. Общество характеризуется интенсивным развитием гетерогенных сетевых структур, объединяющих индивидов, организации, регионы и

государства, что ведет к трансформации экономики, науки, образования, политики и других сфер. В этих условиях сетевая логика становится ключевым принципом организации социальной реальности, а коммуникация – важнейшим ресурсом власти и инструментом конструирования общественных смыслов.

Усложнение структуры общества сопровождается формированием виртуального сегмента социосферы, где социальные связи выстраиваются не только по стратификационным признакам, но и по принципу сетевого взаимодействия. Виртуальная среда расширяет возможности индивида, частично нивелируя пространственные ограничения, однако не заменяет материальную реальность, а сосуществует с ней, трансформируя формы идентификации, самопрезентации и социального участия. Одновременно усиливаются риски цифрового неравенства, информационной перегрузки и фрагментации личностной идентичности.

В результате можно констатировать усложнение социосферной структуры современного общества и формирование ее виртуального компонента. Если ранее социальное пространство преимущественно интерпретировалось через стратификационные модели и культурно обусловленные различия социальных групп, то в условиях виртуализации социосфера структурируется на основе сетевых связей и социальных полей, не всегда жестко коррелирующих с классическими формами социальной стратификации и культурной идентичности. Виртуальная среда в значительной степени формируется межличностными взаимодействиями и связанными с ними нормами и обязательствами.

В числе ключевых вызовов современности особое место занимает стремительное и масштабное внедрение глобальных цифровых технологий и телекоммуникационных систем в повседневную жизнь. Под влиянием виртуального пространства, которое трансформирует потребности, мотивы и модели поведения, изменяется социальная и профессиональная структура общества.

Процессы всеобщей компьютеризации и формирование единого информационного пространства человечества способны стать мощным фактором раскрытия творческого потенциала личности. Освобождение специалистов естественно-научной, гуманитарной, художественной и иных сфер от рутинных и формально-вспомогательных операций, передаваемых техническим системам, создает предпосылки для концентрации усилий на собственно творческой деятельности.

Формирование виртуальной социосферы обусловило трансформацию миссии образования, которое оказалось в эпицентре научно-технической и информационно-коммуникационной революции. Сформировавшийся виртуальный образовательный рынок в определенной степени конкурирует с традиционными институтами, а в ряде случаев – замещает их, демонстрируя более высокий уровень мотивационной привлекательности для молодежи. Он в большей степени отвечает запросам на освоение профессий, связанных с высокими технологиями, и отражает специфику молодежного сегмента виртуальной социосферы, в котором доминируют цифровые практики и новые формы образовательной активности. Это усиливает требования к качеству и содержанию университетских программ.

В этих условиях возрастает потребность в разработке глобальной стратегической модели («дорожной карты») развития образования, предполагающей его более глубокую интеграцию в виртуальную социосферу. Отсутствие четко артикулированных ценностных оснований и согласованной социосферной стратегии развития, чревато нарастающим технологическим и культурным отставанием. Некритичное заимствование внешних моделей без учета социокультурного контекста, свидетельствуют о рисках стратегической несбалансированности. Вопрос о содержании и методах обучения, обеспечивающих достойное и безопасное будущее новых поколений, остается по-прежнему открытым.

Особую значимость приобретает проблематика взаимодействия человека и систем искусственного интеллекта. Кибератаки, несанкционированный доступ к данным, манипуляции в финансовых системах и иные цифровые угрозы формируют новую зону уязвимости, способную иметь масштабные последствия для общества.

Современная эпоха характеризуется ускорением темпов изменений и информационной перегрузкой, что осложняет долгосрочное прогнозирование. Эффективная адаптация к трансформационным процессам возможна лишь при наличии целостного видения будущего и ценностно ориентированной модели общественного развития. Возникает потребность в концептуальной ясности относительно типа общества, в котором осуществляется жизнедеятельность, и стратегий достижения желаемых сценариев будущего.

Наряду с технологическими вызовами обостряется вопрос о состоянии самого человека – его сознания, мировоззренческих установок и нравственных ориентиров. Ограниченность современных представлений о функционировании человеческого мозга свидетельствует о сложности моделирования интеллекта более высокого порядка. При этом существует риск несоразмерности научно-технического прогресса и нравственного развития, что способно усилить цивилизационные противоречия.

Техногенная цивилизация, повысив уровень жизни и расширив возможности развития науки, образования и культуры, вместе с тем породила масштабные кризисы и угрозы, актуализировав проблему выживания человечества. В этих условиях становится необходимой переориентация потребительской модели развития на принципы сохранения биосферы, саморазвития личности и утверждения биоантропоцентрической парадигмы мышления, предполагающей гармонизацию отношений человека, общества и природы.

С усложнением социосферы и институционализацией ее виртуального сегмента требуется развитие адекватной виртуальной культуры.

В этом плане особую актуальность приобретает анализ виртуальной культуры как нового феномена, формирующегося на пересечении цифровых технологий и традиционных духовных практик. При этом духовная сфера жизни общества, включая ее ценностные и мировоззренческие основания, остается сравнительно недостаточно изученной, несмотря на ее системообразующее значение. Для Узбекистана, реализующего стратегию масштабных реформ и модернизации, культура выступает не только фактором сохранения исторической преемственности, но и ресурсом устойчивого развития. Ее значение проявляется в способности интегрировать многовековое наследие, национальные традиции и современные инновационные практики. В условиях отсутствия жестко заданной идеологической модели именно культура может выполнять функцию духовно-ценностной платформы, способствующей укреплению общегражданской идентичности, межнационального согласия и социальной консолидации.

В условиях цифровизации и расширения виртуального сегмента социосферы в Узбекистане наблюдается и сокращение потребности в непосредственном межличностном взаимодействии. Интернет и социальные сети интегрируют индивида в глобальные коммуникационные потоки, формируя феномен «виртуального одиночества».

Виртуальное пространство также способно формировать специфические риски, возникающие в ходе повседневных практик, особенно среди молодежи, чей социальный опыт пока невелик и ограничен. Прежде всего следует выделить риски, затрагивающие личностную сферу. Взаимодействие человека с цифровыми технологиями способно влиять на внутренние структуры личности и идентичности, что свидетельствует о заметных процессах виртуализации человека и его деятельности в современном узбекском обществе.

К числу особых рисков относится нестабильность личностной идентичности, её незавершённость или «размытость», приобретающая устойчивый характер. Современный человек неизбежно существует одновременно в двух измерениях – социальном и виртуальном, что способствует формированию качеств, позволяющих адаптироваться к такому двойственному бытию. Однако самосознание по своей природе стремится к целостности и внутренней согласованности; при её отсутствии возникает внутреннее напряжение и дисгармония, следствием чего может стать формирование «псевдоидентичности».

Возникают новые вопросы: каким образом цифровая среда влияет на эмоциональное состояние личности, трансформирует социальные институты – семью, образование, труд, религиозные практики, формы общественного участия? Как изменяется культурный код

человека в условиях глобальной нестабильности и информационной перегрузки? В этом контексте актуализируется направление «экология цифрового пространства», ориентированное на анализ влияния цифровых технологий на когнитивные процессы, психическое здоровье и информационную безопасность.

С другой стороны, формирующаяся виртуальная культура осуществляет селекцию и трансляцию социального опыта, задает категориальные рамки мышления новой эпохи, формирует образ жизненного мира и ценностные ориентиры части общества, активно включенной в цифровое пространство. Именно эта социально активная группа во многом определяет направление и содержание общественных изменений. В виртуальной коммуникации возникают «точки роста» новых смыслов, где традиционные ценности адаптируются к современным условиям и получают иное интерпретационное наполнение.

Процесс обновления «матрицы ценностей» предполагает сложный выбор между сохранением традиционных норм и восприятием новых ориентиров. Вопрос о том, какие элементы культурного наследия подлежат сохранению, а какие требуют трансформации, становится стратегическим. Поиск «точек роста» новых ценностей внутри современной техногенной цивилизации выступает важнейшей задачей философского и социологического анализа.

Виртуальная коммуникация оказывает существенное воздействие на формирование мировоззрения, поведенческих установок, национальной и культурной идентичности личности. События последних десятилетий демонстрируют возрастающее влияние цифровых платформ на общественное сознание и социальную динамику. В этих условиях выстраивание безопасного будущего предполагает не только технологическую модернизацию, но и сохранение биосферы как основы выживания, переоценку фундаментальных принципов общественного развития, утверждение приоритета человеческой жизни, культуры, науки и образования.

Будущее социосферы Узбекистана формируется уже сегодня – в процессе реформ, цифровизации и культурного переосмысления. Преодоление вызовов и рисков неизбежно приведет к становлению качественно новой социальной реальности, конфигурация которой будет определяться балансом между инновацией и традицией, технологическим прогрессом и духовно-нравственными основаниями развития.

## ВЫВОДЫ

Secondly, it is necessary to provide an understanding of teaching methods and assessment criteria in Chinese universities, particularly regarding the syllabus, continuous assessment, and rules of academic integrity. In the preparation processes, special attention must be paid to the rules of academic integrity. In China, this is referred to as 学术诚信 (xuéshù chéngxìn) – "academic honesty / academic integrity".

Furthermore, China has a regulatory framework concerning academic misconduct. Specifically, the Ministry of Education's document "Measures for the Prevention and Handling of Academic Misconduct in Institutions of Higher Education" (Ministry of Education Decree No. 40, 2016) establishes the procedures for preventing and reviewing plagiarism, falsification, and other violations in higher education institutions. Additionally, the "Academic Degrees Law of the People's Republic of China" stipulates that degrees may not be granted, or may be revoked, in cases involving academic misconduct such as 代写 (dài xiě - ghostwriting), 剽窃 (piāoqiè - plagiarism), and 伪造 (wèizào - falsification) of dissertations or practical results [8, – P.11-14].

**CONCLUSION**

Based on the conclusions drawn above, we can infer the following: Firstly, the development of educational migration today is connected not only to young people acquiring new knowledge but also to their adaptation to the education system of the host country. After all, the rules of academic etiquette have unique characteristics for each country. The adaptation of today's Uzbek youth to the People's Republic of China also comprises several stages. These stages require young people not only

to know the Chinese language but also to learn the specific type of academic communication [9, – P.2].

Secondly, it is necessary to develop additional competencies required in the academic activities of students going to China for education. Specifically, this includes the student's ability to manage their emotional state during academic activities, to demonstrate their abilities throughout their studies, alongside the need for social adaptability [10, – P.4]. To develop these competencies in young people, it would be appropriate to design “Pre-departure” preparation programs specifically for students who have been admitted to study in the People’s Republic of China.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**


1. Pei W, Chen Y. Academic adaptation: Mediating the relationship between intercultural sensitivity and life satisfaction in international postgraduate students in China. Vocat Tech Edu. 2025;2(3). doi:10.54844/vte.2025.0990
2. Academic Adaptation of International Students in China: Evidence from the Grounded Theory and Structure Equation Model.Junqi Zhu, Mengdi Gu, Li Yang, Shoukui Xun, Ming Wan and Jie Li Sustainability 2023, 15(1), 692; https://doi.org/10.3390/su15010692. This article belongs to the Special Issue Individual and Socio-cultural Factors on Language and Academic Achievement to Promote PK-16 Educational Sustainability
3. 张春梅 李晓梅 新疆农业大学中国语言文学与艺术学院 （张春梅：硕士学位，副教授，新疆农业大学 xndzhangchunmei@126.com 李晓梅：硕士，讲师，浙江大学在读博士，1457356101@qq.com）
4. Marginson, S. Student self-formation in international education.Journal of studies in international education 18 (1), 6-22 https://www.studyaustralia.gov.au
5. https://www.advance-he.ac.uk/
6. Teichler, U.Internationalisation trends in higher education and the changing role of international student mobility. International mobility: brain drain, brain gain. Journal of International Mobility 2017/1 No 5 https://doi.org/10.3917/jim.005.0179
7. Yonezawa, A.Japan's challenge of fostering "global human resources": policy debates and practices/ Education, Political Science, Economics/ 2014. DOI:10.4324/9781315690278-3Corpus ID: 155441300
8. 《高等学校预防与处理学术不端行为办法》(“Олий таълим муассасаларида академик қоидабузарликни олдини олиш ва кўриб чиқиш тартиби”, MOE – Таълим вазирлиги 40-сон буйруғи, 2016, 2016-09-01дан кучга кирган) http://www.moe.gov.cn/jyb_sjzl/sjzl_zcfg/zcfg_jyfl/202404/t20240426 _1127804.html?utm_source
9. Ward C., Bochner, S., & Furnham, A. (2001). The Psychology of Culture Shock. London: Routledge.
10. Andrade M.S. (2006). International students in English-speaking universities: Adjustment factors. Journal of Research in International Education, 5(2), 131–154. https://doi.org/10.1177/1475240906065589

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Ravshanbekova Xurshidabonu**,
O‘zbekiston Jurnalistikasi va Ommmaviy
Kommunikatsiyalar Universiteti magistranti
e-mail: xurshidabonuravshanbekova@gmail.com

# YANGI O’ZBEKISTONDA XALQ QABULXONALAR EVALUTSIYASINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Maqolada Yangi O‘zbekistonda xalq qabulxonalarining evolyutsiyasi hamda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharq mutafakkirlari merosi va G‘arb sotsiologik nazariyalari asosida mazkur institutning tarixiy ildizlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari yoritiladi. Xalq qabulxonalari davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida ilmiy jihatdan asoslanadi. Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temurlarning ta’limotlari va yondashuvlari bayon qilinadi. Bundan tashqari maqolada G’arb olimlaridan M.Veber, T.Parsons, Yu.Xabermas, D.Nort, F.Fukuyama va R.Putnam kabi olimlarning aholi murojaatlari bilan ishlashga doir nazariyalarining tahlili yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** davlat boshqaruvi, adolat, aholi murojaatlari, aktivlik, yondash, davlat va jamiyat muloqoti, demokratik tamoyil, ijtimoiy davlat, fuqaro, hisobdorlik, ijtimoiy institut, ijtimoiy ishonch, innovatsion yondashuv, institutsional yondashuv, kommunikativ harakat.

---

**Равшанбекова Хуршидабону,**
магистрант Университета журналистики и массовых
коммуникаций Узбекистана
e-mail: xurshidabonuravshanbekova@gmail.com

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭВОЛЮЦИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ ПРИЕМНЫХ ЦЕНТРОВ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется эволюция центров приема граждан в Новом Узбекистане и теоретические и методологические основы системы работы с обращениями граждан. Исследование освещает исторические корни и современные тенденции развития этого института, опираясь на наследие восточных мыслителей и западные социологические теории. Центры приема граждан научно обоснованы как важный социальный институт, обеспечивающий диалог между государством и обществом. Описываются учения и подходы таких восточных мыслителей, как Абу Наср аль-Фараби, Абу Райхан, Абу Али ибн Сина, Юсуф Хос Хаджиб, Низамульмульк, Амир Темур. Кроме того, в статье анализируются теории

западных ученых, таких как М.Вебер, Т.Парсонс, Ю.Хабермас, Д.Норт, Ф.Фукуяма и Р.Патнэм, о работе с обращениями граждан.

**Ключевые слова:** государственное управление, правосудие, общественные призывы, активизм, подход, диалог государства и общества, демократический принцип, социальное государство, гражданин, подотчетность, социальный институт, социальное доверие, инновационный подход, институциональный подход, коммуникативное действие.

---

**Ravshanbekova Khurshidabonu,**
Master's student at the University of journalism
and mass communications of Uzbekistan
e-mail: xurshidabonuravshanbekova@gmail.com

## THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE RESEARCH OF THE EVOLUTION OF PUBLIC RECEPTION OFFICES IN THE NEW UZBEKISTAN

**ABSTRACT**

This article analyzes the evolution of citizen reception centers in New Uzbekistan and the theoretical and methodological foundations of the system for handling citizen appeals. The study illuminates the historical roots and current trends in the development of this institution, drawing on the legacy of Eastern thinkers and Western sociological theories. Citizen reception centers are scientifically substantiated as an important social institution that facilitates dialogue between the state and society. The teachings and approaches of such Eastern thinkers as Abu Nasr al-Farabi, Abu Rayhan, Abu Ali ibn Sina, Yusuf Khos Hajib, Nizam al-Mulk, and Amir Temur are described. Furthermore, the article analyzes the theories of Western scholars such as Max Weber, Thomas Parsons, Joseph Habermas, David North, Frederick Fukuyama, and Robert Putnam on handling citizen appeals.

**Key words:** public administration, justice, social appeals, activism, approach, state-society dialogue, democratic principle, social state, citizen, accountability, social institution, social trust, innovative approach, institutional approach, communicative action.

---

### KIRISH

Davlat tushunchasi va davlatning oʻziga xos ahamiyati, uning vazifalari, uning paydo boʻlishi va rivojlanishi muammosi, siyosiy megastrukturaning markaziy elementi sifatida har doim turli qarashlar, ta'limotlar, konsepsiyalar va turli ilmiy yoʻnalishdagi koʻplab olimlarning diqqati va ilmiy izlanishlarining obyekti boʻlib kelgan. Rivojlangan davlatlar va zamonaviy olimlar tomonidan turli davrlar va turli asrlardagi davlatlarining siyosiy va ijtimoiy funksiyasini oʻrganishning dolzarbligi hozirgi zamon davlatlari uchun ham ahamiyatlidir. Davlat boshqaruvida yuz berayotgan islohotlar va siyosiy jarayonlar va shu asosda eng muhim ijtimoiy muammolarni hal etish boʻyicha takliflar ishlab chiqilishini ilmiy tushunish zarurati bilan bogʻliqdir.

Davlat – bu boshqaruv va majburlov aPparatiga ega boʻlgan siyosiy tashkilotdir. Davlat boshqaruvida etatik tuzilmalarning mavjud boʻlishi dastlabki monarxiya koʻrinishidagi davlatlarga xos xususiyat boʻlgan. Hozirgi davrda ham mutlaq monarxiya, sotsialistik, koʻrinishidagi davlatlarda ham etatik tuzilmalarga xos boʻlgan davlat boshqaruvi mavjud. Etatizm gʻoyalari antik davrda ijtimoiy tushunchalarga xos xususiyatga ega boʻlgan, biroq ular davlatning ma'lum ijtimoiy munosabatlar va harakatlar subyekti maqomiga ega boʻlgan shaxsga xos boʻlmagan ijtimoiy institut sifatidagi tushunchasining shakllanish xarakteriga ham ega boʻladi.

Etatiyzm fransuzcha soʻzdan olingan boʻlib, "étatisme – davlatchilik", état – davlat degan ma'nolarni anglatadi. Etatiyzm sotsiologik nazariya hisoblanib, bu nazariya davlatning jamiyatning iqtisodiy va siyosiy faoliyatiga aralashuviga asoslanadi. Etatizm davlatning jamiyat ishlariga qanchalik koʻp aralashuvi boʻlsa, jamiyat uchun shunchalik yaxshi boʻladi, degan tamoyilga asoslanadi, chunki davlat aksariyat ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir boʻlgan siyosiy institutdir. Jamiyatdagi mavjud muammolarni jamiyatning oʻzi hal qilolmagan taqdirda ushbu

muammolarni hal qilish uchun jamiyat davlatga murojaat qiladi va natijada etatik sharoit yuzaga keladi [1, – B.424].

**METODOLOGIYA**

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Amir Temurlarning davlat boshqaruvi, adolat, jamiyat va hukmdor mas'uliyati haqidagi qarashlari nafaqat oʻz davri uchun, balki zamonaviy boshqaruv nazariyalari uchun ham muhim nazariy manba hisoblanadi. Ularning asarlarida adolatli davlat, xalq bilan muloqot, boshqaruvning axloqiy asoslari va ijtimoiy barqarorlik masalalari chuqur yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotchilar Forobiyning qarashlarini normativ-siyosiy model sifatida baholaydilar va uni fuqaroga yoʻnaltirilgan boshqaruv konsepsiyasining tarixiy ildizi sifatida talqin qiladilar. Shu bilan birga Beruniy boshqaruv masalalarini ilmiy yondashuv asosida koʻrib chiqadi va davlat siyosatida adolat hamda ijtimoiy muvozanat muhim omil ekanini qayd etadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda olim qarashlari dalillarga asoslangan boshqaruv (evidence-based governance) konsepsiyasining tarixiy ildizlari bilan bogʻlanadi. Shu jumladan mutafakkir Ibn Sinoning qarashlarida inson kamoloti va jamiyat barqarorligi oʻzaro bogʻliq holda talqin qilinadi.Ibn Sino fikricha, davlat adolat va qonun ustuvorligiga asoslanishi zarur. Uning qarashlari boshqaruvning axloqiy legitimligi masalasini yoritishda muhim ahamiyatga ega va Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilig" asari davlat boshqaruvi boʻyicha didaktik-siyosiy qoʻllanma sifatida qaraladi. Asarda hukmdorning adolatli boʻlishi, xalq manfaatini ustuvor qoʻyishi va maslahatlashuv asosida boshqaruv yuritishi zarurligi ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar "Qutadgʻu bilig"ni Sharq siyosiy tafakkurining muhim manbasi sifatida baholab, undagi boshqaruv tamoyillarini zamonaviy ijtimoiy boshqaruv konsepsiyalari bilan qiyoslaydilar. Shuningdek, Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari davlat boshqaruvi amaliyotiga oid muhim tarixiy manbadir. Asarda hukmdorning xalq murojaatlarini bevosita eshitishi, adolatni ta'minlashi va mansabdorlar faoliyatini nazorat qilishi zarurligi qayd etiladi.Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda "Siyosatnoma" davlat boshqaruvida hisobdorlik va javobgarlik tamoyillarining tarixiy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida esa davlat boshqaruvi, intizom, adolat va ijtimoiy tartib masalalari keng yoritilgan. Unda boshqaruvning markazlashgan, ammo tartibli va mas'uliyatli modeli tasvirlanadi.

Davlat boshqaruvi va institutsional tuzilmani tushuntirishda klassik sotsiologik nazariyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, M.Veber ratsional-huquqiy hukmronlik va byurokratiya nazariyasi orqali davlat boshqaruvida qonuniylik va javobgarlik tamoyillarini asoslab beradi. T.Parsons esa ijtimoiy institutlarni jamiyat barqarorligini ta'minlovchi funksional tizim sifatida talqin qiladi.Ijtimoiy institutlarning shakllanishi va legitimlashuvi masalalari Peter, L.Berger va T.Lukmann tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy konstruktivizm nazariyasida yoritilgan. Davlat va jamiyat oʻrtasidagi muloqot mexanizmi esa Jurgen Habermasning kommunikativ harakat nazariyasida asoslab beriladi. Institutsional ishonch va ijtimoiy kapital muammolari Fransis Fukuyama hamda Robert Putnam tadqiqotlarida tahlil qilingan. Shuningdek, D.North institutsional rivojlanish nazariyasida rasmiy qoidalar va institutlarning jamiyat taraqqiyotidagi rolini ochib beradi

**ASOSIY QISM**

Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar, adolatli boshqaruv, hukmdorning xalq oldidagi mas'uliyati hamda ijtimoiy muvozanat masalalari muhim oʻrin egallagan. Yangi Oʻzbekistonda xalq qabulxonalarining sotsial institut sifatida shakllanishini nazariy jihatdan asoslashda Sharq mutafakkirlarining merosi muhim metodologik manba boʻlib xizmat qiladi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk va Amir Temur asarlarida davlatning xalq bilan muloqoti va adolat tamoyillari chuqur yoritilgan.

870-950-yillarda yashab ijod qilgan sharq mutafakkiri Abu Nasir Farobiy o'zining "Al-Madina al-fazila" ya'ni " Fozil odamlar shahri" asarida sharq siyosiy-falsafiy tafakkurida ideal jamiyat va fazilatli davlat nazariyasini ishlab chiqqan. U jamiyatni murakkab ijtimoiy tizim sifatida talqin qiladi va davlatni insonlarning baxt-saodatga erishish vositasi deb hisoblaydi.

Forobiyga koʻra:

- Davlatning asosiy vazifasi – fuqarolarning farovonligi va baxtini ta'minlash.

- Rahbar adolatli, dono va xalq ehtiyojlarini biluvchi shaxs boʻlishi kerak.
- Jamiyat barqarorligi oʻzaro hamkorlik va ijtimoiy muvozanatga bogʻliq.

U “Fozil odamlar shahri ” modelida boshqaruvning markaziga axloqiylik va adolatni qoʻyadi. Rahbar xalqning muammolaridan bexabar boʻlsa, jamiyatda beqarorlik yuzaga kelishini taʼkidlaydi.

Ushbu ilmiy izlanish nuqtayi nazaridan, xalq qabulxonalari Forobiy tasvirlagan fazilatli boshqaruvning zamonaviy institutsional shakli sifatida talqin qilinishi mumkin. Chunki ular fuqarolar ehtiyojini oʻrganish, muammolarni aniqlash va ijtimoiy adolatni taʼminlash mexanizmi hisoblanadi.

Shuningdek, “Forobiy hayotiy ehtiyoj insonda jamoatchilik hissini paydo qiladi va oʻzaro muloqotni keltirib chiqaradi. Inson oʻz tabiatiga koʻra ijtimoiydir va faqat oʻzaro bogʻliqlikda jamoa boʻlib yashay oladi. Chunki har qanday inson oʻzining oddiy kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun u boshqalarning yordamiga zarurat sezadi, boshqalar ham xuddi shu kabi oʻzaro munosabatlar oʻrnatishlariga toʻgʻri keladi”, deb, inson ehtiyojlari nafaqat davlat tomonidan yaratilgan sharoitlardan qoniqmasligidan, balki insonlar oʻrtasidagi turli nizolarni hal qilishda davlatning ishtirok etishi lozimligini taʼkidlaydi [1, – B.233].

Jamiyatda insonlar oʻrtasida hamjihatlikning zarurligi masalasi Abu Rayhon Beruniyning asarlarida ham keng yoritilgan. Beruniy fikricha, “Muloqotning asosi boʻlgan maʼnaviy qadriyatlar ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bogʻlangan. Masalan, kishilar oʻrtasidagi hamkorlik odamlarni birlashish ehtiyojlari koʻpligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan oʻzini himoya qilish zarurati tufayli vujudga kelgan”. Beruniy oʻzining “Hindiston” asarida hindlar turmushini tadqiq etar ekan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, anʼanalar, marosimlarning ahamiyatini, ularning oʻziga xos rang-barangligini tavsiflab, jamoa va tilning vujudga kelishini odamlarning birlashishga boʻlgan ehtiyojidan kelib chiqqan, deya izohlaydi [2, – B.114-122].

Demak, Beruniy xalq bilan muloqot qilish va shu orqali aholining muammolarini hal qilish uchun ham birlashish lozimligini taʼkidlagan. Bunday holatda agar davlatning boshqaruv tuzilmalaridagi eng yuqori turuvchi hukmdordan tortib, quyi boshqaruvchi amirlar ham aholi murojaatlarini hal qilish maqsadida birlashsalar, davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar mustahkamlanadi va jamiyat davlatga ishonib, hukmdorni va davlat siyosatini qoʻllab-quvvatlab, davlatni himoya qilishga tayyor boʻladi. Aholi murojaatlari bilan ishlashni yoʻlga qoʻyish nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy ahamiyatga ega boʻlgan zaruratdir.

Aholi murojaatlari bilan ishlashda milliy-maʼnaviy merosimiz xazinasidagi buyuk alloma va davlat arbobi Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari muhim oʻrin tutadi. Asarning “Podshohning mazlumlarni qabul qilishi, odil va yaxshi xulqli boʻlishi haqida”gi boʻlimida hukmdorga mamlakatda jamoatchilik fikrining qudratli kuchiga hamisha tayanish kerakligi hamda xalq murojaatlari bilan ishlashda quyidagi fikrlar tavsiya tarzida bayon etilgan:

“Podshoh haftada ikki kun zulm koʻrganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiyat soʻzlarini bevosita eshitib borishi kerak. Muhim boʻlgan arizalarni qabul qilib, har biriga javob berishi lozim. Agarda Xudovand podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning soʻzlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi, degan xabar mamlakatda tarqalsa, unda zolimlar oqibatini oʻylab, qoʻrqib bedodlik qilmaydilar”, deyilgan.

Nizomulmulk mamlakatda adolatni mustahkam oʻrnatishda real shart-sharoitlar emas, balki hukmdorning yaqin davrasi jiddiy gʻov vazifasini bajarishi mumkinligiga katta fahm-farosat orqali ishora etgan. “Oldin oʻtgan kishilarning kitoblaridan shuni oʻqib bildimki, – deb yozadi Nizomulmulk, – Ajam shohlari bir doʻkon yasab, uni otga yuklab sahroga olib borarkanlar, toki oʻsha joyda yigʻilgan mazlumlarni koʻrib, har birining arzini eshitib olish mumkin boʻlsin. Buning sababi shu ediki, agarda podshoh biror joyda oʻtirib qolsa, u yerda dahliz, eshik va parda paydo boʻladi. Gʻarazli kishilar va sitamgarlar shundan foydalanib, zulm chekayotganlarni podshoh oldiga qoʻymaydilar”, [3, – B.20]. degan.

“Temur tuzuklari” davlat boshqaruvi, tartib-intizom va adolat masalalariga bagʻishlangan muhim manbadir.

Amir Temur boshqaruvda:

- Adolatni ustuvor tamoyil deb bilgan.

- Xalq shikoyatlarini eshitish amaliyotini joriy qilgan.
- Mansabdor shaxslar ustidan qat'iy nazorat o'rnatgan.

U "Kuch – adolatda" degan tamoyilni ilgari suradi. Davlatning qudrati xalq roziligiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi.Temuriy boshqaruvda xalq bilan bevosita muloqot mexanizmlari mavjud bo'lgan. Bu jihat xalq qabulxonalarining milliy boshqaruv an'analari davomchisi ekanini asoslash imkonini beradi.

"Amir Temur xalqning murojaatlarini eshitish uchun alohida kunlar ajratgan va har oyning oxirgi juma kunlari xalqning arz-dodlarini shaxsan Temurning o'zi mutasaddi saroy a'yonlari bilan birga eshitgan va aytgan so'ziga monand adolatli yechimlar qabul qilinishini nazorat qilib borgan."

Shuningdek, Amir Temur uzoq muddat safarda bo'lgan paytlarda mamlakat va raiyat turmush tarzida nimalar yuz berganini surishtirib, yer-u mulklari masalalarini diqqat bilan o'rganar, rahbarlarga tegishli farmoyishlar berar edi. Xususan, "Atrof va chegaralar, kattayu kichikning g'amini yeb, boyu faqirning manfaati bilan shaxsan mashg'ul bo'lardi. O'z mulohazasi taqozosiga ko'ra, barcha ashyolarni o'z o'rniga qo'yib, jami mansabu martabalar jilovini o'shanga sazovor kishilar qo'liga tutqiza boshladi. U sayyidlarni e'zozlab, karomatlar sohiblari bo'lgan avliyolarni izzat-u ikromli qildi, ilmu fanni va uning ahllari hurmatini oshirib, ularga muruvvatini sochdi, martabalarini ulug'ladi." [4, – B.3-4].

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" davlat boshqaruvi va siyosiy axloq haqidagi yirik didaktik asardir. Unda adolatli hukmdor obrazi va davlatning xalq oldidagi mas'uliyati keng yoritiladi.

Asarda quyidagi g'oyalar ilgari suriladi:

- Davlat adolat asosida boshqarilishi kerak.
- Hukmdor xalq dardini bilishi va ularni eshitishi zarur.
- Rahbar bilan xalq o'rtasida doimiy aloqa bo'lishi shart.

Yusuf Xos Hojib hukmdorni "xalq xizmatkori" sifatida tasvirlaydi. U xalq shikoyatlarini tinglashni boshqaruvning muhim elementi deb biladi.Mazkur qarashlar xalq qabulxonalarining g'oyaviy ildizini tashkil etadi. Chunki ular davlat va fuqaro o'rtasida bevosita muloqot o'rnatish institutidir [5, – B.45-46].

Ibn Sino jamiyatni organizmga qiyoslaydi. Uning fikricha, jamiyatdagi har bir institut ma'lum funksiyani bajaradi va umumiy barqarorlikka xizmat qiladi.U quyidagi g'oyalarni ilgari suradi: [6].

- Jamiyatda adolat ijtimoiy muvozanatni ta'minlaydi.
- Boshqaruv axloqiy me'yorlarga asoslanishi kerak.
- Ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Ibn Sino davlatni ijtimoiy muvozanatni saqlovchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Agar jamiyatdagi muammolar o'z vaqtida hal etilmasa, ijtimoiy kasallik yuzaga keladi.Xalq qabulxonalari ana shu "ijtimoiy muvozanatni tiklovchi" institut sifatida ko'rilishi mumkin. Ular aholi murojaatlari orqali ziddiyatlarni aniqlaydi va ularni tizimli hal etishga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va modernizatsiya jarayonlari sharoitida davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mazmun jihatidan tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, aholining murojaatlari bilan ishlash tizimi davlat boshqaruvi samaradorligini belgilovchi muhim ijtimoiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur paragrafda aholining murojaatlari bilan ishlash tizimini tushuntiruvchi asosiy nazariy konsepsiyalar, ilmiy yondashuvlar va ta'limotlar tahlil qilinib, ularning Yangi O'zbekistonda xalq qabulxonalari faoliyati bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi [7, – B.54-67].

Avvalo, aholining murojaatlari bilan ishlash tizimini ijtimoiy institut sifatida talqin qilishda klassik sotsiologik nazariyalarga murojaat etish muhimdir. Xususan, E. Dyurkgeymning ijtimoiy institutlar haqidagi ta'limotida institutlar jamiyatda barqarorlikni ta'minlovchi va ijtimoiy ehtiyojlarga javob beruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, xalq qabulxonalari jamiyatda davlat va fuqaro o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi, ijtimoiy tartib va adolatni mustahkamlovchi institut sifatida namoyon bo'ladi. Dyurkgeym ta'kidlaganidek, institutlarning samarali faoliyati jamiyatning ijtimoiy salomatligini belgilaydi, bu esa aholining murojaatlari bilan ishlash tizimi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

M.Veberning ratsional-huquqiy hukmronlik nazariyasi ham mazkur tizimni tushuntirishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Veber davlat boshqaruvida byurokratiyaning rolini alohida taʼkidlab, uni qonuniylik, tartib va javobgarlik bilan bogʻlaydi. Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi, xususan xalq qabulxonalari, aynan ushbu ratsional-huquqiy tamoyillarga asoslanib faoliyat yuritadi. Fuqarolarning murojaatlari belgilangan tartibda qabul qilinishi, koʻrib chiqilishi va yechim topilishi davlat boshqaruvida shaffoflik va javobgarlikni kuchaytiradi. [8, – B.212-226].

T.Parsonsning strukturaviy-funksional yondashuvi esa murojaatlar bilan ishlash tizimini jamiyatning muhim funksional boʻgʻini sifatida izohlaydi. Parsons nazariyasiga koʻra, har bir ijtimoiy institut jamiyatda muayyan funksiyani bajaradi. Xalq qabulxonalari kommunikativ, integrativ va tartibga soluvchi funksiyalarni amalga oshirib, davlat va jamiyat oʻrtasida uzviy aloqa oʻrnatadi. Ushbu yondashuv aholining murojaatlari orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni tizimli hal etish imkonini berad [9, – B.26-45].

Zamonaviy sotsiologiyada “ijtimoiy kommunikatsiya” nazariyalari ham aholining murojaatlari bilan ishlash tizimini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Y.Xabermasning kommunikativ harakat nazariyasida davlat va jamiyat oʻrtasidagi muloqot demokratik boshqaruvning asosi sifatida talqin qilinadi. Ushbu nazariya asosida xalq qabulxonalari fuqarolar ovozini eshitish, ularning manfaatlarini ifodalash va qaror qabul qilish jarayoniga jalb etishning muhim mexanizmi sifatida namoyon boʻladi. Xabermas taʼkidlaganidek, ochiq muloqot jamiyatda ishonchni mustahkamlaydi, bu esa murojaatlar bilan ishlash tizimining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi [10, – B.85-101].

Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini tahlil qilishda “eshituvchi davlat” konsepsiyasi alohida oʻrin tutadi. Ushbu konsepsiya zamonaviy davlat boshqaruvida fuqarolarning ehtiyoj va manfaatlarini inobatga olishga qaratilgan boʻlib, davlatni passiv boshqaruv subyekti emas, balki jamiyat bilan faol muloqot qiluvchi tuzilma sifatida talqin etadi. Yangi Oʻzbekiston sharoitida xalq qabulxonalari aynan ushbu konsepsiyaning amaliy ifodasi boʻlib, aholining murojaatlari orqali ijtimoiy muammolarni aniqlash va tezkor hal etish imkonini yaratadi.

Shuningdek, institutsional yondashuv doirasida D.Nort va boshqa olimlarning ishlari ham murojaatlar bilan ishlash tizimini tushuntirishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Institutsional nazariya jamiyatdagi qoidalar, meʼyorlar va tashkiliy tuzilmalar ijtimoiy jarayonlarga qanday taʼsir koʻrsatishini tahlil qiladi. Xalq qabulxonalari faoliyati ham rasmiy va norasmiy meʼyorlar asosida shakllanib, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MDH va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham aholining murojaatlari bilan ishlash tizimi ijtimoiy boshqaruvning muhim elementi sifatida baholanadi. Oʻzbekistonlik sotsiolog olimlar murojaatlar tahlilini ijtimoiy kayfiyat, aholi muammolari va hududiy rivojlanish darajasini aniqlashda muhim empirik manba sifatida koʻrsatadilar. Bu yondashuv xalq qabulxonalari faoliyatining ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar tahlili shuni koʻrsatadiki, aholining murojaatlari bilan ishlash tizimi faqatgina maʼmuriy mexanizm emas, balki murakkab ijtimoiy institut sifatida namoyon boʻladi. U davlat va jamiyat oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishda muhim rol oʻynaydi. Xalq qabulxonalari faoliyati mazkur nazariyalar asosida tahlil qilinganda, ularning Yangi Oʻzbekiston sharoitida ijtimoiy adolat, ochiqlik va fuqarolik faolligini taʼminlashdagi oʻrni yanada ravshanlashadi.

Nazariy tahlilni chuqurlashtirish maqsadida konfliktologik yondashuvga ham murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv vakillari jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar muqarrar ekanini taʼkidlaydilar va murojaatlar bilan ishlash tizimini ushbu ziddiyatlarni yumshatuvchi mexanizm sifatida baholaydilar. Aholi murojaatlari koʻpincha ijtimoiy tengsizlik, boshqaruvdagi kamchiliklar yoki resurslar taqsimotidagi adolatsizlik natijasida yuzaga keladi. Shu jihatdan xalq qabulxonalari ijtimoiy konfliktlarning ochiq shaklga oʻtishini oldini oluvchi institutsional vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [11, – B.135-152].

Shuningdek, ijtimoiy ishonch nazariyasi doirasida murojaatlar bilan ishlash tizimi alohida tahlil etiladi. F.Fukuyama va R.Putnam kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuvga koʻra, davlat institutlariga boʻlgan ishonch jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Xalq

qabulxonalari faoliyatining samaradorligi fuqarolarning davlatga boʻlgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Aksincha, murojaatlarning e'tiborsiz qoldirilishi ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin [12, – B.23-41].

Bundan tashqari, raqamli jamiyat nazariyasi nuqtayi nazaridan ham murojaatlar bilan ishlash tizimini tahlil qilish dolzarbdir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi fuqarolarning davlat bilan muloqot qilish shakllarini oʻzgartirmoqda. Elektron murojaatlar, onlayn qabulxonalar va raqamli monitoring tizimlari xalq qabulxonalari faoliyatining yangi bosqichini belgilab bermoqda. Bu holat mazkur institutning evolyutsion rivojlanishini nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi [13, – B.69-92].

**XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maqolada aholi murojaatlari bilan ishlash tizimining nazariy va tarixiy asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, davlat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar masalasi Sharq siyosiy-falsafiy tafakkurida muhim oʻrin egallagan. Xususan, Abu Nasr Forobiy davlatni axloqiy fazilat va adolat tamoyillariga asoslangan tuzilma sifatida talqin qilgan boʻlsa, Abu Rayhon Beruniy boshqaruv jarayonida ilmiylik va obyektivlik zarurligini ta'kidlagan. Abu Ali ibn Sino jamiyat barqarorligini axloqiy me'yorlar bilan bogʻlagan, Yusuf Xos Hojib esa hukmdorning adolatli va xalq manfaatini koʻzlovchi boʻlishini boshqaruvning asosiy sharti sifatida belgilagan. Nizomulmulk va Amir Temur asarlarida esa hukmdorning xalq murojaatlarini bevosita eshitishi, nazorat va intizom mexanizmlarini kuchaytirishi zarurligi qayd etilgan. Shu bilan birga, Gʻarb mutafakkirlari qarashlari shuni koʻrsatadiki: davlat legitimligi xalq roziligi va ijtimoiy shartnomaga asoslanadi; fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish boshqaruvning asosiy vazifasidir; hokimiyatlar boʻlinishi va nazorat mexanizmlari davlat samaradorligini ta'minlaydi; fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazorati demokratik barqarorlik omilidir.

Mazkur nazariy qarashlar zamonaviy "eshituvchi davlat", ochiq boshqaruv va aholi murojaatlari bilan ishlash tizimining ilmiy-metodologik poydevorini tashkil etadi. Shu bois, Sharq mutafakkirlarining axloqiy-adolat konsepsiyasi hamda Gʻarb mutafakkirlarining huquqiy-institutsional yondashuvi oʻzaro uygʻun holda zamonaviy boshqaruv modelining kompleks nazariy asosini shakllantiradi.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**


1. Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2016. – Б.233.
2. Беруний Абу Райҳон. Минералогия. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.9; А.Шарипов. Беруний. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.114-122.
3. Низомулмулк. Сиёсатнома. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2008. – Б.20.
4. "Қиссаи Темур" асари, Тошкент: "Янги аср авлоди"нашриёти, 2021. – Б.3-4.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig: (Saodatda eltuvchi bilim), (Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2007). – B. 45-46.
6. Derar Ali Bani Yasin, "Ibn Sina's Political Philosophy: A Study of the Relationship between Prophecy and Civil Science," Jordan Journal of Social Sciences, vol. 16 no. 1 (2023).
7. Berger P., Luckmann T. *The Social Construction of Reality.* — New York: Anchor Books, 1966. – PP. 54-67.
8. Weber M. *Economy and Society*. – Berkeley: University of California Press, 1978. – PP. 212-226.
9. Parsons T. *The Social System*. – London: Routledge, 1951. – PP. 26–45.
10. Habermas J. *The Theory of Communicative Action.* – Boston: Beacon Press, 1984 Vol. 1. – PP. 85-101.
11. Dahrendorf R. *Class and Class Conflict in Industrial Society.* – Stanford: Stanford University Press, 1959. – PP. 135-152.
12. Fukuyama F. *Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity.* – New York: Free Press, 1995. – PP. 23-41.
13. Castells M. *The Rise of the Network Society.* — Oxford: Blackwell, 2010. – PP. 69-92.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Mirjavxarova Farida,**
O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: farihon72@mail.ru

# YOSHALARNING HARBIY-PROFESSIONAL ORIENTATSIYAGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitida yoshlarning harbiy-professional orientatsiyasini shakllantiruvchi ijtimoiy omillar kompleks sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu jarayon individual qaror yoki alohida omil natijasi sifatida emas, balki oila, mahalla, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar hamda davlat xavfsizlik siyosati o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan ko'p qatlamli ijtimoiy mexanizm sifatida talqin etiladi. Maqolada yoshlarning harbiy kasbga yo'nalishida madaniy, ijtimoiy va simvolik kapitalning shakllanishi, shuningdek, ularning kasbiy tanloviga ta'sir etuvchi mikro, mezo va makro darajadagi determinantlar tizimli ravishda yoritilgan. Pierre Bourdieu'ning ijtimoiy amaliyot nazariyasi va Ulrich Beckning "xavf jamiyati" konsepsiyasi metodologik asos sifatida qo'llanilib, harbiy-professional orientatsiyaning zamonaviy transformatsion jamiyatdagi o'rni ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati, motivatsiyasi va identifikatsiyasi shakllanishida institutsional zanjir modelining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Harbiy kasb jamiyatda nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-madaniy missiya sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** harbiy xizmatga munosabat, individual-psixologik impulslar, harbiy ta'lim va harbiy kadrlar, oila muhiti, mahalla maydoni, harbiy-professional orientatsiya, raqamli platformalar, ijtimoiy motivlar, harbiy jamoa, harbiy faoliyat.

---

**Миржавхарова Фарида,**
соискатель Университета
военной безопасности и обороны Республики Узбекистан
e-mail: farihon72@mail.ru

# ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ ОРИЕНТАЦИЮ МОЛОДЕЖИ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлен комплексный социологический анализ факторов, формирующих военно-профессиональную ориентацию молодежи в условиях Узбекистана. Рассматриваемый процесс интерпретируется не как результат действия одного фактора или индивидуального выбора, а как многослойный социальный механизм, формирующийся под

воздействием взаимосвязанных институтов – семьи, махалли, системы образования, средств массовой информации, цифровых платформ и государственной политики в сфере безопасности. Особое внимание уделено анализу формирования культурного, социального и символического капитала молодежи, а также выявлению детерминант, влияющих на профессиональный выбор на микро-, мезо- и макроуровнях. Методологическую основу исследования составляют теория социальных практик Пьера Бурдье, и концепция «общества риска» Ульриха Бека, что позволяет раскрыть специфику военно-профессиональной ориентации в условиях трансформации современного общества. Результаты исследования показывают, что процесс формирования отношения молодежи к военной службе и их профессиональной идентификации определяется институциональной цепной моделью, где ключевую роль играют социальные институты и государственная политика. Военная профессия рассматривается не только как вид занятости, но и как значимая социальная миссия, направленная на обеспечение национальной безопасности.

**Ключевые слова**: отношение к военной службе, индивидуально-психологические импульсы, военное образование и военные кадры, семейная среда, среда махалли, военно-профессиональная ориентация, цифровые платформы, социальные мотивы, военный коллектив, военная деятельность.

---

**Mirjavxarova Farida,**
Independent Researcher University of
Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan
e-mail: farihon72@mail.ru

## FACTORS INFLUENCING THE MILITARY-PROFESSIONAL ORIENTATION OF YOUTH

**ABSTRACT**

This article provides a comprehensive sociological analysis of the factors shaping the military-professional orientation of youth in Uzbekistan. The study conceptualizes this process not as an outcome of individual choice or a single determinant, but as a multi-layered social mechanism emerging from the interaction of key social institutions, including family, community (mahalla), educational system, mass media, digital platforms, and state security policy. The research emphasizes the formation of cultural, social, and symbolic capital and examines the determinants influencing youth professional choices at micro, meso, and macro levels. The methodological framework is grounded in Pierre Bourdieu’s theory of social practice and Ulrich Beck’s concept of the “risk society,” enabling a deeper understanding of military-professional orientation within the context of a transforming society. The findings demonstrate that youth attitudes toward military service and their professional identity are shaped through an institutional chain model, where interconnected social structures play a decisive role. The military profession is interpreted not merely as and occupation, but as a socially significant mission associated with ensuring national security and societal stability.

**Keywords**: attitude toward military service, individual-psychological impulses, military education and military personnel, family environment, neighborhood community environment, military-professional orientation, digital platforms, social motivations, military team, military activity.

---

**KIRISH**

Jahon miqyosida XXI asr boshidan buyon kuzatilayotgan chuqur ijtimoiy, siyosiy va madaniy transformatsiya jarayonlari milliy xavfsizlikni ta’minlash masalalariga, xususan, yosh avlodning harbiy xizmatga munosabati va unga yo‘nalishining shakllanish mexanizmlariga bo‘lgan ilmiy qiziqishni keskin oshirmoqda. Globalizatsiya, raqamli axborot muhiti, geosiyosiy ziddiyatlarning kuchayishi hamda harbiy xavf-xatarlarning asimmetrik tus olishi sharoitida davlatlar o‘z mudofaa salohiyatini faqat texnik va tashkiliy vositalar orqali emas, balki inson kapitali, ayniqsa yoshlarning

qiymatli yo‘nalishlari va ijtimoiy motivatsiyasi orqali mustahkamlash zaruratiga duch kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, harbiylikka yo‘nalish masalasi zamonaviy jamiyatda strategik ahamiyatga ega ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Global jarayonlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda xalqaro maydonda tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlash o‘ta dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Yurtboshimiz 2026-yil 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilishida: “…harbiy ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish armiyaning yangi qiyofasini shakllantirishning asosiy shartidir” - deb ta’kidladilar [1]. O‘zbekiston Respublikasida milliy xavfsizlikni ta’minlash, Qurolli Kuchlarni isloh qilish va harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda.

Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, professional harbiy kadrlarni tayyorlash va harbiylik yo‘lini tanlash istagida bo‘lgan yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish orqali ularning dastlabki ofitserlik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati mamlakatdagi siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, shuningdek global miqyosda yuzaga kelayotgan geostrategik o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Respublikamiz mudofaa tizimida bo‘lajak harbiy xizmatchilarni tayyorlash sohasini isloh qilishning asosiy motivi ta’lim jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishga qaratilgan zamonaviy, interaktiv va kompleks pedagogik mexanizmlarni yaratish hamda ularni barqaror rivojlantirish zaruriyatidan iborat. Bunday yondashuv yoshlarning harbiy kasbga qiziqishini oshirish, ularda mas’uliyat, intizom va milliy xavfsizlikni ta’minlashga daxldorlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim omil vazifasini bajaradi [2].

Yoshalarning harbiy-professional orientatsiya transformatsion jamiyat sharoitida ko‘p omilli, ko‘p qatlamli va dinamik ijtimoiy mexanizm sifatida shakllanib, uning ichki tuzilishi individual–psixologik impulslar, mezo-institutsional o‘zaro ta’sirlar va makro-huquqiy-xavfsizlik diskursi kesishma nuqtasida paydo bo‘ladi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri talqin etish uchun soddalashtirilgan funksional modellar yetarli emas; aksincha, Pierre Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan habitus, maydon (field), kapital va dominatsiya konseptlari orqali uning tuzilmasini qayta konstruktitsiya qilish metodologik jihatdan maqbuldir. Chunki harbiy kasb faqat mehnat bozoridagi bir pozitsiya emas, balki simvolik kapital harakatlanadigan, madaniy ma’nolar ishlab chiqiladigan, davlat legitimligi qayta ishlab chiqiladigan maxsus maydon hisoblanadi.

P.Bourdieuning ijtimoiy amaliyot nazariyasiga ko‘ra, har qanday ijtimoiy jarayon muayyan “maydon” ichida amalga oshiriladi va u yerdagi agentlar o‘rtasidagi resurslar, mavqe va kapitalning nisbati amaliyotning yangi mazmunini belgilaydi. Ushbu nazariya harbiy-professional orientatsiya maydonining ichki dinamikasini tushunishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki harbiylikka moyillik individual qaror emas, balki turli maydonlar kesishgan nuqtada shakllanadigan kompleks ijtimoiy mexanizmdir [3].

## METODOLOGIYA

P.Berger va T.Lukmanning “ijtimoiy konstruksiya” konsepsiyasida ta’kidlanishicha [4], voqelik to‘g‘ridan-to‘g‘ri individ tomonidan emas, balki jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ramziy tartiblar, me’yorlar va ma’nolar tizimi orqali shakllanadi Ularning ko‘rsatishicha, har bir institut – jumladan, harbiylik kasbi ham – tabiiy berilgan tuzilma emas, balki jamiyat tomonidan barqarorlashtirilgan va madaniy ramzlar bilan mustahkamlangan “ijtimoiy konstrukt”dir.

Shu nuqtai nazardan harbiylik kasbining barcha asosiy tarkibiy elementlari ijtimoiy konstrukticiya jarayonida yuzaga keladi, Jumladan, **qadriyatlar tizimi** (jasorat, fidoyilik, sadoqat, burch), **institutsional marosimlar** (qasamyod, harbiy parad va rituallar), **me’yorlar va intizom qoidalari** (buyruqqa itoat, xizmat tartibi, hierarxiya), **ramziy atributlar** (forma, bayroq, unvonlar, harbiy belgilari), **ijtimoiy maqom va legitimatsiya** (armiyaning davlat va jamiyat oldidagi ahamiyati).

Ushbu elementlar jamiyat tomonidan “institutsional ma’no” sifatida doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladi, ramziy tarzda mustahkamlanadi va yangi avlodlarga ijtimoiylashuv jarayonida uzatiladi. Shu bois harbiy-professional orientatsiya oddiy psixologik moyillik yoki individual

qiziqishdan ko‘ra keng qamrovli sotsiomadaniy jarayonni ifodalaydi. U **simvollar va madaniy ramzlar ta’siri** – harbiy rituallar, milliy qahramonlik obrazlari, tarixiy xotira, **davlatning axborot va ma’rifiy siyosati** – Vatan himoyasi g‘oyasining media va ta’limdagi targ‘iboti, **tarixiy-madaniy xotira** – urushlar, milliy ozodlik harakatlari, qahramonlar merosi, **tarixiy-madaniy xotira** – urushlar, milliy ozodlik harakatlari, qahramonlar merosi, **milliy-patriotik tarbiya** – maktab, oila, mahalla va ommaviy maqomni kuchaytiruvchi institutlar orqali shakllanadigan ong yo‘nalishlar ta’sirida shakllanadi.

Harbiy kasbga yo‘nalish ijtimoiy voqelikning konstruktiv mexanizmlari orqali barpo etiladigan “ijtimoiy ma’no tizimi” bo‘lib, uning shakllanishi individual tanlov emas, balki keng ijtimoiy muhit, madaniy ramzlar va institutlar faoliyati bilan belgilanadi.

E.Giddens zamonaviy jamiyatning rivojlanishini “reflexive modernity” tamoyili asosida izohlab, modernizm sharoitida institutlar, shu jumladan kasblar sohasi, o‘z-o‘zini doimiy qayta baholash va o‘zgartirish qobiliyatiga ega bo‘lishini qayd etadi. Uning fikricha, jamiyatdagi refleksivlik darajasining ortishi, xavflarni boshqarish amaliyotining murakkablashishi va hayot tarzidagi tezkor dinamika professional tanlovni ham yangi modelga yo‘naltiradi. Bunday sharoitda yoshlarning kasb tanlash motivlari an’anaviy indikatorlardan tashqari bo‘lib, xavflar, imkoniyatlar va global tendensiyalarni hisobga olgan holda shakllanadi [5].

U.Bekning “risk jamiyati” konsepsiyasi bu jarayonni yanada kengroq izohlaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, zamonaviy dunyoda xavflar tabiati sifat jihatdan o‘zgarib, an’anaviy harbiy tahdidlar o‘rniga quyidagi global omillar ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi, ya’ni, kiber xatarlar va raqamli muhit xavflari, transmilliy terrorizm va asimmetrik tahdidlar, yarashgan texnologiyalar va harbiy sohadagi inqilobiy o‘zgarishlar (AI, dron, robototexnika).

U.Bek ta’kidlaganidek, xavflar arxitekturasining o‘zgarishi yosh avlodning harbiy kasbga munosabatini qayta shakllantirib, ularda “postmodern professional paradigm” – ya’ni kasbning ma’nosi, maqomi va ijtimoiy vazifalarining yangi talqinlari yuzaga keladi [6].

Shu ma’noda harbiy-professional orientatsiya transformatsiyasi global xavfsizlik muhitidagi o‘zgarishlar, jamiyatning refleksiv tabiati va texnologik inqiloblar bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarda harbiy-professional orientatsiya keng qamrovli, bir-biriga bog‘langan aktorlar harakatidan shakllanuvchi murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. G.Caforioning harbiy sotsiologiyaga oid tahlillarida bu jarayon “multi-agent system” ko‘rinishida izohlanadi. Ya’ni harbiy orientatsiyani shakllantirishda bir vaqtning o‘zida bir nechta institutsional va madaniy agentlar parallel ravishda ta’sir ko‘rsatadi [7].

**ASOSIY QISM**

Yoshalarning harbiy-professional orientatsiya maydonidagi kuchlar nisbati quyidagi tarzda namoyon bo‘ladi:

**1. Oila habitusi – birlamchi psixososial kodlash maydoni.** Oila individning birinchi ijtimoiy tajriba makoni sifatida uning harbiy xizmatga emotsional va psixik moyilligini belgilaydi. Harbiy xizmat qilgan ota-aka yoki qarindoshlar modeli Bandura nazariyasida ta’kidlangan “kuzatish orqali o‘rganish” mexanizmini faollashtiradi.

**2. Mahalla maydoni – kollektiv me’yorlar va gender kutilmalarining reproduksiyasi.** Mahalla O‘zbekistonda jamoaviy identifikatsiyaning asosiy instituti sifatida mardlik, jasorat, fidoyilik, tartib va xizmat kabi qiymatlarni standart me’yorga aylantiradi. Shunga ko‘ra, mahalla habitusi harbiy kasbni “sharafli xizmat” tariqasida qayta konstruktissiya qiladi.

**3. Ta’lim maydoni – akademik va ijtimoiy kapitalning qayta taqsimlanish maydoni.** Ta’lim tizimi – harbiy akademiyalar, litseylar, vatanparvarlik modullari orqali harbiy kasbning bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiyalar bilan bog‘liq “professional kapital”ini shakllantiradi. Bu maydonda akademik kapital (bilim) va ijtimoiy kapital (tarmoq, qo‘llab-quvvatlash) o‘zaro uyg‘unlashadi.

**4. OAV va raqamli platformalar – harbiylik obrazining mediatizatsiya maydoni.** Televidenie, internet, ijtimoiy tarmoqlar harbiy xizmatning zamonaviy obrazini yaratadi: qahramonlik, professionalizm, texnologik qudrat va davlatga xizmat qilish simvollari orqali

yoshlarning harbiylik haqidagi tasavvurini qayta shakllantiradi. Axborot urushi sharoitida mazkur maydonning ta’siri yanada kuchayadi.

**5. Davlat-xavfsizlik maydoni – professional ma’no va legitimlikni belgilovchi institutsional aktor.** Davlatning milliy xavfsizlik siyosati, harbiy doktrinalar, raqamli xavfsizlik strategiyalari va imtiyozlar tizimi harbiy kasbga institutsional maqom va rasmiy legitimate-ma’no beradi. Harbiy xizmatning strategik ahamiyati aynan shu maydonda shakllanadi va jamiyat ongida mustahkamlanadi.

Yoshlarning harbiy-professional orientatsiyasini bir omilli emas, balki institutsional zanjir modeli asosida shakllanadigan ko‘p qatlamli ijtimoiy mexanizm sifatida ko‘rsatadi. Oila va shaxsiy psixologik omillar mikro darajada dastlabki motivatsiyani yaratsa, mahalla, ta’lim va media maydonlari mezo darajada ijtimoiy legitimlik va simvolik kapitalni mustahkamlaydi. Davlat siyosati va global xavfsizlik muhiti esa makro darajada harbiy kasbga strategik ma’no va institutsional maqom beradi. Yoshlarning harbiy kasbga yo‘nalishi individual qaror emas, balki ijtimoiy kapital, madaniy qadriyatlar va davlat xavfsizlik paradigmasi o‘zaro ta’sirida shakllanuvchi kompleks sotsiologik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu institutsional zanjir sifatida ishlaydi va harbiy kasbga yo‘nalishning butun mexanizmlarini shakllantiradi. Zanjirning har bir bo‘g‘ini alohida holda emas, balki bir-birini kuchaytiruvchi interdependensiya tarzida faoliyat yuritadi, bu esa µ–meso–macro modelining to‘liq namoyon bo‘lishidir.

**1-jadval**

**Yoshlarning harbiy-professional orientatsiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy maydonlar va shakllanuvchi kapital turlari**

| № | Ижтимоий maydon / institut | Asosiy mazmun va ta’sir mexanizmi | Shakllanadigan kapital / natija |
|---|---|---|---|
| 1 | **Oila (habitus)** | Avlodiy harbiy an’ana, “ota – himoyachi” modeli, kuzatish orqali o‘rganish, emotsional qo‘llab-quvvatlash | Madaniy va simvolik kapital, dastlabki motivatsiya |
| 2 | **Mahalla instituti** | Jamoaviy me’yorlar, “mardlik” va “sharofatli xizmat” tasavvuri, ijtimoiy nazorat va tavsiyalar | Ijtimoiy kapital, legitimlik |
| 3 | **Ta’lim tizimi (maktab, litsey, harbiy OTM)** | Vatanparvarlik tarbiyasi, akademik bilim, kasbiy kompetensiya, harbiy modullar | Akademik va professional kapital |
| 4 | **Tengdoshlar guruhi** | Rol-modellar, ijtimoiy maqtov, romantiklashtirish, jamoaviy identifikatsiya | Ijtimoiy rag‘bat, guruhiy identifikatsiya |
| 5 | **OAV va raqamli platformalar** | Harbiy obrazning media-diskurs orqali shakllanishi, qahramonlik ramzlari, axborot bosimi | Simvolik kapital, media-obraz |
| 6 | **Davlat–xavfsizlik siyosati** | Milliy xavfsizlik konsepsiyasi, harbiy islohotlar, imtiyozlar tizimi, institutsional legitimlik | Institutsional kapital, strategik maqom |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7 | **Psixologik xususiyatlar** | Stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish, intizom, xavfni idrok etish | Shaxsiy kasbiy identifikatsiya |
| 8 | **Geosiyosiy va global omillar** | Assimetrik tahdidlar, terrorizm, kiberxavfsizlik, xavf jamiyati paradigmasi | Xavfsizlik ongi, strategik missiya hissi |

Ulrich Beckning “xavf jamiyati” konsepsiyasida ta’kidlanganidek, modern davrda xavfsizlik inson hayotining oddiy ehtiyoji emas, balki jamiyatning barqaror yashashini ta’minlovchi fundamental ijtimoiy talabga aylanadi [6]. Bu g‘oya O‘zbekiston sharoitida ayniqsa dolzarb, chunki mamlakatning xavfsizlik muhiti ko‘p qirrali va murakkab dinamikaga ega. Terrorizm va ekstremizm kabi transmilliy tahdidlar, migratsiya jarayonlarining boshqarilishi, axborot makonidagi kiber xatarlar, ichki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash mexanizmi, shuningdek ekologik xavflarning kuchayishi xavfsizlikni umummilliy strategik vazifaga aylantirmoqda. Mana shu omillar majmui O‘zbekiston jamiyatida harbiy xizmatning simvolik va institutsional qiymatini sezilarli darajada oshirib, harbiy kasbni faqat mehnat faoliyati emas, balki “milliy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy missiya” sifatida talqin etishga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan yoshalarning harbiy kasbga yo‘nalishni shakllantiruvchi mexanizmlarni chuqurroq tushuntirish uchun “institutsional zanjir modeli” eng samarali tahliliy konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu model harbiy-professional orientatsiyani bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro bog‘lanish sifatida ko‘radi.

Zanjirning birinchi bo‘g‘ini – **oila habitusi** – yoshlarda mardlik, fidoyilik va xizmatga moyillik kabi qadriyatlarning ilk shakllanish nuqtasi bo‘lib, harbiylikka ruhiy-psixologik tayyorlikni belgilaydi.

Ikkinchi bo‘g‘in – **mahalla instituti** – normalar, gender roliga oid kutilmalar, jamoatchilik nazorati orqali yoshlarning professional tanlovini rag‘batlantiradi yoki cheklaydigan normativ muhitni vujudga keltiradi.

Uchinchi bo‘g‘in – **ta’lim tizimi** – harbiy bilim, akademik kapital, kognitiv tayyorgarlik va kasbiy moslik modellari orqali harbiylikka ratsional asos yaratadi.

To‘rtinchi bo‘g‘in – **OAV va raqamli platformalar** – harbiy obrazlarni media-diskurs orqali qayta konstruktissiya qilib, harbiy kasbning simvolik kapitalini kuchaytiradi.

Nihoyat, beshinchi bo‘g‘in – **davlat siyosati** – harbiy kasbga professional legitimlik, milliy mandat va strategik zaruriyat beradi. Bu institutsional tuzilma harbiy-professional orientatsiyaning faqat umumiy ijtimoiy manzarasini emas, balki uni belgilab turuvchi “simvolik kapital harakati”ni ham ochib beradi. Bourdieu ta’kidlaganidek, “simvolik kapital – bu agentning ijtimoiy maydondagi tan olinishi, qadrlanishi va legitim maqomi” [8, 11].

Aynan shu nuqtada harbiylik O‘zbekistonda yuqori baho beriladigan ramziy resursga aylanib, yoshlar uchun professional tanlovning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, ideologik va ijtimoiy jihatlarini belgilab beradi.

O‘zbekiston jamiyatida harbiy xizmat har doim yuqori qadrlanadigan va hurmat qilinadigan soha sifatida shakllangan. Harbiylik faqat davlat xavfsizligini ta’minlash yoki mudofaa vazifasi emas, balki oilaviy qadriyatlar, milliy an’analar va jamoaviy xotiraning muhim qismi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bois oila yoshlarning harbiy kasbga bo‘lgan qiziqishi va moyilligini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy muhit hisoblanadi.

O‘zbek oilaviy an’anasida ota – “himoyachi va ta’minlovchi” timsolida qabul qilinadi. Shu bilan birga “o‘g‘il bola – elga tayanch” degan qadriyat ham hanuz omma ongida kuchli saqlanib kelmoqda. Jasorat, mardlik, burchni ado etish, oila va yurt oldida mas’ul bo‘lish kabi qadriyatlar harbiy xizmat bilan bog‘lanadi. Oiladagi bu tasavvurlar yoshlar ongida harbiylikni tabiiy, maqbul va sharafli yo‘l sifatida qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Amaliyotda ham bu holat tasdiqlanadi. UzStat (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, harbiy oliy o‘quv yurtlariga kirgan yoshlarning taxminan yarmining avlodida ota, amaki yoki bobolar orasida harbiy xizmat qilgan insonlar mavjud. Bu harbiylikning O‘zbekistonda avloddan-avlodga o‘tuvchi

madaniy va simvolik qadriyat ekanini ko‘rsatadi. OAV va raqamli maydon – mediatizatsiya, ramziy timsollar va informatsion konstruktsiyalar maydoni. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi paytda harbiy xizmatchilar turli texnik vositalar orqali global axborot maydonidan faol foydalanmoqdalar. Mazkur imkoniyatlardan oqilona va maqsadli foydalanish, ya’ni texnologiyalarni milliy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qildirish, avvalo, harbiy xizmatchilarda yuksak axborot madaniyatini shakllantirishni talab qiladi.

Axborot madaniyatining shakllanishi esa turli ko‘rinishdagi “informatsiya bosimi” sharoitida ham ijobiy, ham salbiy axborotlarni to‘g‘ri saralash, milliy manfaatlarga mos g‘oyalarni tanlab olish, tahlil qilish va ulardan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Shu jihatdan, harbiy xizmatchilarda axborot madaniyatini rivojlantirish qanday mezonlarga asoslanishi lozimligi dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu vazifalar quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi:

Birinchidan, har qanday axborotni qabul qilishda uning mazmun-mohiyatini, manbasining haqqoniyligini, qaysi g‘oya va mafkuraga tayanayotganini, qanday maqsadda tarqatilganini aniqlash zarur. Bu axborot xavfsizligining asosiy shartidir.

Ikkinchidan, olinayotgan axborotning amaliy natijasi qanday bo‘lishi mumkinligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, uni chuqur tahlil qilish, undagi ijobiy va salbiy jihatlarni ajratib olish va shundan keyin mustahkam xulosa chiqarish muhim.

Uchinchidan, axborotga ongli, tanqidiy va yuksak tafakkur bilan yondashish, zarurat tug‘ilganda uni tahlil (analiz) bilan bir qatorda sintez qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish talab etiladi.

To‘rtinchidan, axborotdagi ijobiy, konstruktiv fikrlarni faol qo‘llab-quvvatlash va targ‘ib qilishda milliy mafkura tamoyillariga tayangan holda ish ko‘rish lozim.

Beshinchidan, axborot makonida yuz beruvchi fikrlar xilma-xilligini, jamiyatdagi g‘oyalar rang-barangligini hurmat qilish, fuqarolarning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga tazyiq o‘tkazmaslik – demokratik qadriyatlarning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Oltinchidan, axborot olish imkoniyatlari va sharoitlarini hisobga olgan holda, ulardan samarali foydalanish, bajarilayotgan ishlar natijadorligini doimiy nazorat qilish orqali jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga erishish zarur [6].

Internet orqali tarqatilayotgan kompyuter o‘yinlarining yarmidan ko‘p qismi zo‘ravonlik va tajovuzkorlik elementlarini o‘z ichiga oladi. Xususan, tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, bu o‘yinlarning 49 foizida keskin zo‘ravonlik sahnalari uchrasa, 41 foiz jangari yo‘nalishdagi (otishma, portlash va hujumlarga asoslangan) o‘yinlarda qahramon maqsadiga erishish uchun aynan zo‘ravonlikka tayanadi [9, 10].

Ma’lumki, internet hozirgi kunda ommaviy axborot va kommunikatsiya tizimining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sanaladi. U g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish, targ‘ibot va mafkuraviy kurashning asosiy maydoniga aylanib bormoqda. Buni ekstremistik, ayniqsa diniy-ekstremistik g‘oyalarni tarqatishda internet platformalarining keng qo‘llanilayotgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Harbiy xizmat yoshlar uchun bir nechta muhim ehtiyojlarni qondiruvchi soha sifatida ahamiyat kasb etadi. U avvalo insonning o‘zini ko‘rsatish, yurtga xizmat qilish, jamiyat oldida foydali bo‘lish kabi ichki ehtiyojlari bilan bog‘liq. Shu bilan birga harbiy xizmat o‘zini namoyon qilish va o‘z o‘rnini topish, jamiyatning hurmatiga sazovor bo‘lish, xavfsizlik hissini anglash, jamoaga tegishlilik va birdamlik, sadoqat va fidoyilikni namoyon etish kabi ichki motivatsiyalarni qondiruvchi muhim faoliyatdir.

Ko‘plab yoshlar uchun harbiy kasb shaxsiy o‘zlikning bir qismiga aylanadi. Uniforma, bayroq, marosimlar, intizom va tartib kabi elementlar yoshlarning ichki dunyosida maxsus ma’no kasb etadi va ularni jamoadagi bir butunlik hissiga bog‘laydi. Harbiy jamoaning ichki birdamligi, o‘zaro hurmat, do‘stlik va mas’uliyat kabi qadriyatlar yoshlarga o‘zini muhim va kerakli inson sifatida his qilish imkonini beradi.

Xarbiy kasbni tanlayotgan yoshlarda ma’lum psixologik xususiyatlar kuchli namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Ular xavfni ongli idrok eta oladi, murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilishga qodir, emotsional barqaror va iroda jihatidan chidamli bo‘ladi. Bunday ichki tayyorgarlik harbiy xizmat davomida talab etiladigan mas’uliyat va intizom bilan bog‘liq.

Mahalla instituti – Oʻzbekiston jamiyatidagi eng barqaror va tarixiy legitim massa boʻlib, yoshlarning kasbiy moyilliklari, gender rollari va “qaysi kasb jamiyat uchun sharafli?” degan kollektiv tasavvurlarni shakllantiruvchi meso-daraja kүchidir. Bourdieu konsepsiyasiga koʻra, mahalla “kollektiv habitus’ni reproduktsiya qiluvchi eng muhim field” hisoblanadi. Mahallada patriarchal normalar hali ham kuchli – va harbiy kasb mana shu normalarning “mardlik” metaforasiga aylangan shaklidir. Sotsiologik kuzatishlarga koʻra, Oʻzbekistonda yigitlarning 30-40% harbiylikni “erkaklikning sinovi” deb baxolaydi.

Demak, Oʻzbekistonda harbiy-professional orientatsiya oilaviy qadriyatlar, milliy an’analar, jamiyatdagi hurmat darajasi, psixologik ehtiyojlar va simvolik ma’nolarning oʻzaro uygʻunligi asosida shakllanadi. Oila, mahalla, ta’lim tizimi va davlat siyosati oʻrtasidagi oʻzaro ta’sir yoshlarning harbiy kasbga boʻlgan munosabati va qarorlariga jiddiy ta’sir koʻrsatadi. Shu bois harbiy xizmat jamiyat uchun nafaqat mudofaa tizimi, balki ma’naviy, ijtimoiy va madaniy barqarorlikni ta’minlovchi institut sifatida ahamiyatga ega.

Oʻzbekistonda mahalla har bir yoshning ijtimoiy muhiti va ijtimoiy kapitali shakllanadigan asosiy maydon hisoblanadi. Mahalladagi oʻzaro ishonch, yordam, tavsiya va nazorat mexanizmlari yoshlarning harbiy xizmat haqidagi tasavvurlariga bevosita ta’sir koʻrsatadi.

Amaliy kuzatishlarga koʻra, mahalla kengashining tavsiyalari, mahalladoshlar e’tirofi va oilaning qoʻllab-quvvatlashi harbiy OTMga kirish jarayonida yoshlar uchun muhim “start kapitali” sifatida ishlaydi. Shu ma’noda mahalla harbiy-professional orientatsiyaning hamkorlikka asoslangan muhim ijtimoiy maydonidir.

Ta’lim sohasi yoshlarning harbiy kasbga moyilligini belgilaydigan eng muhim meso-institutdir. Aynan maktab va kollej bosqichida:

yoshlarda harbiy kasb haqida ratsional tasavvur shakllanadi;

fizika, texnik fanlar, harbiy tayyorgarlik modullari orqali amaliy qobiliyatlar rivojlanadi;

kasbiy yoʻnalish boʻyicha tanlov aniqlashadi;

akademik va ijtimoiy kapital qayta taqsimlanadi.

Temurbeklar maktablari, kadet uchiliщalari va harbiy litseylar bu jarayonda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Masalan, Temurbeklar maktabini bitirganlarning katta qismi keyinchalik harbiy OTMlarni tanlaydi – bu ta’lim tizimining harbiy orientatsiyadagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Oʻqituvchilar ham yoshlarga vatanparvarlik, mas’uliyat va xizmat madaniyati haqida barqaror tasavvur berish orqali orientatsiya jarayonida muhim targʻibotchi vazifasini bajaradi.

Raqamli fanlar va IT-yoʻnalishlarning kengayishi esa harbiy xizmatning zamonaviy – texnologik qirralarini shakllantirib, yoshlarni high-tech harbiy yoʻnalishlarga moyil qila boshladi.

Yoshlar koʻp hollarda kasbiy tanlovni oʻz tengdoshlari tajribasi va munosabatiga qarab shakllantiradi. Tengdoshlar guruhi:

harbiy uniforma va harbiylik obrazini romantiklashtiradi,

gʻurur va jasorat tuygʻularini ragʻbatlantiradi,

harbiy OTMda oʻqiyotgan tengdoshlarni “rol modeli” sifatida qabul qiladi.

Shu sababli tengdoshlar orasidagi ijtimoiy maqtov va qoʻllab-quvvatlash harbiy professiyaga qiziqishni kuchaytiruvchi muhim omillardan biridir.

Oʻzbekistonda OAV va internet platformalari harbiylik obrazini yaratishda muhim rol oʻynaydi. Televideniedagi harbiy paradlar, qasamyod marosimlari, jasorat haqidagi syujetlar harbiy xizmatni yuqori sharaf sifatida namoyon qiladi.

Raqamli platformalarda – TikTok, Instagram, Telegram – harbiy mashgʻulotlar videolarining ommabop boʻlishi yoshlarda harbiylikni estetik, jozibador va qahramonlik ramzi sifatida qabul qilishini kuchaytiradi [11, 12].

Biroq internetdagi feyk kontent va agressiv media-tasvirlar yoshlarning haqiqiy kasbiy orientatsiyasiga salbiy ta’sir koʻrsatishi mumkin. Shu bois davlat siyosati media savodxonlikni oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Harbiy-professional orientatsiya faqat oila yoki maktab darajasida shakllanmaydi. Davlatning xavfsizlik siyosati, harbiy islohotlar, geosiyosiy vaziyat ham bu jarayonning asosiy makro-omillaridir.

O‘zbekistonda harbiy tizimni modernizatsiya qilish, professional armiyaga o‘tish, harbiy akademiyalarni takomillashtirish va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dasturlar yoshlarning harbiy kasbga bo‘lgan munosabatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

**XULOSA**

Milliy xavfsizlik, davlat islohotlari va mintaqaviy tahdidlar harbiy professiyani jamiyat uchun strategik ahamiyatga ega kasb darajasiga ko‘tarib, yoshlarning bu yo‘nalishga moyilligini kuchaytirmoqda. Mahalla, ta’lim, tengdoshlar guruhi, OAV va davlat siyosati o‘zaro bog‘liq holda O‘zbekistonda harbiy-professional orientatsiyaning kompleks modelini tashkil qiladi. Bu modelda oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim orqali kompetensiya shakllanishi, media orqali simvolik kapital yaratilishi va davlatning xavfsizlik siyosati asosiy hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Yoshalarning harbiy-professional orientatsiyasi – O‘zbekiston transformatsion jamiyatida individual psixologik moyillikdan ko‘ra, institutsional zanjir, madaniy kapital, davlat xavfsizlik paradigmasi, ma’naviy-ideologik diskurs va raqamli kommunikatsiyaning uzviy ta’sirida amalga oshadigan ko‘p qatlamli, dinamik va strategik jarayondir. O‘zbekistonda Harbiy kasbga yo‘nalish jarayoni jamiyatning bapcha asosiy institutlari – oila, mahalla, ta’lim, yoshlar siyosati, OAV va davlat xavfsizlik siyosati tomonidan birgalikda konstruksiya qilinadigan sotsiologik fenomen sifatida shakllanmoqda.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**


1. https://president.uz/oz/lists/view/8851
2. Alimardonov Z.S. Oliy harbiy ta’lim muassalarida bo‘lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish. – Toshkent, 2019.
3. Bourdieu P. *The Logic of Practice*. Stanford University Press, 1990. – P. 112-118.
4. Berger P., Luckmann T. *The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge*. – New York: Anchor Books, 1966. – P. 112-118.
5. Giddens A. *Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age*. – Cambridge: Polity Press, 1991. – P. 44-52.
6. Beck U. *Risk Society: Towards a New Modernity*. – London: Sage Publications, 1992. – P. 18-22.
7. Caforio G. *Handbook of the Sociology of the Military*. – New York: Springer, 2006. – P. 74-82.
8. Bourdieu P. *The Forms of Capital*, 1986. – P. 248
9. Normuratova M. Harbiy xizmatchilarda axborot madaniyatini shakllantirish. “Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma’naviy-ma’rifiy texnologiyalari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami.Toshkent.2019. –B.21-23.
10. Xursandov A., Qodirov G‘. Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Tohtbyu, 2015. –B.47-48.
11. Mirjavkharova F. Transformatsion jamiyatda harbiylik kasbi: orientatsiya va deformatsiya (kasbiy buzilish) sabablari, omillari va uning namoyon bo‘lishi//Ijtimoyi tadqiqotlar jurnali. №SI-3/2024. – B. 148-155.
12. Kurmanov Z. *Military Profession and Youth Identity Transformation in Central Asia*. – Almaty, 2020. – P. 88-96.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Boboyev Sherzod,**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: sherzodik7997@gmail.com

# O‘ZBEKISTONDA XAYRIYA AMALIYOTINING TARIXIY-RETROSPEKTIV TAHLILI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida xayriya amaliyotining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy-retrospektiv nuqtai nazardan tahlil qilsinadi. Tadqiqotda xayriya fenomenining ildizlari “Avesto” dagi ezgulik g‘oyalaridan boshlab, Qur’oni Karim va hadisi shariflardagi zakot, sadaqa va vaqf tushunchalari orqali islomiy qadriyat sifatida mustahkamlanishi yoritib berilgan. Maqolada tasavvuf ta’limotining insonparvarlik tamoyillari, xususan, nafsni tiyish va o‘zgalarga beg‘araz yordam berish g‘oyalarining jamiyat ijtimoiy hayotiga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, Amir Temur davridagi markazlashgan ijtimoiy himoya tizimi, davlat tomonidan kambag‘al va muhtojlarga ko‘rsatilgan g‘amxo‘rlik hamda Alisher Navoiyning bevosita xayriya faoliyati u qurgan madrasalar, shifoxonalar va rabotlar misolida vaqf tizimining yuksak namunalari tahlil qilinadi. Muallif ajdodlarimizning ushbu boy ma’naviy merosi bugungi kunda O‘zbekistonda xayriya madaniyatini tizimli rivojlantirish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilishini asoslab beradi.

**Kalit so‘zlar:** xayriya, retrospektiv tahlil, Avesto, Qur’oni Karim, tasavvuf, Amir Temur, Alisher Navoiy, vaqf, ijtimoiy adolat, ma’naviy meros.

---

**Бобоев Шерзод,**
соискатель
Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека
e-mail: sherzodik7997@gmail.com

# ИСТОРИКО-РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ АНАЛИЗ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье проводится ретроспективный анализ становления и развития благотворительной практики на территории Узбекистана. Исследование прослеживает истоки феномена благотворительности, начиная с идей гуманизма в «Авесте» и заканчивая их закреплением в качестве исламских ценностей через институты закята, садака и вакфа, изложенные в Священном Коране. В статье раскрывается влияние принципов суфизма на социальную жизнь общества, в частности идей бескорыстной помощи ближнему. Также анализируется централизованная система социальной защиты в эпоху Амира Темура и деятельность Алишера Навоии, чье личное меценатство строительство медресе, больниц и

рабатов стало высшим примером развития системы вакфа. Автор обосновывает, что богатое духовное наследие предков служит прочным фундаментом для системного развития культуры благотворительности в современном Узбекистане.

**Ключевые слова:** благотворительность, ретроспективный анализ, Авеста, Коран, суфизм, Амир Темур, Алишер Навои, вакф, социальная справедливость, духовное наследие.

---

**Boboev Sherzod,**
Independent Researcher
National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek
e-mail: sherzodik7997@gmail.com

## A HISTORICAL AND RETROSPECTIVE ANALYSIS OF CHARITABLE PRACTICES IN UZBEKISTAN

**ABSTRACT**

This article provides a retrospective analysis of the formation and evolution of charitable practices in Uzbekistan. The study traces the roots of the phenomenon of philanthropy, starting from the ideas of benevolence in the “Avesta” and their subsequent consolidation as core Islamic values through the institutions of zakat, sadaqah, and waqf as outlined in the Qurani Karim. The paper explores the influence of sufism and its humanitarian principles specifically the concepts of selflessness and altruistic aid on the social fabric of society. Furthermore, it analyzes the centralized social welfare system established during the era of Amir Temur, as well as the extensive philanthropic activities of Alisher Navoiy, whose contributions to the construction of madrasas, hospitals, and rabats serve as pinnacle examples of the waqf system. The author argues that this rich spiritual heritage of ancestors serves as a vital foundation for the systematic development of a modern culture of charity in contemporary Uzbekistan.

**Keywords:** charity, retrospective analysis, Avesta, Qurani Karim, sufism, Amir Temur, Alisher Navoiy, waqf, social justice, spiritual heritage.

---

### KIRISH

Tarixiy tajriba shuni koʻrsatadiki, Markaziy Osiyoda xayriya – ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida inqirozli davrlarda jamiyatni parchalanishdan asrab qoluvchi va rivojlanishga turtki beruvchi mukammal ijtimoiy xavfsizlik tizimi boʻlib kelgan. Asrlar davomida xayriya faoliyatining turlari va shakllari rivojlanib bordi. Bu jarayonda, nafaqat uning subyektlari va obyektlari oʻzgardi, balki odamlarni fidokorona ijtimoiy yordam koʻrsatishga undaydigan qiymat va semantik koʻrsatmalar tizimi ham oʻzgartirildi.

Markaziy Osiyoda xayriya omili “Avesto” davridagi ilk axloqiy me’yorlardan boshlab, Islom Renessansi davridagi tizimli vaqf institutlari orqali Temuriylar davridagi markazlashgan davlat siyosati darajasigacha evolyusion yoʻlni bosib oʻtgan. Bu jarayonda xayriya oddiy saxovatdan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy institutga aylangan.

Xayriya faoliyati faqat qonunlar bilan emas, balki jamiyatning ichki axloqiy kodeksi (zardoʻshtiylikdagi triada, islomdagi zakot va ehson) bilan mustahkamlangan. Bu esa ijtimoiy yordamning majburiy emas, balki ixtiyoriy va ommaviy xarakterga ega boʻlishiga, natijada jamiyatda kuchli ijtimoiy birdamlik shakllanishiga xizmat qilgan.

### METODOLOGIYA

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Avesto”ning ijtimoiy ma’naviy ahamiyatini alohida koʻrsatib: “Bundan 2700 yil muqaddam Osiyo hududida yaratilgan eng qoʻhna yozma yodgorlik – “Avesto” kitobida ham inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlarni oʻzaro hurmat va ishonch tamoyillari negizida barpo etish gʻoyalari muhim oʻrin tutadi, zoʻravonlik va adolatsizlik rad etiladi” – deb ta’kidlaydilar [1, – B.68]. Ushbu ma’noda zardoʻshtiylik ta’limotida boylik toʻplashning asl maqsadi xayriya qilishda saxiylik va muhtojlarga koʻmaklashish deb belgilanishi, jamiyatdagi mulkiy tengsizlikni jilovlovchi ilk «ijtimoiy mexanizm» vazifasini oʻtagan.

Bu yondashuv jamiyatning ma'naviy inqirozi oldini oluvchi iqtisodiy-ma'naviy vosita sifatida namoyon boʻladi.

Markaziy Osiyo davlatlarida xayriya haqidagi ilk ma'lumotlar zardoʻshtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da keltiriladi. Avestoning ijtimoiy, axloqiy, falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu soʻz" va "ezgu amal" kabi muqaddas uchlik (axloqiy triada)da oʻz ifodasini topadi [2, – B.18]. Bu ijtimoiy genetik ildizlar va davomiylikni anglatib, mintaqamizda ijtimoiy adolat va insonparvarlik gʻoyalari islomgacha boʻlgan davrdayoq shakllanganligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Zero, Avestoda ilgari surilgan axloqiy triada butun jamiyat uchun ijtimoiy faoliyat mezoni sifatida xizmat qiligan. Ushbu tamoyil kishilar orasida xayriyaning ana'naviy-funksional asosi boʻlib xizmat qilgan. Bunda «ezgu amal» faqat individual fazilat emas, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi majburiy axloqiy me'yor vazifasini oʻtagan.

Zardoʻshtiylik dini ijtimoiy tabaqalanishga oʻtish davrida vujudga kelgan va muayyyan ijtimoy-iqtisodiy oʻzgarishlar asosida mavjud munosabatlarni diniy shaklda ifodalagan. Sotsiologiya fanlari doktori, professor M.B.Bekmurodov fikriga koʻra: "Avesto asarida ifodalangan monotestik diniy-falsafiy kategoriyalar va tushunchalar, dunyoni ramziy talqin etish usullari keyingi davrlarda insoniyat hayotiga kirib kelgan va takomillashgan konfessiyalarda mustahkam oʻrin olib kelgan" [3, – B.11]. Axloqiy triada – faqirlarga gʻamxoʻrlik, insonparvarlik, kishiga isnod keltiruvchi ishlardan holi boʻlishni nazarda tutadi. Ijtimoiy hayotning turli sohalarini boshqaruvchi ilohlar (Mitra, Porindiy) timsolida zoʻravonlik va adolatsizlikning qoralanishi, ijtimoiy muhofazaning ma'naviy-huquqiy institut sifatida shakllanganini koʻrsatadi.

**ASOSIY QISM**

Islom dinining insonparvarlik gʻoyalari ta'sirida muhtoj qatlamlarga gʻamxoʻrlik tizimlashtirildi. Muqaddas Qur'oni karim oyatlariga tayangan holda xalq ma'rifatga chorlandi. Islom dini kishining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy huquqlari, burch va majburiyatlari, oʻzaro munosabatlarda axloq me'yorlarini tartiblab berdi. Xususan, vaqf, zakot, fidya kabi amallardan yigʻilgan mablagʻlar maxsus jamgʻarmalarga aylantirildi. Ushbu jamgʻarmalar hisobidan kambagʻallar, qarzdorlarga koʻmaklashish, qullikka tushganlarni ozod qilish, och-nahorlar, yetim-yesirlar va beva-bechoralarga oziq-ovqat ulashish maqsadida foydalanildi. Islom dinining yoyilishi bilan xayriya faoliyati ixtiyoriy amaldan tizimli ijtimoiy institut darajasiga koʻtarildi. Zakot, vaqf va fidya kabi mexanizmlar orqali mablagʻlarni qayta taqsimlashning ilk "ijtimoiy jamgʻarmalari" shakllandi, bu esa jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlikni yumshatishning huquqiy-moliyaviy asosi boʻlib xizmat qildi.

Bu ezgu amallarni keng yoyilishida hadislarning ta'siri katta boʻldi. Hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriyning shoh asari "Al-jome' as-Sahih" asarida "Nafaqa berishni oʻzingdan boshla! Agarda ortsa oila a'zolaringga sarfla, agarda ulardan ham ortsa qarindoshlaringga sarfla. Agarda qarindoshlaringdan ham ortsa shu yoʻsinda avval yaqin, keyin uzoqlaringga sarflayber"-deb ta'kidlanadi [4, – B.475-476]. Imom al-Buxoriy hadislarida bayon etilgan nafaqa berish tartibi (inson-oila-qarindosh-jamiyat) ijtimoiy mas'uliyatning mantiqiy zanjirini belgilab beradi. Bu yondashuv jamiyatning eng kichik boʻgʻini (oila) barqarorligi orqali umumiy ijtimoiy farovonlikka erishish strategiyasini ifodalaydi.

Islom ta'limotida xayriya obyektlarining aniq belgilanishi (qarzdorlar, yetimlar, bevalar, ozodlikdan mahrum boʻlganlar) ijtimoiy himoya tizimining nafaqat moddiy, balki huquqiy va insonparvarlik xarakterini ham ochib beradi. Islom aqidalari asosida oʻzligini anglab yetgan insonda mashaqqatlarni yengib oʻtishda ruhiy quvvat hosil boʻladi. Islom dinida ratsional qarashlar qoʻllab-quvvatlanadi. Sotsiologiya fanlari doktori B.Farfiev "islomda farz amallaridan biri boʻlgan ramazon roʻzasini sogʻ-salomat boʻlgan va safarga chiqmagan kishi tutishi talab etiladi. Agar uning salomatligi bunga monelik qilsa, unda u fidya, ya'ni bir muhtoj kishining bir oylik oziq-ovqatini ta'minlash orqali ushbu farz amalidan ozod boʻladi", – deydi [5, – B.82]. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning diniy-axloqiy me'yorlar bilan tartiblanishi, xayriyani shunchaki iqtisodiy jarayon emas, balki shaxsning ma'naviy burchi sifatida talqin etdi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy birdamlik (solidarlik) va mas'uliyat hissini kuchaytiruvchi muhim omil boʻldi.

Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar XIV-XV asrlar) Renessans davrida xayriya – nochorlikdan aziyat chekuvchilarni qoʻllab-quvvatlash masalasida ma'rifatparvar

mutafakkirlar va davlat arboblari ijtimoiy qarashlarida muqobil yondashuvlar shakllandi. Bu davrlar Markaziy Osiyoning buyuk allomalari va mutafakkirlarini yaratdi. Ularning gumanistik g‘oyalar bilan sug‘orilgan ilmiy, madaniy merosi saxovat, insonparvarlik, ezgulikka yo‘naltirilgan.

Abu Rayxon Beruniy “halol yo‘l bilan to‘plagan mollaridan ehson qiluvchi, miskin va beva-bechoralarga rahmu shafqat qiladigan odamga ko‘p yaxshiliklar bo‘lur” – deb o‘zgalar ko‘magiga muhtoj qatlamlarga g‘amxo‘rlik qilishga chaqiradi [6, – B.12]. Abu Rayhon Beruniy talqinida ehsonning qiymati nafaqat uning miqdori, balki manbasining “halolligi” bilan belgilanadi. Bu ijtimoiy ko‘mak tizimida iqtisodiy omil bilan axloqiy me’yorning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatuvchi muhim ilmiy xulosadir.

Yusuf xos Hojib (1016-yil yoki 1018-yilda tug‘ilgan) o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida ijtimoiy tarbiya, turli toifadagi kishilarning o‘zaro munosabatlarida axloq me’yorlari kabi masalalarni yuksak iste’dod bilan bayon qilib beradi [7, – B.367]. Alloma mazkur asarning “O‘gdulmish O‘zg‘urmishga ko‘p avom xalq bilan muomala qilmoqlikni o‘rgatdi” bobida jamiyatning 10 dan ortiq ijtimoiy toifalarga ajratilishi va har bir toifa (olim, hunarmand, kambag‘al va h.k.) bilan muomala qilish qoidalarining ishlab chiqilishi o‘sha davrda ijtimoiy munosabatlarning naqadar murakkab va tizimli bo‘lganligini isbotlaydi. Allomaning fikrlaridan o‘z davrida xayriyaning axloqiy-huquqiy legitimligi yaqqol sezilib turadi. Yusuf Xos Hojib tomonidan kambag‘al va nochorlar alohida ijtimoiy tabaqa sifatida e’tirof etilishi va ularga nisbatan “saxiy bo‘lish” tavsiyasi – davlat va jamiyat boshqaruvida ijtimoiy balansni saqlashning asosiy vositasi sifatida talqin etilgan.

Nizomulmulk (1018-1092) o‘zining “Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk” asarida nochor, ilojsiz kishilarga moliyaviy ko‘mak berish va inson huquqlari daxlsizligi tamoyillariga rioya qilish zaruratini ko‘rsatadi [8, – B.98]. Nizomulmulk talqinida nochor va ilojsiz kishilarga moliyaviy ko‘mak berish shunchaki xayriya emas, balki davlatning fuqarolar oldidagi burchi va inson huquqlari daxlsizligining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Mashvarat va kengash (kollegiallik) tamoyilining ilgari surilishi, ijtimoiy masalalarni hal etishda xalq ovozi va mutaxassislar fikriga tayanish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yerda insonning «tanu moli va bola-chaqasi» daxlsizligi davlat tomonidan kafolatlangan eng oliy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Nizomulmulk qarashlari davlat va fuqaro o‘rtasidagi o‘zaro majburiyatlarga asoslangan ijtimoiy muvozanatni ifodalaydi. Xalqdan soliq (haq mol) olish faqat ularning farovonligi va xavfsizligi ta’minlangan taqdirdagina legitim (qonuniy) hisoblangan.

Xo‘ja Bahovuddin Naqshbandiyning tasavvuf tariqati asosida mehnatsevarlik yotadi. U kun ko‘rish uchun mehnat qilish zaruriyatini ko‘rsatadi [9, – B.285]. Naqshbandiy asos solgan tariqat negizida “ko‘ngil Xudoda bo‘lsin-u, qo‘l ish bilan band bo‘lsin” (“dil ba yoru, dast ba kor”) shiori yotadi [10, – B.183-184]. Ushbu shior dunyoviy faoliyat (mehnat) va ma’naviy yuksalishni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymaydi. Bu yondashuv jamiyatda iqtisodiy farovonlik bilan bir qatorda ma’naviy qadriyatlarning ham ustuvor bo‘lishini ta’minlaydi va ijtimoiy uyg‘unlikni vujudga keltiradi.

Naqshbandiya tariqatining asosiy konsepsiyasi ijtimoiy boqimandalikni (tekinxo‘rlikni) qat’iy rad etadi. Insonning ilohiy kamoloti va axloqiy pokligi bevosita uning halol mehnati va kasb-hunar egallashi bilan bog‘lanadi. Bu esa insonni faqat yordam oluvchi emas, balki o‘z moddiy ehtiyojlarini mustaqil ta’minlovchi subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Naqshbandiy saxovati shuni ko‘rsatadiki, sufiylikning asl mohiyati faqat o‘z nafsini tiyish emas, balki topgan halol daromadidan boshqalarga ko‘maklashish (altruizm) va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishdir.

Xo‘ja Ahmad Yassaviy (1041-1166-1167) o‘zining “Devoni hikmat” she’riy asarida poklik, to‘g‘rilik, kamsuqumlik, mehr-shafqat, halol kun kechirish, nafsni tiyishga intilish, iymonli bo‘lish kabi asl insoniy fazilatlarni ulug‘lagan [11, – B.234]. Uning tariqatlarida oddiy xalq, yo‘qsillar butun bir qatlam sifatida ta’riflanadi. Ularni g‘ariblar, yetimlar, faqirlar tabaqasi nomi bilan atab, mulkdorlarga aynan shu qatlamlarga nisbatan g‘amxo‘rlik qilish nasihati beriladi. Nafsni tiyish – ortiqcha isrofgarchilik va boylikka hirs qo‘yishdan qaytarsa, muruvvat – topgan daromadni ijtimoiy xayriyaga yo‘naltirishni anglatadi. Yassaviy ta’limoti tasavvufni murakkab nazariyalardan oddiy xalq tushunadigan axloqiy dasturga aylantirdi. Bu model ijtimoiy ojiz tabaqalarning haq-huquqlarini muhofaza qilishda kuchli ma’naviy qalqon vazifasini o‘tagan.

Yassaviy ta’limotida ijtimoiy adolatsizlikka qarshi keskin munosabat bildirilishi jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan. Hukmdorlarni mehr-shafqatga chaqirish orqali u davlat va xalq o‘rtasidagi ishonch ko‘prigini mustahkamlashga intilgan. Insof, muruvvat va nafsni tiyish kabi tushunchalar Yassaviyda shunchaki abstrakt fazilatlar emas, balki iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi omillardir.

Xo‘ja Axror Valiy (1404-1490) juda katta nufuzi va zukko bilimi, tuganmas mol-mulklari bo‘lsa-da darveshona hayot kechirib, kambag‘alparvar bo‘lganlar. Xo‘ja Ahror Valiy nochorlikni “taqdiri azal” (fatalizm) sifatida qabul qilishga qarshi chiqib, uni insonning individual xatti-harakati bilan bog‘laydi. Bu ilmiy jihatdan “boыimandalik ongini”ni yengish va insonni ijtimoiy qaramlikdan faol hayotga yo‘naltirishning ilk konseptual modellaridan biridir. Boburmirzo o‘zining “Risolai volidiyyia” asarida Xo‘ja Axror Valiy lutf iltifot qilgan chog‘larida nafaqat shohga balki, gadolarga ham toj bag‘ishlab, uni ma’naviy podshoh qilib yuborar edilar, haq so‘zni aytganlarida shohu gadoni teng bilardilar” – deb ehtirom bilan xotirlaydi [12, – B.367].

Xo‘ja Axror Valiy g‘oyalarida nochorlik nafaqat taqdiri azal, balki kishining xatti-harakatiga bog‘liq bo‘lib, harakatsizlik va o‘z taqdiriga loqaydlik boqimandalik manbai sifatida qaralgan. Najmiddin Kubro esa: “Muvaffaqiyat sayi’-harakatda, muvaffaqiyatsizlik dangasalikda” – deb biladi [13, – B.230]. Najmiddin Kubroning “muvaffaqiyat – harakatda” degan formulasi ijtimoiy muhofaza tizimida mehnat orqali reabilitatsiya qilish tamoyiliga mos keladi. Bu yerda xayriya va yordam insonni dangasalikka emas, balki o‘z imkoniyatlarini ishga solishga (sa’y-harakatga) undashi shartligi ustuvor etib belgilangan.

Davlat arboblari tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini ta’minlab turishda vaqf mulklaridan foydalanish amaliyoti kuzatiladi. Qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr Samarqandda bunyod etilgan madrasa majmuini ta’minlash uchun uch mehmonxona, bir karvonsaroy, bir erkaklar hammomi, suv ayirgich, uzumzor, bir qancha ekin yerlari va boshqalardan keladigan daromadni vaqf qilib bergani haqida ilmiy guvohliklar mavjud [14, – B.368].

Nochorlar davolanuvchi bir shifoxona ixtiyoriga butun imoratlari, rastalari bilan ikki karvonsaroyni ham taqdim (vaqf) etdi. Vaqfda ko‘rsatilgan umumiy pul miqdoridan 1,5 ming dirham talabalarga stipendiya sifatida ajratilgan [15, – B.38]. Shifoxonalarning vaqf daromadlari hisobidan to‘liq ta’minlanishi (dori-darmon, oziq-ovqat, xodimlar maoshi) – aholining nochor qatlamlari uchun bepul va sifatli tibbiy xizmat kafolati bo‘lgan. Bu ijtimoiy davlatchilikning ilk tarixiy ko‘rinishlaridan biridir. Talabalarga bilim darajasiga qarab differensial stipendiyalar ajratilishi “inson kapitali”ga investitsiya kiritishning ilg‘or usuli hisoblanadi.

Vaqf hujjatidagi “agar muassasa faoliyati to‘xtasa, mablag‘ beva-bechoralarga berilsin” degan shart ijtimoiy mablag‘larning hech qachon xususiylashtirilmasligi va doim muhtojlar manfaatiga xizmat qilishini ta’minlovchi huquqiy kafolatdir. Qoraxoniylar davridagi vaqf tizimi bugungi kundagi ijtimoiy tadbirkorlik va maqsadli jamg‘armalarning tarixiy analogi bo‘lib, u ijtimoiy sohani budjetdan tashqari mustaqil moliyalashtirishning mukammal modelini namoyish etgan.

Amir Temur (1336-1405) va temuriylar davlat siyosati haqida Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Bu davr Sohibqiron Amir Temur bobomizni jahon sahnasiga olib chiqdi va Temuriylar Renessansi, Ikkinchi uyg‘onish davri g‘oyalari va xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bunda xalq orzusi markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvor bo‘lgan adolatli jamiyat g‘oyasida mujassam bo‘ldi [16, – B.17]. Sohibqiron o‘zining ulkan saltanatini boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbirlar bilan ish yuritadi.

“Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim” [17, – B.77], degan fikr, o‘sha davrdayoq aholining ijtimoiy holatini o‘rganishning tizimli monitoringi mavjud bo‘lganligini anglatadi. U Samarqand, Shahrisabz va boshqa yirik shaharlarda madrasalar, masjidlar va shifoxonalar qurgan. U yerda och-nahorlar, musofirlar va g‘ariblar uchun kundalik bepul taomlar tarqatilgan. Ushbu muassasalarni ta’minlash uchun ularga yerlar va savdo rastalarini vaqf qilib bergan. Ulardan keladigan daromad yetimlar, bevalar va talabalarning ehtiyojlari uchun sarflangan.

Dehqonlarga yerni tiklash uchun urug‘lik, ish hayvonlari va asbob-uskunalar bepul berilgan. Bu insonni muhtojlikdan chiqarish uchun berilgan eng katta “xayriya” edi. Iste’dodli, ammo mablag‘i yo‘q yoshlarga ta’lim olishlari uchun maxsus grantlar (stipendiyalar) ajratgan. Saltanatdagi barcha

tilanchi va qashshoqlar roʻyxatga olingan. Ularga davlat xazinasidan muayyan miqdorda oziq-ovqat va kiyim-kechak (nafaqa) berilgan. Nafaqa olayotgan shaxslarga tilanchilik qilish taqiqlangan. Amir Temur saxiylik va xayriyada pragmatik siyosat yuritgan. Agar kimdir nafaqa olib turib yana tilanchilik qilsa, u saltanatdan chiqarib yuborilgan. Bu boqimandalikka qarshi kurashning ilk modeli edi.

Keyinchalik temuriy Umarshayx Mirzo oʻzining hukmronligiga qarashli har bir kasabada insofli dorugʻa tayinladi. Ishi tushib kelganlarning iltimoslarini ijobat etishda inoyat va iltifot koʻrsatdi. Xondamir ushbu asarida temuriy shahzodalardan yana biri Muhammad Boburning zgulik yoʻlidagi ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqidagi bebaho maʼlumotlarni berar ekan, uni "Podshohi karami bandanavoz", yaʼni "bandalarni siylovchi mehribon podshoh" sifatida yuksak karam va yaxshilik, ne qadar cheksiz shafqat va saxovat namunasi sifatida tilga oladi. Boburmirzoning mehribon podshoh sifatidagi lutf va ehson dovrugʻi barcha toyifa kishilarining eʼtirofiga sazovor boʻlganligi, uning saltanatida inʼom va ehson eshiklari barcha uchun birday ochiq boʻlganligini qayd etadi [18, – B.255]. Muhtoj qatlamlarga differensiallashgan (tabaqalashtirilgan) holda yondashish yordamning manzilliligini va samaradorligini oshirgan. Bu har bir ijtimoiy guruhning (yetimlar, bevalar, qarzdorlar va h.k.) oʻziga xos ehtiyojlaridan kelib chiqib koʻmak berilganini anglatadi. Temuriy shahzodalar boshqaruvi insofli maʼmuriyat, iqtisodiy tartibga solish va manzilli xayriyaning uygʻunlashgan tizimi sifatida namoyon boʻladi.

Alisher Navoiy hazratlar va oliyjanob ahloq sohibi sifatida nafaqat ulkan ilmiy-adabiy meros sohibi, balki oddiy xalq manfaatiga xizmat qilgan xayrli ishlari bilan tahsinga sazovor boʻldilar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev eʼtirof etganlaridek: "...buyuk Alisher Navoiy bobomizning bitta koʻngli oʻksik odamni xursand qilish Kaʼbani obod etish bilan barobar, degan teran maʼnoli soʻzlari mehr-oqibat, saxovat va olijanoblik kabi fazilatlarni doim qadrlab, ulugʻlab yashaydigan xalqimizning orzu-intilishlariga har tomonlama uygʻun va hamohangdir" [19, – B.57].

Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida jamiyatni 32 xil ijtimoiy qatlamga ajratishi oʻrta asrlar Sharq sotsiologik fikrining yuksak namunasidir. Asarda nafaqat yuqori tabaqa, balki gʻariblar, bechoralar va hatto tekinxoʻrlarni alohida toifa sifatida tahlil qilishi, ijtimoiy muammolarni ilmiy va miqdoriy diagnostika qilishga urinish sifatida baholanadi. Xususan, ijtimoiy qatlamlarning yigirma yettinchisi "gʻarib va bechoralar", yigirma akkizinchisi "gadoylar"dan iborat boʻldi [20, – B.36].

Navoiyning shaxsiy mablagʻlari hisobidan qurilgan 52 rabot, 16 koʻprik, 9 hammom va shifoxonalar xayriyaning faqat pul berish emas, balki ijtimoiy servis infratuzilmasini yaratish ekanligini koʻrsatadi. Bu obyektlar aholining harakatlanishi, salomatligi va taʼlimi uchun xizmat qilib, kambagʻallikni bilvosita kamaytiruvchi iqtisodiy omil boʻlgan.

Alisher Navoiyning vaqf yerlariga bagʻishlangan "Vaqfiya" asarida madrasa ahli va talabalarga toʻlanadigan maosh va moddiy yordam mablagʻlari naqadar aniq taqsimlanganligini keltiriladi [21, – B.137]. Asarda xayriya mablagʻlarining qatʼiy huquqiy asosda, maqsadli va shaffof taqsimlanishini kafolatlovchi nizom vazifasini oʻtagan. Bu oʻrta asrlarda ijtimoiy xayriyaning yuksak institutsional darajaga koʻtarilganini isbotlaydi.Unga koʻra, mudarris xodimlarga va hatto tolibi ilmlarga yillik maosh naqd aqchadan iborat boʻlib qolmay, unga yemak uchun zarur boʻlgan oshliq bugʻdoy, apra ham kiritilgan.

Alisher Navoiy oʻzi barpo qilgan "Ixlosiya" madrasasi xodimlari va tolibi ilmlariga yillik vaqf maosh – ravotibni (ravotib- xizmatchilarga vaqti vaqti bilan berib turiladigan maosh, nafaqa va boshqa moddiy yordamlarni anglatadi) asosan Hirot madrasalari vaqfnomalariga tayangan holda belgilaydi [22]. Ushbu maqsadda qisman xazina, podshoh hadya etgan suyurgʻol va hadyalar, meros yerlardan kelgan katta daromaddan foydalandi. Madrasada aʼlo oʻqigan talabalarga "oylik naqd yigirma toʻrt oltun, yilda bugʻdoy besh yuk", oʻrtacha oʻqigan sakkiz nafar talabaga oylik har biriga naqd oʻn olti oltun, bugʻdoy yillik "toʻrt yuk", "past" ("adno") oʻqigan sakkiz nafar talabaga talabaga "oylik har biriga naqd oʻn ikki oltun, bugʻdoy uch yuk" tayinlangan.

Ixlosiya mardasasining qarshisida, katta koʻcha yonida bir xonaqoh qurdirgan, unda har kuni kambagʻallar hamda shu yerda yashovchilarga taom, har yili ehtiyoji borlarga kiyim tarqatilgan. Xonaqoh imorati odamlar koʻnglidagi ikkilanishlardan qutqargani, har qanday yuzakilik va gʻashdan

xoli qilgani uchun "Xolisiya" deb nomlangan [23, – B.650]. "Xolisiya" xonaqosida zaifa va miskinlarga kunlik tekin oziq-ovqat ulashish tartibi joriy etilgan.

Madrasa ("Ixlosiya") va xonaqoh ("Xolisiya") ning yonma-yon qurilishi hamda ularda ta'lim va ijtimoiy yordamning (bepul taom va kiyim-kechak) integratsiya qilinishi jamiyatning ham ma'naviy, ham moddiy ehtiyojlarini bir vaqtda qondirishga qaratilgan klasterli yondashuvdir.

Navoiyning xayriya tizimi insonning ijtimoiy holatini yaxshilashda ta'limni moddiy ko'mak bilan bog'lagan va uni mustahkam iqtisodiy poydevorga (vaqfga) tayantirgan mukammal ijtimoiy boshqaruv modelidir.

**XULOSA**

Mutafakkirlar qarashlarida muhtoj qatlamlarga g'amxo'rlik qilish faqat shaxsiy fazilat emas, balki «jamiyatning barqaror yashash sharti» sifatida bayon etilgan. Bu esa ijtimoiy himoyaning falsafiy asoslarini «inson qadri» tushunchasi bilan bog'laydi. Ularning xayriya borasidagi qarashlarida stimul beruvchi yondashuv (Naqshbandiy, Kubro, Abu Hafs Kabir), ya'ni insonni mehnatga, kasb-hunarga yo'naltirish orqali boqimandalikning oldini olish va gumanitar yondashuv (Yassaviy, Navoiy, Beruniy), ya'ni jamiyatning obyektiv ravishda ojiz qatlamlarini (yetimlar, bevalar, musofirlar) to'liq ijtimoiy ta'minotga olish yo'nalishlari yaqqol sezilib turadi. Tarixiy davrlarda, jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiya kuchaygan, inqirozlar odatiy hayot maromini buzgan paytda xayriya shunchaki moddiy yordam emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik omilga aylanadi.

Vaqf tizimi (qoraxoniylar, temuriylar va Navoiy misolida) xayriyaning institutsional va moliyaviy mexanizmi sifatida ijtimoiy sohani (ta'lim, tibbiyot, xayriya oshxonalari) moliyalashtirishda barqaror va avtonom vosita bo'lib xizmat qiladi. U davlat budjetiga yuq bo'lmagan holda, xususiy mulk va tijorat daromadlarini ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirishning "tarixiy ijtimoiy tadbirkorlik" modelidir. Xususan, Alisher Navoiyning "Vaqfiya" asaridagi differensial stipendiyalar tizimi va Temurning olimlarga bo'lgan g'amxo'rligi shuni ko'rsatadiki, xayriya faqat "qornini to'ydirish" emas, balki inson kapitalini rivojlantirish vositasi bo'lgan. Yordamning bilim va natijadorlikka qarab taqsimlanishi ijtimoiy lift vazifasini o'tagan.

Nizomulmulk, Amir Temur va Temuriy shahzodalar faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, aholining muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash davlatning siyosiy legitimligi va ichki xavfsizligining asosiy sharti deb bilingan. Adolat arkonlari orqali ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish markazlashgan davlat boshqaruvining strategik ustuvorligi bo'lgan.

**Adabiyotlar/ Literatura/ References:**


1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – B. 68.
2. Islom. Ensiklopediya. /Z.Husniddinov tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B. 18.
3. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi /Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B. 11.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. T.3. – Toshkent: Qomuslar, 1997. – B. 475-476.
5. Farfiev B.A. O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom ratsionalizmi omili. Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: O'zRDBA, 2020. – B. 82.
6. Abu Rayhon Beruniy tarvihalar. "Javohirot kitobi" dan. //Arabchadan A.Irisov tarjimasi. – Toshkent: Xalq merosi, 1991. – B. 12.
7. Yusuf xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Akademnashr", 2015. – B 367.
8. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul muluk. – Toshkent: Adolat, 1997. – B. 98.
9. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. / to'ldirilgan nashr. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2016. – B. 285-293.

10. Islom. Ensiklopediya. /Z.Husniddinov tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B. 183-184.
11. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – B. 234.
12. Zahiruddin Muhammad Bobur. Mubayyan va nasriy bayoni, “Risolai Volidiyyia” asari nazmiy tarjimasi va sharhi. Nasriy bayoni va sharhlar muallifi M.Kenjabekov. – Toshkent: “Sharq”, 2014. – B. 367.
13. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. / To‘ldirilgan nashr. – Toshkent:O‘zbekiston, NMIU, 2016. – B. 230.
14. Ziyo A. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent:Sharq, 2000. – B. 368.
15. Tursunova M. Madrasalar ta’limi tarixidan lavhalar. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2017. – B. 38-39.
16. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O’zbekiston Nashriyoti, 2021. – B. 17.
17. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – B.77-89.
18. G‘iyosiddin bin Humomiddin Xondamir. Habib us-siyyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: Sharq, 2011 – B. 255-257.
19. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: O’qituvchi MU, 2021. – B. 57.
20. Alisher Navoiy. Mahbub ul qulub. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – B. 36.
21. Alisher Navoiy:qomusiy lug‘at. / Birinchi jild. A-S. Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: “Sharq”, 2016. – B. 137.
22. Tayirovna K.H. Scientific-methodical study of support for social innovations in the social protection system of the population //Academica: an international multidisciplinary research journal Учредители: Diva Enterprises Private Limited. – 2020. – Т. 10. – №. 8. – С. 635.
23. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 9 jild. Vaqfiya. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2012. – B. 650.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Anorboyeva Marifat,**
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
Universiteti magistranti
e-mail: majitovamarifat02@gmail.com

## YANGI O‘ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARIGA DOIR NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING KONTENT TAHLILI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Maqolada muallif Yangi O‘zbekistondagi urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuviga doir normativ-huquqiy hujjatlar kontent tahlil qilingan. Dastlab, “Kontent tahlil” tushunchasiga ta’rif berilib, uning boshqa tahlil usullaridan farqlari atroflicha yoritilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar doirasida 2019-2025-yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari hamda “Shaharsozlik kodeksi”ning kontent tahlili bayon qilingan. Shuningdek, urbanizatsiya siyosatidagi izchillik va tizimlilikni, hujjatlar orasidagi uzviy bog‘liqligi ochib berilgan. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi hujjatlarning mazmuni va strukturasi tahlil qilingan. Shu bilan birga ularning qonuniylik, tizimlilik va amaliy samaradorlik jihatlarini baholashga qaratilgan. Shu orqali Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining barqaror, qulay va inson manfaatlariga mos rivojlanishi ilmiy asoslari tahlili keltirilgan. Shuningdek, I.Hamedov va D.Tuxtamuratova, D.Ahmadjonovalarning qarashlarining tahlili yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat, siyosat, qonun, Shaharsozlik kodeksi, manfaat, farmon, qaror, normativ-huquqiy hujjatlar, inson, kontent tahlil, kommunikatsiya, tizimlilik, urbanizatsiya, sotsiologiya, sotsiologik tadqiqot.

---

**Анорбоева Марифат,**
магистрант Университета журналистики
и массовых коммуникаций Узбекистана
e-mail: majitovamarifat02@gmail.com

## КОНТЕНТ-АНАЛИЗ НОРМАТИВНЫХ И ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ ПО ПРОЦЕССАМ УРБАНИЗАЦИИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**АННОТАЦИЯ**

В статье автор проанализировал содержание нормативно-правовых актов по ускорению процессов урбанизации в Новом Узбекистане, описано понятие «контент - анализ» и подробно излагаются его отличия от других методов анализа. В рамках нормативно-правовых актов изложен контент-анализ законов, указов и постановлений Президента и «Градостроительного кодекса», принятых в 2019-2025 годах. Также выявлены последовательность и системность политики урбанизации, тесная взаимосвязь между документами. Проанализированы содержание и структура документов, регулирующих процессы урбанизации в Узбекистане. В

статье представлен анализ научных основ устойчивого, благоприятного и отвечающего интересам человека развития процессов урбанизации в Новом Узбекистане. Также освещен анализ взглядов И.Хамедова и Д.Тухтамуратовой, Д.Ахмаджоновой.

**Ключевые слова:** государство, политика, право, Кодекс городского планирования, интерес, указ, решение, нормативно-правовые документы, человек, контент-анализ, коммуникация, систематика, урбанизация, социология, социологические исследования.

---

**Anorboyeva Marifat,**
Master's student of the University
of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan
e-mail: majitovamarifat02@gmail.com

## CONTENT ANALYSIS OF REGULATORY AND LEGAL DOCUMENTS ON URBANIZATION PROCESSES IN NEW UZBEKISTAN

**ABSTRACT**

In the article, the author analyzed the content of regulatory legal acts to accelerate the processes of urbanization in New Uzbekistan. First, the concept of "content - analysis" was described and its differences from other methods of analysis were described in detail. Within the framework of regulatory legal acts, a content analysis of laws, decrees and resolutions of the President and the "Urban Planning Code" adopted in 2019-2025 is presented. The consistency and systematicity of the urbanization policy, the close relationship between the documents were also revealed. The content and structure of documents regulating urbanization processes in Uzbekistan were analyzed. At the same time, they are aimed at assessing their legality, consistency and practical effectiveness. Thus, an analysis of the scientific foundations of sustainable, favorable and human-friendly development of urbanization processes in New Uzbekistan is presented. The analysis of the views of I.Khamedov and D.Tukhtamuratova, D.Akhmadzhonova is also covered.

**Key words:** State, politics, law, urban planning code, interest, decree, decision, regulatory documents, person, content analysis, communication, taxonomy, urbanization, sociology, sociological research.

---

### KIRISH

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda urbanizatsiya jarayonlari sezilarli darajada jadallashdi. Shaharlar infratuzilmasi rivojlantirilishi, aholi punktlarini modernizatsiya qilish va yangi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish davlatning huquqiy asoslari bilan mustahkamlangan. Shu munosabat bilan, urbanizatsiyani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar – qonunlar, farmonlar, qarorlar va davlat dasturlari urbanizatsiya jarayonlarining strategik yoʻnalishlarini belgilaydi. Normativ-huquqiy hujjatlar urbanizatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi va jamiyat hayotida ijtimoiy-maʼnaviy barqarorlikni taʼminlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Kontent tahlili esa ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini tizimli oʻrganish va urbanizatsiya jarayonlarini yoshlar axloqi bilan bogʻlash imkonini beradi.

### METODOLOGIYA

Yangi Oʻzbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvini oʻrganishda, mazkur jarayonlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning kontent tahlilini oʻtkazish metodologik asoslarni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Urbanizatsiya jarayonlarini normativ-huquqiy nuqtai nazardan dastlabki talqini Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 22-fevralda qabul qilingan Shaharsozlik kodeksiida shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning rivojlanish strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni, 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-347-son “Oʻzbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qoʻmitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlarida yoritilgan. Jumladan, Oʻzbekiston

Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” urbanizatsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini atroflicha yoritib bergan.

Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining normativ-huquqiy asoslari va ularning yoshlar axloqi hamda ijtimoiy rivojlanish bilan bog‘liqligi o‘rganilgan. Tadqiqotning asosiy usuli sifatida kontent tahlili qo‘llanilib, PF-5623 (2019), Shaharsozlik kodeksi (2021), PF-60 (2022) va PQ-347 (2025) hujjatlaridagi asosiy tushunchalar, normativ iboralar va ijtimoiy mazmun tizimli va miqdoriy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, sotsiologik tahlil yondashuvi yordamida urbanizatsiya jarayonlari va yoshlar xulq-atvori, ijtimoiy farovonlik hamda hududiy rivojlanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik aniqlangan. Tadqiqot doirasida hujjatlarning g‘oyaviy va amaliy yo‘nalishlari, davlat boshqaruvi, ijtimoiy va iqtisodiy tamoyillar asosida tizimli tahlil qilingan. Natijalar urbanizatsiya siyosatining evolyutsiyasini ochib beradi. Jarayon dastlab markazlashgan va hududiy modeldan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy, bozor va insonparvar yondashuvga o‘tgan. Shu yo‘l bilan tadqiqot Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni uyg‘unlashtirgan tizimli yondashuv asosida tahlil qilish imkonini beradi.

**ASOSIY QISM**

Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuviga doir normativ-huquqiy hujjatlarning kontent tahlilini ko‘rib chiqishdan oldin, “Kontent tahlil” tushunchasi nimani anglatishini bilib olishimiz lozim. “Kontent tahlili (inglizcha "Contents" – kontent so‘zidan kelib chiqqan) matnli, vizual yoki audio ma’lumotlarni tizimli, obyektiv va miqdoriy o‘rganish usulidir. Bu usul yordamida xabarlar ichidagi yashirin ma’nolar, tendensiyalar va qonuniyatlar aniqlanadi. Kontent tahlili ijtimoiy fanlar sohasidagi standart tadqiqot usuli bo‘lib, uning mavzusi matn massivlari va kommunikativ yozishmalar mahsulotlarining mazmuni hisoblanadi” [1]. Kontent tahlili orqali hujjatlarning asosiy maqsadlari va vazifalari aniqlanadi. Shuningdek, kontent tahlili hujjatlarda yoshlarning axloqiy qadriyatlari urban muhit bilan bog‘liq masalalari qanchalik yoritilganini aniqlash imkonini beradi.

Kontent tahlili metodologiyasi yordamida normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni tizimli ravishda baholanishi mumkin. I.Hamedov ta’kidlaganidek, hujjatlarning strukturasi, mazmuniy elementi va kodlash imkoniyatlari ularning samaradorligini aniqlashda asosiy mezon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Yangi O‘zbekistonning urbanizatsiya bo‘yicha strategik va normativ-huquqiy hujjatlari kontent tahlili orqali ularning mazmuniy to‘liqligi va amaliy samaradorligi baholanishi mumkin [2]. Tuxtamuratova va Ahmadjonovaning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, urbanizatsiya nafaqat aholining shahar hududlariga ko‘chishini, balki hududiy nomutanosiblik va infratuzilma yuklamasini ham o‘z ichiga oladi [3]. Shu nuqtai nazardan, normativ-huquqiy hujjatlarni kontent tahlili orqali baholash bu jarayonlarning samaradorligini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Hujjatlar mazmunida migratsiya va hududiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq mexanizmlar qanchalik aniq ko‘rsatilganini tekshirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da aytilishicha: “Hududlarni kompleks rivojlantirish, shaharlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish va urbanizatsiya darajasini oshirish ustuvor vazifalardan biridir”[4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10-yanvardagi PF-5623-son “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni matnini kontent tahlil qilamiz. Mazkur farmon matnida “Urbanizatsiya” tushunchasi o‘n sakkiz marotaba ishlatilgan bo‘lib, bu urbanizatsiya masalasi hujjatning markaziy g‘oyasi ekanini ko‘rsatadi. “Shahar” va “Shaharsozlik” so‘zlari esa o‘ttiz marotaba ishlatilgan, bu esa urbanizatsiya jarayonining aynan shaharlar rivoji bilan uzviy bog‘langanini anglatadi. Shuningdek, “Uy-joy” tushunchasi yigirma marta, “Qurilish” so‘zi esa o‘n yetti marta qo‘llanilgan. Bu holat urbanizatsiya jarayonlari asosan uy-joy qurilishi va hududlarni kompleks o‘zlashtirish orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, farmon matnida “Davlat”, “Vakolat”, “Belgilansin”, “Tasdiqlansin”, “Yuklansin” kabi normativ-buyruq iboralari bir necha marotaba ishlatilgan bo‘lib, bu urbanizatsiya jarayonlari davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishini anglatadi. “Ijtimoiy”, “Aholi farovonligi”, “Turmush tarzi” kabi so‘zlar kamroq qo‘llanilgan bo‘lib, farmonda urbanizatsiya asosan tashkiliy-hududiy va institutsional jarayon sifatida talqin qilinganini ko‘rishimiz mumkin [5].

Mazkur kontent tahlil shuni koʻrsatadiki, farmonda urbanizatsiya davlat tomonidan faol boshqarilishi lozim boʻlgan strategik jarayon sifatida yoritilgan, shaharlar rivoji va uy-joy qurilishi orqali jadallashtirilishi koʻzda tutilgan va ijtimoiy omillardan koʻra institutsional va boshqaruv yondashuvi ustun boʻlgan. Umuman olganda, farmon Oʻzbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini tizimli, markazlashgan va rejalashtirilgan siyosat darajasiga koʻtargan normativ-huquqiy asos sifatida baholanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-347-son “Oʻzbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qoʻmitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori matnini ham kontent tahlil qilamiz. Qaror matnida “Urbanizatsiya” tushunchasi yigirma marta, “Shahar”, “Shaharsozlik”, “Aglomeratsiya” soʻzlari esa oʻttiz olti marta ishlatilgan. Bu urbanizatsiya masalasi qarorning asosiy mazmuniy yoʻnalishi ekanini koʻrsatadi. Shuningdek, “Uy-joy” tushunchasi oʻttiz marta, “Uy-joy bozori” iborasi esa oʻn besh marta uchraydi. Bu esa qarorda urbanizatsiya jarayonlarining uy-joy bozorini rivojlantirish bilan bevosita bogʻlanganini anglatadi. Shu bilan birga qaror matnida “Ijtimoiy” soʻzi oʻn ikki marotaba, “Aholi” tushunchasi yigirma sakkiz marotaba, “Turmush tarzi”, “Ijtimoiy infratuzilma” kabi iboralar esa yetti marotaba qoʻllanilgan. Bu urbanizatsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiy va hududiy, balki ijtimoiy yoʻnaltirilgan siyosat sifatida ham talqin qilinayotganini koʻrsatadi. Bundan tashqari, “Davlat”, “Vakolat”, “Belgilansin”, “Tasdiqlansin”, “Yuklansin” kabi normativ-buyruq shaklidagi iboralar bir necha marta ishlatilgan. Bu urbanizatsiya va uy-joy bozorini rivojlantirish jarayonlari davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishini bildiradi. Qarorda “Monitoring”, “Muvofiqlashtirish”, “Mas’ul tashkilotlar” kabi tushunchalarning ham mavjudligi urbanizatsiya jarayonlarining tizimli nazorat ostida olib borilishini anglatadi [6].

Ushbu tahlil natijasiga koʻra, qarorda urbanizatsiya davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida yoritilgan. Uy-joy bozorini rivojlantirish urbanizatsiyaning asosiy mexanizmi sifatida talqin qilingan. Ijtimoiy omillar, jumladan aholining turmush sifati va yashash sharoitlarini yaxshilash masalalari muhim, ammo boshqaruv va institutsional yondashuvga boʻysundirilgan. Urbanizatsiya jarayonlari “Xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat siyosati” konsepsiyasi bilan uygʻunlashtirilgan. Umuman olganda, qaror Yangi Oʻzbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini davlat – jamiyat – inson manfaatlari tamoyili asosida rivojlantirishga ijtimoiy yoʻnaltirilgan normativ-huquqiy hujjat sifatida baholanadi.

Demak, yuqoridagi ikki kontent tahlil natijalariga koʻra, Oʻzbekistonda urbanizatsiya jarayonlari 2019-2025 yillar davomida sezilarli darajada takomillashtirilgan. 2019-yil 10-yanvarda qabul qilingan PF-5623-son Prezident farmonida urbanizatsiya, asosan, past urbanizatsiya darajasini bartaraf etish, shaharlar tarmogʻini kengaytirish va uy-joy qurilishini jadallashtirishga qaratilgan. Farmon matnida buyruq xarakteridagi normativ iboralar ustun boʻlib, urbanizatsiya koʻproq hududiy va qurilish siyosati doirasida yoritilgan. 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-347-son qarorida esa urbanizatsiya masalasi yanada keng va ijtimoiy yoʻnaltirilgan mazmunda aks ettirilgan. Qaror matnida uy-joy bozori, aglomeratsiyalar, aholi ehtiyojlari, turmush tarzi va ijtimoiy infratuzilma bilan bogʻliq tushunchalarning koʻpayishi, urbanizatsiyaning inson manfaatlariga xizmat qiluvchi tizimli siyosatga aylanganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, bozor mexanizmlari, monitoring va muvofiqlashtirish tushunchalarining faol qoʻllanilishi urbanizatsiya jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuv shakllanganini anglatadi. Oʻzbekistonda urbanizatsiya jarayonlari dastlab markazli davlat va muammoli holatni bartaraf etishga qaratilgan modeldan, keyinchalik esa ijtimoiy, bozor va inson manfaatlariga yoʻnaltirilgan modelga oʻzgargan. Bu jarayon Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot konsepsiyasiga mos ravishda “davlat – jamiyat – inson” munosabatlarida inson omilining ustuvorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

“Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida”gi Qonunda: “Normativ-huquqiy hujjatlar qonuniylik, tizimlilik va aniqlik prinsiplari asosida ishlab chiqiladi” [7].

Demak, bu qonun normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini belgilovchi asosiy tamoyillarni koʻrsatadi. Qonuniylik prinsipi hujjatlarning boshqa qonun va me’yoriy hujjatlar bilan muvofiqligini ta’minlaydi, bu urbanizatsiya jarayonlarida qarorlarning qonuniy boʻlishi uchun muhimdir. Tizimlilik prinsipi hujjatlar oʻzaro izchil va bir-birini toʻldiruvchi boʻlishini kafolatlaydi, aks holda

amaliyotda chalkashlik yuzaga keladi. Aniqlik prinsipi esa hujjatlarning mazmunini tushunishni osonlashtirib, ijro jarayonidagi xatoliklarni kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan, bu tamoyillar urbanizatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi hujjatlarni baholashda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-fevralda qabul qilingan Shaharsozlik kodeksi matnida qo‘llanilgan asosiy tushunchalar va ularning mazmuniy yuklamasini kontent tahlil asosida aniqlaymiz. Kontent tahlil natijalariga ko‘ra, kodeks matnida “Shaharsozlik” tushunchasi qirq besh marta qo‘llanilgan bo‘lib, hujjatning asosiy predmeti aynan shaharsozlik faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish ekanini ko‘rsatadi. “Hududni rejalashtirish” va “Hudud” so‘zlari o‘ttiz sakkiz marta uchrab, urbanizatsiya jarayonlarida hududiy yondashuv ustuvor ekanini tasdiqlaydi. “Bosh reja” tushunchasi kodeks matnida o‘n yetti marta ishlatilgan bo‘lib, shahar va aholi punktlarini rivojlantirishda strategik rejalashtirish hujjatlari markaziy o‘rin tutishini anglatadi. “Qurilish” so‘zi esa o‘ttiz uch marta qo‘llanilgan bo‘lib, kodeksning amaliy yo‘nalishga ega ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Norma”, “Qoidalar”, “Talablar” kabi huquqiy-me’yoriy terminlar o‘ttiz marta uchraydi. Bu esa shaharsozlik faoliyati qat’iy huquqiy cheklovlar va standartlar asosida amalga oshirilishini belgilaydi. Ijtimoiy va ekologik mazmundagi tushunchalar nisbatan kamroq uchraydi. Jumladan, “Ekologiya”, “Atrof-muhit”, “Xavfsizlik” tushunchalari jami o‘n ikki marta, “Barqaror rivojlanish” iborasi esa yetti marta atrofida qo‘llanilgan. “Qulay yashash muhiti” kabi iboralar besh marta uchraydi [8].

Shaharsozlik kodeksiga doir kontent tahlilarimiz shuni ko‘rsatadiki, hujjatda eng ko‘p ishlatilgan tushunchalar “Shaharsozlik”, “Hudud”, “Qurilish”, “Bosh reja” bo‘lib, bu urbanizatsiyani avvalo huquqiy-me’yoriy va tashkiliy faoliyat sifatida talqin etilayotganini anglatadi. Ijtimoiy va insonparvar tushunchalarning kam uchrashi esa ushbu hujjatning strategik emas, balki amaliy-tartibga soluvchi normativ hujjat ekanini tasdiqlaydi. Shaharsozlik kodeksi urbanizatsiyani davlat boshqaruvi, hududiy rejalashtirish va qurilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy faoliyat sifatida yoritadi va inson manfaatlarini ijtimoiy kontekstda emas, balki hududiy va me’yoriy talablar orqali bilvosita aks ettiradi. Shu bilan birga, hujjat urbanizatsiyaning amaliy jihatlarini mustahkamlash va shaharsozlikning texnik-huquqiy poydevorini yaratish borasida asosiy huquqiy baza sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida” farmonini kontent tahlil qilamiz. Tahlil natijalari ushbu normativ-huquqiy hujjatning g‘oyaviy yo‘nalishini ochib beradi. “Rivojlanish” so‘zi yetmish marta uchrashi hujjatning strategik xarakterga ega ekanini va islohotlarning uzluksizligini ifodalaydi. Farmon matnida “Inson” tushunchasi oltmish marta uchraydi. Bu davlat siyosatida inson manfaatlari va qadriyatlari markaziy o‘ringa ko‘tarilganini ko‘rsatadi. “Ijtimoiy” tushunchasi farmon matnida qirq besh marta qo‘llanilgan. Bu ijtimoiy soha ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya masalalari rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini anglatadi. Shuningdek, “Xalq” so‘zi qirq marta ishlatilgan bo‘lib, farmon mazmunida xalq bilan muloqot, xalq manfaatlariga xizmat qilish g‘oyasi yetakchi o‘rin tutishini tasdiqlaydi. Farmonda “Islohot” tushunchasi o‘ttiz marta, “Iqtisodiy” tushunchasi esa o‘ttiz besh marta ishlatilgan. Bu iqtisodiy islohotlar va bozor mexanizmlarini rivojlantirish strategiyaning muhim tarkibiy qismi ekanini ko‘rsatadi. “Hudud” va “Hududiy” so‘zlari yigirma besh marta qo‘llanilib, hududlararo rivojlanish tafovutlarini kamaytirish masalasiga alohida e’tibor qaratilganini bildiradi [9].

Shahar va qishloq masalalariga oid “Shahar”, “Qishloq” tushunchalari farmon matnida yigirma marta, “Uy-joy” tushunchasi esa o‘n ikki marta uchraydi. Bu urbanizatsiya va uy-joy masalalari alohida hujjat darajasida bo‘lmasa-da, strategik rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralayotganini anglatadi. “Turmush sifati” tushunchasining o‘n marta qo‘llanishi esa rivojlanishning asosiy mezoni sifatida inson farovonligi tanlanganini ko‘rsatadi. Farmonning miqdoriy kontent tahlili shuni ko‘rsatadiki, hujjat matnida ijtimoiy, insonparvar va strategik rivojlanish tushunchalari ustunlik qiladi. So‘zlar qo‘llanilishining yuqoriligi davlat siyosatida “inson – jamiyat – davlat” tamoyilining mustahkamlanayotganini va urbanizatsiya hamda hududiy

rivojlanish masalalari inson turmush sifati bilan uzviy bog‘langan holda talqin etilayotganini tasdiqlaydi [10].

Demak, o‘tkazilgan kontent tahlillar Shaharsozlik kodeksi hamda PF-60-son farmoni Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya va hududiy rivojlanish siyosatini bir-birini to‘ldiruvchi va izchil tizim sifatida shakllantiradi. Shaharsozlik kodeksida “Shaharsozlik”, “Hudud”, “Qurilish”, “Bosh Reja”, “Me’yor”, “Talab” kabi tushunchalar yuqori darajada uchrashi ushbu hujjatning huquqiy-texnik va tartibga soluvchi xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Kodeks asosan shaharlar va aholi punktlarini rejalashtirish, yer va hududlardan foydalanish, qurilish faoliyatini normativ jihatdan tartibga solishga yo‘naltirilgan. Unda inson manfaatlari bilvosita tarzda xavfsizlik, qulaylik va barqarorlik talablari orqali ifodalangan. PF-60-son farmonining kontent tahlili esa mutlaqo boshqa, ammo kodeks bilan uzviy bog‘liq g’oyalarni namoyon etadi. Farmon matnida “Inson”, “Xalq”, “Ijtimoiy”, “Rivojlanish”, “Turmush sifati” tushunchalarining ko‘p qo‘llanishi urbanizatsiya va hududiy siyosatning insonparvar va ijtimoiy yo‘naltirilgan modelga o‘tayotganini tasdiqlaydi. Bu hujjatda shaharsozlik va hududiy rivojlanish masalalari texnik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy farovonlik va barqaror taraqqiyot vositasi sifatida talqin etiladi. Shu sababli, Shaharsozlik kodeksi urbanizatsiyaning normativ-huquqiy poydevorini, PF-60-son farmon esa uning ijtimoiy-ma’naviy va strategik maqsadlarini belgilab beradi. Bu Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya siyosati buyruqbozlik va faqat qurilishga yo‘naltirilgan yondashuvdan, inson – jamiyat – davlat tamoyiliga asoslangan kompleks rivojlanish modeliga o‘tayotganini ko‘rsatadi. 2021-2022-yillarda qabul qilingan ushbu ikki muhim normativ-huquqiy hujjat Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya va shaharsozlik siyosatining huquqiy aniqligi va ijtimoiy yo‘naltirilganligini bir vaqtda ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa urbanizatsiya jarayonlarini barqaror, adolatli va inson manfaatlariga mos holda rivojlantirish uchun mustahkam konseptual asos yaratadi.

**XULOSA**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 2019-2025-yillar davomida Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari normativ-huquqiy hujjatlar orqali bosqichma-bosqich va tizimli ravishda rivojlantirilgan. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan PF-5623 (2019), Shaharsozlik kodeksi (2021), PF-60 (2022) va PQ-347 (2025) hujjatlari urbanizatsiya siyosatining huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlarini kompleks tarzda yoritadi. PF-5623 farmoni urbanizatsiyani asosan davlat tomonidan tartibga solinadigan hududiy va qurilish jarayoni sifatida talqin qilsa, PQ-347 urbanizatsiyani bozor mexanizmlari, uy-joy bozori va aholi ehtiyojlari bilan uzviy bog‘langan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida ko‘rsatadi. Shaharsozlik kodeksi hududiy rejalashtirish va shaharsozlik faoliyatining huquqiy va me’yoriy poydevorini belgilab beradi, inson manfaatlarini bilvosita ekologik va barqaror yashash muhitiga asoslangan tarzda yoritadi. PF-60 farmoni esa urbanizatsiya va hududiy rivojlanish masalalarini insonparvar, strategik va ijtimoiy yo‘naltirilgan tizim sifatida talqin qiladi, bunda “inson”, “ijtimoiy rivojlanish” va “turmush sifati” tushunchalari ustunlik qiladi.

Kontent tahlil natijalari urbanizatsiya siyosatidagi evolyutsiyani ochib beradi: 2019–2025 yillarda urbanizatsiya davlat markazli, texnik-huquqiy modeldan boshlab, ijtimoiy, insonparvar va strategik rivojlanishga yo‘naltirilgan modelga o‘tgan. Hujjatlar bir-birini to‘ldiruvchi tarzda urbanizatsiya jarayonlarini hududiy va shaharsozlik tartibga solish, bozor va uy-joy siyosati, hamda ijtimoiy farovonlik va inson manfaatlari bilan bog‘lash orqali kompleks tizim sifatida yoritadi. Bu esa Yangi O‘zbekiston shahar va hududlarini barqaror, qulay va farovon rivojlantirishning ilmiy va amaliy zaminini mustahkamlaydi.

**Adabiyotlar/ Literatura/ References:**


1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000-2006-yillar. URL:https://ru. wikipedia.org/wiki
2. Hamedov I.A. Normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini oshirish va kontent tahlili. Ilmiy jurnal, 2020. 12(3). – B.45-56.
3. Tuxtamuratova D., Ahmadjonova D. Urbanizatsiya va demografik jarayonlar: O‘zbekiston tajribasi. Toshkent, 2021: Ilmiy nashr.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” 2022-2026-yillar. – Toshkent: Prezident matbuot xizmati, 2022. – B.48.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10-yanvardagi PF-5623-son «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» gi farmoni. URL: https://lex.uz/docs/-4154818

6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-347-son “Oʻzbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qoʻmitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. URL:https://www.lex.uz/uz/docs/-7850383

7. Oʻzbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida”gi Qonun. – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi matbuot xizmati, 2019. – B.36.

8. Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 22-fevralda qabul qilingan Shaharsozlik kodeksi. URL: https://lex.uz/docs/-5307951

9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning rivojlanish strategiyasi toʻgʻrisida” farmoni. URL: https://lex.uz/ru/docs/-5841063

10. O’sha joyda: URL: https://lex.uz/ru/docs/-5841063

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Yaxshiliqova Dildora,**
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar Universiteti magistranti
e-mail: yaxshiliqovadildora2@gmail.com.

## NOGIRONLIGI BO‘LGAN YOSHLARNING SOTSIAL MOBILLIK JARAYONLARIGA DOIR YONDASHUVLARNING NAZARIY TAHLILI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Maqolada nogironligi bo‘lgan yoshlarning sotsial mobillik jarayonlaridagi ishtirokiga doir nazariyalar tahlili yoritilib, unda nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatdagi sotsial maqomini belgilovchi ijtimoiy rollar, stigma va stereotiplarga doir yondashuvlar nazariy tahlil qilinadi. Shuningdek, G‘arb olimlaridan V.Volfensbergning Normallashtirish kontseptsiyasi, I.Xoffmanning Stigma nazariyasi hamda O‘zbekistonlik olimlaridan M.Ganiyeva, N.Latipova, M.Usmonova, D.Qosimova, F.Qodirovalarning metodikasi, ijtimoiy himoya tizimiga oid va integratsiya masalalariga doir qarashlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada nogironligi bo‘lgan yoshlarning ta’lim, mehnat bozori va jamoat hayotidagi faolligiga ta’sir etuvchi omillar ham nazariy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, sotsial mobillik jarayonlarida mavjud institutsional va madaniy to‘siqlarning mazmuni ochib beriladi. Shu orqali nogironligi bo‘lgan yoshlarning jamiyatdagi muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlovchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** sotsial mobillik, ijtimoiy rol, stigma, stereotip, ijtimoiy xizmat, nogironligi bo‘lgan shaxs, sotsiologiya, psixologiya, mehnatga layoqatsizlik, psixologik o‘zgarish, individual, ijtimoiy maqom, ruhiy kasallik, nogironligi bo‘lgan bolalar.

---

**Якшиликова Дилдора,**
магистрант Университета журналистики
и массовых коммуникаций Узбекистана
e-mail: yaxshiliqovadildora2@gmail.com

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К ПРОЦЕССАМ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ МОЛОДЕЖИ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируются теории участия молодых людей с инвалидностью в процессах социальной мобильности, а также теоретически рассматриваются подходы к социальным ролям, стигмам и стереотипам, определяющим социальный статус людей с инвалидностью в обществе. Рассматриваются также взгляды западных ученых В.Вольфенсберга на концепцию нормализации, теории стигмы И.Хоффмана и узбекских ученых М.Ганиевой, Н.Латиповой, М.Усмоновой, Д.Косимовой, Ф.Кадировой на методологию, систему социальной защиты и вопросы интеграции. В статье также теоретически обосновываются факторы, влияющие на активность молодых людей с инвалидностью в образовании, на рынке труда и в общественной

жизни. Раскрывается содержание институциональных и культурных барьеров, существующих в процессах социальной мобильности. На основе этого разработаны практические рекомендации по обеспечению успешного участия молодых людей с инвалидностью в обществе.

**Ключевые слова:** социальная мобильность, социальная роль, стигма, стереотип, социальные услуги, человек с инвалидностью, социология, психология, инвалидность, психологические изменения, индивидуум, социальный статус, психическое заболевание, дети с инвалидностью.

---

**Yakshilikova Dildora,**
Master's student at the University of journalism
and mass communications of Uzbekistan
e-mail: yaxshiliqovadildora2@gmail.com.

# THEORETICAL ANALYSIS OF APPROACHES TO THE PROCESSES OF SOCIAL MOBILITY OF YOUTH WITH DISABILITIES

**ABSTRACT**

This article analyzes theories of the participation of young people with disabilities in social mobility processes and theoretically examines approaches to social roles, stigmas, and stereotypes that determine the social status of people with disabilities in society. It also considers the views of Western scholars such as V. Wolfensberg on the concept of normalization, I. Hoffman's stigma theory, and Uzbek scholars M. Ganieva, N. Latipova, M. Usmonova, D. Kosimova, and F. Kadirova on methodology, the social protection system, and integration issues. The article also provides a theoretical justification for the factors influencing the activity of young people with disabilities in education, the labor market, and public life. It reveals the institutional and cultural barriers that exist in social mobility processes. Based on these findings, practical recommendations for ensuring the successful participation of young people with disabilities in society are developed.

**Key words:** social mobility, social role, stigma, stereotype, social services, person with disabilities, sociology, psychology, disability, psychological changes, individual, social status, mental illness, children with disabilities.

---

## KIRISH

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra, yer yuzida 1 milliarddan ortiq imkoniyati cheklangan shaxslar istiqomat qilmoqda. Bu dunyo aholisining 15 foizini va ularning 100 millionini esa bolalar tashkil qiladi. Mutaxassislarning fikricha, aholining keksayib borayotgani va surunkali kasalliklarning ortib borayotgani ham nogironlar sonining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Bu borada rivojlanayotgan mamlakatlarning ko’rsatkichlari ancha yuqori bo’lib, jumladan BMT taraqqiyot dasturiga ko'ra, nogironlarning 80 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi [1].

Hozirga vaqtda O‘zbekiston aholisining esa 2,14%i nogironligi bor shaxslar deb qayd etilgan, bu raqamlarda taxminan 740 ming nafardan ortiqni tashkil etadi. Hozirga vaqtda O‘zbekiston aholisining 2,14% nogironligi bor shaxslar sifatida qayd etilgan. Nogironlik bo‘yicha to‘g‘ri va ishonchli ma'lumotlar nogironligi bo`lgan shaxslarni hayotda nogironligi bo‘lmagan shaxslar bilan teng holatda ishtirokini ta'minlash uchun Jahon mamlakatlarida nogironligi bo‘lgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga jalb etish va davlatning ijtimoiy siyosatni yanada samarali bo‘lishiga e’tibor ortib bormoqda.

Bu jarayon, avvalo, BMTning inklyuziv rivojlanish konsepsiyasining ustuvor yo‘nalish sifatida shakllanayotgani, mehnat bozori institutlarini teng imkoniyatlar tamoyili asosida qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, davlatning ijtimoiy himoya funksiyalarini modernizatsiya qilish zarurati bilan izohlanadi. nogironligi bo‘lgan yoshlarning iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash, jamiyatning umumiy inson kapitali zaxirasini yanada oshiradi, iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan

yoshlarning sotsial mobilligini ta'minlash, sotsial stratifaktsiyadagi tengsizliklarni bir-biriga yaqinlashtirish masalasini ilmiy tahlil qilish va sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish ham dolzarbligi [2].

**METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqot natijasida nogironligi boʻlgan yoshlarning sotsial mobilligiga ta'sir qiluvchi omillar, mavjud toʻsiqlar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan institutsional va sotsial mexanizmlar boʻyicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida shakllantirilgan nazariy yondashuvlar nogironlikni ijtimoiy model asosida tahlil qilish, sotsial, madaniy va iqtisodiy kapital darajasining mobillikka ta'sirini oʻrganish, shuningdek, xizmatlar tizimining samaradorligini baholash imkonini berdi. ijtimoiy ish, sotsiologiya, psixologiya va davlat boshqaruvi yoʻnalishlari boʻyicha tahsil olayotgan talabalarning amaliy mashgʻulotlari va nazariy darslarida qoʻllanishi mumkin.

Xususan, "Nogironlik sotsiologiyasi", "Sotsial himoya tizimi", "Inkluziv ta'lim", "Sotsial ish texnologiyalari" kabi fanlarning oʻquv dasturlarini boyitishda mazkur tadqiqotdan olingan natijalar dolzarb metodik material boʻlib xizmat qiladi.

Nogironligi boʻlgan yoshlarning sotsial mobilligi masalasi zamonaviy sotsiologiya, ijtimoiy ish, nogironlik sotsiologiyasi va inkluziv rivojlanish nazariyalarida muhim oʻrin tutadi. Mazkur yoʻnalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar nogiron yoshlarning jamiyatga integratsiya qilinishi, ijtimoiy jaraypnlardagi ishtiroki, ta'lim, mehnat bozori va kommunikativ resurslardan foydalanish imkoniyatlarini belgilab beruvchi omillarni yoritadi. Klassik sotsiologlardan T.Parsons, R.Merton, P.Sorokin, E.Giddens, T.Lukman, kabi olimlar sotsial struktura, imkoniyatlarga kirish, resurslardan foydalanish, sotsial tengsizlik va mobillikning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.

E.Giddensning strukturatsiya nazariyasi nogiron yoshlarning imkoniyatlari jamiyatdagi institutsional sharoitlar bilan bevosita bogʻliqligini koʻrsatadi. Nogironlik sotsiologiyasi boʻyicha yirik tadqiqotchilar – M.Oliver, L.Barton va M.Barnes nogironlikning tibbiy emas, balki ijtimoiy modelini ilgari surib, shaxsning cheklanishi uning tanasidan emas, balki ijtimoiy muhitdagi toʻsiqlardan kelib chiqishini ilmiy isbotlagan. Ularning ishlarida ayniqsa nogiron yoshlar uchun ijtimoiy infratuzilma, diskriminatsiya, ta'lim sifati va iqtisodiy integratsiya muammolari chuqur tahlil qilingan.

Oʻzbekiston olimlarining ishlari orasida M.Bekmurodov, K.Kayumov, A.Abdullayev, A.Abduhalilov, N.Ahmedov kabi tadqiqotchilar nogironligi boʻlgan shaxslarning sotsial himoyasi, ta'lim imkoniyatlari, jamiyatga integratsiyasi, inklyuziya siyosati va ijtimoiy xizmatlar tizimi boʻyicha nazariy va amaliy ishlanmalar yaratgan. Ushbu tadqiqotlar nogiron yoshlarning bandligi, resurslardan foydalanishidagi toʻsiqlar, oilaviy va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimining ahamiyatini tahlil qiladi. Shu jihatlar tadqiqot mavzusining ilmiy ahamiyatini oshiradi hamda mazkur dissertatsiyaning nazariy asoslari, maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

**ASOSIY QISM**

Sotsial mobillik jamiyatda shaxsning ijtimoiy mavqei, ta'lim darajasi, kasbiy holati va iqtisodiy imkoniyatlarining oʻzgarishi jarayonini anglatadi. Nogironligi boʻlgan yoshlar uchun sotsial mobillik nafaqat shaxsiy intilishlar bilan, balki jamiyat tomonidan yaratilgan sharoitlar, institutlar va munosabatlar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Nogironlik masalasi bugungi global jamiyatning eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyo boʻyicha millionlab insonlar turli darajadagi jismoniy, psixologik yoki aqliy cheklovlar bilan yashar ekan, ularning hayot sifati, ijtimoiy integratsiyasi va teng imkoniyatlardan foydalanishi har bir davlatning rivojlanish darajasini belgilovchi mezonlardan biri hisoblanadi. Shu bois nogironlikni oʻrganish nafaqat akademik ehtiyoj, balki jamiyat taraqqiyoti uchun zarur boʻlgan dolzarb ijtimoiy vazifadir. Nogironlikni oʻrganish ijtimoiy adolat, tenglik va inson qadr-qimmatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar nogironlikni shaxsning cheklovlaridan koʻra, jamiyatdagi imkoniyatlar yetishmovchiligi sifatida talqin qilishi ushbu muammoni kompleks hal etishning yangi istiqbollarini ochmoqda.

Ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash, sotsial xizmatlar, huquqiy himoya va infratuzilmani moslashtirish borasidagi islohotlar nogironligi bo'lgan shaxslar hayot sifatini oshirishning asosiy omillaridir. Shu bilan birga, jamiyat ongini o'zgartirish, stereotiplarni yengish va inklyuziv muhitni shakllantirish – dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nogironlar uchun yaratilgan sharoitlar nafaqat ushbu toifadagi shaxslarning hayot sifatini yaxshilaydi, balki butun jamiyatning madaniy, iqtisodiy va ma'naviy rivojiga xizmat qiladi. Demak, nogironlik masalasini o'rganish va yechimlar ishlab chiqish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan 2021-yil 7-iyun ratifikatsiya qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyada (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr): "O'zbekiston Respublikasi nogironligi bo'lgan shaxslar o'z hayotining barcha sohalarida boshqalar bilan teng ravishda huquq layoqatiga ega ekanligini tan oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konvensiya tegishli holatlarda va qonunga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslarning qo'llab-quvvatlashdan foydalanishini hamda qarorlar qabul qilish mexanizmlarini almashtirishni ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rishga, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarning muomala layoqatini cheklashga yo'l qo'yadi deb tushunganligini ma'lum qiladi". Konvensiya nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotida teng huquqli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha sohalarda boshqalar bilan huquq layoqatiga va ijtimoiy maqomda teng egaligi tan olinadi, bu esa ularning mustaqil shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniyatini mustahkamlaydi [3].

Mazkur norma sotsiologik nuqtai nazardan nogironligi bo'lgan yoshlarning sotsial mobilligini ta'minlashda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi, chunki ularning ta'lim, bandlik va jamiyat hayotidagi ishtiroki qonuniy jihatdan kafolatlanadi. Bugungi kunda "nogironlik" atamasi juda ko'p turli xil funktsional cheklovlarni o'z ichiga oladi: inson jismoniy, aqliy yoki sensor nuqsonlar, sog'liq yoki ruhiy kasalliklar tufayli nogiron bo'lib qolishi mumkin [4, – B.153].

Nogiron bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish masalasi XXI asr pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlarida dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi. Insoniyat rivojlanishi va global ijtimoiy o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatning barqarorligi va madaniy taraqqiyoti uning eng zaif qatlamlari, jumladan, nogiron bolalarning ijtimoiy va madaniy hayotdagi ishtirokiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, nogiron bolalarning integratsiyalashuvi, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi, hamda jamiyat bilan uyg'unlashuvi nafaqat psixologik va pedagogik, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham strategik ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Nogiron bolalarning ijtimoiy moslashuvi deganda, avvalo ularning o'zini anglash, atrof-muhit bilan ijobiy aloqada bo'lish, guruh ichida hamkorlik qilish va jamiyatdagi o'z o'rnini topish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon esa faqat ta'lim tizimi orqali emas, balki madaniy va ijtimoiy tadbirlar, sport, ijodiy va interaktiv faoliyatlar orqali ham samarali amalga oshadi. Shu bois, pedagogika va psixologiya olimlari nogiron bolalarning faqat biologik yoki kognitiv rivojlanishiga emas, balki ularning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratadilar [5].

1980-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti nogironlikning xalqaro terminologiyasini ishlab chiqdi. "Buzilish" ("impairment") – "psixologik yoki anatomik tuzilish yoki funktsiyaning yo'qolishi yoki anomalligi", "Nogironlik" ("disability") – "shaxs uchun odatiy chegaralar doirasidagi faoliyatni cheklash yoki qila olmaslik", "Mehnatga layoqatsizlik" - bu "inson uchun odatiy bo'lgan rolni bajarishni cheklaydigan yoki to'sqinlik qiladigan nogironlik yoki nogironlik tufayli yuzaga kelgan yo'qotish" [6].

Bizningcha, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan terminologiya nogironlikni faqat tibbiy holat sifatida emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida tushunishga imkon beradi. "Buzilish" tushunchasi shaxs organizmidagi jismoniy yoki psixologik o'zgarishlarni bildirsa, bu holat hali insonning jamiyatdagi o'rnini to'liq belgilab bermaydi. "Nogironlik" tushunchasi shaxsning kundalik faoliyatini bajarish imkoniyatlari jamiyat tomonidan yaratilgan sharoitlar bilan cheklanganda yuzaga keladi. Ya'ni, muammo faqat shaxsning holatida emas, balki uni o'rab turgan ijtimoiy muhitda ham namoyon bo'ladi. "Mehnatga layoqatsizlik" esa aynan shu cheklovlarning

ijtimoiy rol bajarishga ta'sirini ifodalaydi. Ushbu terminologiya nogironlikning sotsial mohiyatini ochib beradi va nogironligi boʻlgan yoshlarning ta'lim, mehnat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi koʻp jihatdan ijtimoiy sharoit va munosabatlarga bogʻliq ekanini koʻrsatadi. Shu bois, bu yondashuv nogiron yoshlarning sotsial mobilligini tahlil qilishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Akademik V.Volfensberg tomonidan ishlab chiqilgan va 1960-yillarda rivojlantirilgan "normallashtirish" kontseptsiyasiga koʻra, "gʻoyalar va usullar majmui aqliy nuqsonlari boʻlgan odamlarga me'yorga eng yaqin muhitda yashash imkonini beradi", deb ta'kidlangan. "Normallashtirish" atamasi olimlar oʻrtasida tushunmovchilikni keltirib chiqardi va notoʻgʻri talqin qilina boshladi, buning natijasida V.Volfensberg ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor berib, "Ijtimoiy rolni baholash" nazariyasini ishlab chiqdi, ya'ni "Ogʻir kasallikka chalingan odamga past yoki salbiy baho (ijtimoiy maqom) berish. U valorizatsiya va revalorizatsiya (ijtimoiy qiymatni qayta tiklash) - ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan rollarni rivojlantirish gʻoyalarini qoʻllaydi. Ya'ni nogironlik sabab kishining mehnatga yoki muloqotga layoqatsiz boʻlib qolishi uning jamiyatdagi maqomini pasaytirib yuboradi. Terminologiyaning oʻzgarishi nogironlarni qadrlash va ularni jamiyatga kiritish gʻoyasini kengaytirdi [7, – B. 138].

Demak, V.Volfensbergning "normallashtirish" kontseptsiyasi nogironligi boʻlgan shaxslarning jamiyatdan ajratilmasdan, odatiy ijtimoiy muhitda yashashi va faol boʻlishi zarurligini asoslaydi. Bu yondashuv nogironlikni faqat individual cheklov emas, balki jamiyat munosabati bilan bogʻliq holat sifatida tushuntiradi. "normallashtirish" tushunchasining notoʻgʻri talqin qilinishi Volfensbergni "ijtimoiy rolni baholash" nazariyasini ishlab chiqishga undadi. Ushbu nazariyaga koʻra, nogironlik sabab shaxsga past ijtimoiy baho berilishi uning jamiyatdagi maqomini pasaytiradi, aksincha, ijtimoiy ahamiyatga ega rollarni rivojlantirish va shaxsning ijtimoiy qiymatini qayta tiklash uning jamiyatga integratsiyasini kuchaytiradi. terminologiyadagi oʻzgarish nogironlarni qadrlash va ularni jamiyatning toʻlaqonli a'zosi sifatida qabul qilish gʻoyasini mustahkamlab, nogiron yoshlarning sotsial mobilligini oshirishga xizmat qiladi.

I.Xoffman ta'kidlashicha, jamiyat "oddiy odam"ga muayyan sifatlarni beradi va agar inson belgilangan me'yor talablariga javob bermasa, u holda u qoralanadi. Tadqiqotchi stigmaning uch turini ajratib koʻrsatadi: "Birinchidan, tana deformatsiyasi har xil jismoniy anomaliyalar mavjudligi (jismoniy nuqson). Ikkinchidan, zaif iroda, nazoratsiz yoki gʻayritabiiy ehtiroslar, yomon yoki qat'iy e'tiqodlar, insofsizlik kabi individual xarakterning kamchiliklari; ular, masalan, ruhiy kasallik, qamoqqa olish, doimiy ish yoʻqligi, oʻz joniga qasd qilishga urinishlar, radikal siyosiy moyillik, giyohvandlik, alkogolizm, gomoseksuallik faktidan ma'lum boʻladi. Uchinchisi, irq, millat va dinning umumiy stigmasi mavjud boʻlib, u meros boʻlib oʻtishi mumkin va barcha oila a'zolarini qamrab oladi" [8].

Bizningcha, I.Xoffman jamiyatda "oddiy inson" obrazi mavjudligini va bu me'yorlarga mos kelmagan shaxslar stigmalanishini koʻrsatadi. Jamiyat tomonidan belgilangan talablar bajarilmaganda, inson ijtimoiy jihatdan chetlashtiriladi va salbiy baholanadi. Demak, Xoffman stigmani uch asosiy koʻrinishda tushuntiradi: birinchisi, jismoniy nuqsonlar bilan bogʻliq stigma; ikkinchisi, shaxsning xulqi va xarakteriga beriladigan salbiy baholar (masalan, ruhiy kasallik, ishsizlik yoki zararli odatlar); uchinchisi esa irq, millat va din bilan bogʻliq boʻlib, u koʻpincha merosiy xarakterga ega. Bizningcha, ushbu yondashuv nogironligi boʻlgan shaxslarning jamiyatdagi mavqeini tushunishda muhim boʻlib, stigma ularning ijtimoiy integratsiyasi va sotsial mobilligini cheklovchi asosiy omillardan biri ekanini koʻrsatadi.

I.Xoffman stigma va stereotip oʻrtasidagi bogʻliqlikning yorqin misolini keltiradi: "Ba'zilar koʻzi ojiz odamga qoʻl tekkizishdan va unga oʻzini yoʻnaltirishga yordam berishdan oldin ikkilanishadi, boshqalari esa zaif koʻrishni umumiy nogironlik holati sifatida qabul qilib, koʻzi ojiz odam goʻyo yurolmaydigandek uni quchogʻiga koʻtarmoqchi boʻlgandek, yoki zaif eshituvchi odamlarga baqirib gapiradilar. Koʻzi ojizlar bilan aloqada boʻlganlar stereotipga asoslangan turli xil gʻoyalarga ega boʻlishlari mumkin" [9].

Bizningcha, Xoffman keltirgan misol shuni koʻrsatadiki, odamlar koʻpincha nogironligi boʻlgan shaxslarga qanday munosabatda boʻlishni bilmay qolishadi va bu holat stereotiplardan kelib chiqadi. Ayrimlar yordam berishdan qoʻrqadi yoki ikkilanadi, boshqalar esa nogironlikni haddan

tashqari bo‘rttirib, shaxsni umuman mustaqil harakat qila olmaydi deb hisoblaydi. Natijada, ko‘zi ojiz odamga keragidan ortiq yordam ko‘rsatish yoki eshitishida muammo bo‘lgan kishiga baqirib gapirish kabi holatlar yuzaga keladi. Demak, bunday stereotiplar yaxshi niyat bilan qilingan bo‘lsa ham, aslida nogironligi bo‘lgan shaxsning o‘zini jamiyatda “boshqacha” yoki “kamroq imkoniyatli” deb his qilishiga olib keladi. Bizningcha, stigma aynan shunday kundalik munosabatlar orqali shakllanadi va nogiron yoshlarning erkin muloqoti, mustaqil hayot kechirishi hamda sotsial mobilligini cheklaydi. Shu sababli jamiyatda nogironlikka nisbatan to‘g‘ri tushuncha va ongni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot jarayonida ko‘plab adabiyotlarni o‘rganganimizda, imkoniyati cheklangan bolalar, ularning rivojlanishi, jamiyatga moslashuvi, ta’lim olishi, salomatligi, kasb egallashi kabi masalalar olimlarimiz tomonidan chuqur o‘rganilgan. Jumladan, T.Ahmadaliyev va M.Soliyevala [10].

imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun imkoniyati cheklangan bolalarga kasb-hunar o‘rgatish metodikasini ishlab chiqib, unda alohida ehtiyojga ega bolalarga o‘ziga xos yondashuvni qo‘llashni tavsiya qilganlar.

Bizningcha, tadqiqot jarayonida o‘rganilgan ilmiy adabiyotlar imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishi, ta’lim olishi, jamiyatga moslashuvi va kasb egallashi masalalari mahalliy olimlar tomonidan yetarlicha yoritilganini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlarda bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish muhim omil sifatida qaraladi.

T.Ahmadaliyev va M.Soliyevalarning ishlari imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ular kasb-hunar o‘rgatishda har bir bolaning imkoniyati va ehtiyojiga mos yondashuvni qo‘llash zarurligini asoslaydi. Bizningcha, bu yondashuv imkoniyati cheklangan bolalarning kelajakda mustaqil hayot kechirishi va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

M.X.Mirjamolov o‘z asarlarida ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish masalalarini o‘rgangan. Jumladan, turli usullar orqali jamiyatga integratsiyalashuvini hamda ijtimoiy moslashuvini asoslab bergan [11, – B.46-49].

Bizningcha, M.X.Mirjamolovning ilmiy ishlari ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy rivojlanishi masalasiga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon ularning jamiyatga moslashuvi bilan bevosita bog‘liq holda tahlil qilinadi. Olim turli mashg‘ulot va usullar orqali bunday bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish ularning ijtimoiy faolligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishini asoslab beradi. Mirjamolov tadqiqotlari ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda jismoniy tarbiya va harakat faoliyatining muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

F.U.Qodirova imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini tahlil qilish orqali imkoniyati cheklangan bolalarni keng imkoniyatlarga ega moslashuvi, ta’lim olishi, salomatligi, kasb egallashi kabi masalalar olimlarimiz tomonidan chuqur o‘rganilgan [12, – B.73-79].

Bizningcha, F.U.Qodirovaning tadqiqotlari imkoniyati cheklangan bolalarning salohiyati ko‘pincha yetarlicha ochilmayotganini ko‘rsatadi. Olim innovatsion yondashuvlar orqali bunday bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mumkinligini asoslab, ularning imkoniyatlari keng ekanini ta’kidlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvida nafaqat zamonaviy texnologiyalar, balki ota-onalar va mutaxassislarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

M.X.Ganiyeva, N.M.Latipovalar [13] M.Usmonova [1, – B.34-48.], D.Qosimova [15] nogironligi bo‘lgan insonlar bilan ijtimoiy ish olib borishning o‘ziga xosliklari, ular bilan ishlashda muloqot ko‘nikmalari, nogironlikning sabab va oqibatlarni, O‘zbekistonda keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoyalash tizimining tashkiliy-huquqiy muammolarini, nogironlikning tibbiy va ijtimoiy modellarini o‘rganganlar.

Bizningcha, M.X.Ganiyeva, N.M.Latipova, M.Usmonova va D.Qosimovaning tadqiqotlari nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borishda muhim nazariy va amaliy yo‘nalishlarni yoritadi. Olimlar nogironlar bilan ishlashda muloqot ko‘nikmalari, nogironlikning sabab va

oqibatlari, shuningdek, O‘zbekistonda keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tizimining tashkiliy-huquqiy muammolarini chuqur tahlil qilganlar.

Bu ishlar nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan samarali ishlash va ularning ijtimoiy integratsiyasini oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy bilim va ko‘nikmalarni aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, tibbiy va ijtimoiy modellarni o‘rganish nogironlarni qo‘llab-quvvatlash siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, olib borilgan tahlillar nogironligi bo‘lgan yoshlarning sotsial mobilligi ko‘p omilli jarayon ekanini ko‘rsatdi. Ularning jamiyatda faol ishtirok etishi oila, ta’lim tizimi, mehnat bozori va ijtimoiy siyosatning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Ayniqsa, dastlabki ijtimoiylashuv muhiti bo‘lgan oila va keyingi bosqichdagi ta’lim muassasalari shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy faolligini shakllantiradi. Shu bilan birga, nogiron yoshlarning jamiyatdagi o‘rni ularning imkoniyatlari bilan emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan sharoit va resurslar bilan belgilanadi. Agar qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar tizimli yo‘lga qo‘yilsa, ular nafaqat himoyaga muhtoj guruh, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan faol ijtimoiy qatlam sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, sotsial mobillikni ta’minlash – bu ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar masalasidir. Nogironlik jamiyat tomonidan kasallik sifatida qabul qilinmasligi hamda inson uchun o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish yo‘lida to‘siqqa aylanmasligi kerak. Stigmatizatsiya muammosining mohiyati ana shunda. Stigmatizatsiya (yunon tilidan tarjima qilinganda yorliq, tamg‘a degan ma'noni anglatadi) – individlarni ajratib qo‘yish, yoki ularga “tamg‘a bosish”, tashqi belgilariga qarab “tuzalmas”, “noqis” kabi ijtimoiy yorliqlarni yopishtirish. Stigmatizatsiya natijasida inson boshqalardan ajratib ko‘rsatiladi va jamiyatning boshqa a’zolariga qarama-qarshi qo‘yiladi. Natijada, inson rasmiy yoki norasmiy tashkiliy tuzilmadan tushib qolishi va marginallar safini to‘ldirishi mumkin. Agar stigma individ tomonidan qabul qilinsa, u individ xatti-harakatlarini dasturlashtirish va o‘zini o‘zi dasturlashga ta’sir ko‘rsatuvchi omilga aylanadi.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**


1. Jahon banki. URL: https://www.worldbank.org/en/topic/disability
2. BMT O‘zbekiston. URL: https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/uz /home/presscenter/pressreleases/2021/11/ approach-and- practical-tools-in-disability-statistics--data-coll.html
3. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-5447413.
4. Стандартные правила обеспечения равных возможностей для инвалидов приняты резолюцией 48/96 Генеральной Ассамблеи от 20 декабря 1993. – С.153.
5. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. URL: https://doi.org/ 10.5281/zenodo.17098380.
6. Интернет-сайт “Michigan Disability Rights Coalition”/ Коалиция по правам инвалидов штата Мичиган. URL:http://www.copower.org/models-of-disability/181-medical-model-of-disability.html.
7. Карякина П.К. Реформаторские идеи Вульфа Вольфенсбергера в контексте обучения людей с ограниченными возможностями здоровья//Исследования молодых ученых. – М.: Историко-педагогический журнал, 2015. №2. – С. 138.
8. Гофман Ирвинг. Стигма: Заметки об управлении испорченной идентичностью. Часть 1. Стигма и социальная иденичность. Часть 2. Контроль над информацией и социальная идентичность (главы 3-6). Перевод М.С.Добряковой.URL: http://textarchive.ru/c-2946810.html.
9. Гофман Ирвинг. Стигма: Заметки об управлении испорченной идентичностью. Часть 1. Стигма и социальная идентичность. Часть 2. Контроль над информацией и социальная идентичность (главы 3-6). Перевод М.С.Добряковой. URL: http://textarchive.ru/c-2946810.html.

10. Ахмадалиев Т., Солиева М. Имконияти чекланган болаларга касб-ҳунар ўргатиш методикаси // Ўқув қўлланма. – Тошкент 2016.
11. Миржамолов М.Х. Кўриш имконияти чекланган болаларда жисмоний сифатларни ривожлантириш услубиёти //Фан-спортга журнали, 2020. – Б.46-49.
12. Қодирова Ф.У. Имконияти чекланган болаларни ижтимоий хаётга тайёрлашнинг инновацион технологиялари // Замонавий таълим журнали, 2018. – Б.73-78.
13. Ганиева М.Х., Латипова Н.М. История и теория социальной работы // Методическое пособие. – Ташкент, 2015.
14. Усмонова М. Ўзбекистонда кексалар ва ногиронларни ижтимоий ҳимоялашнинг ташкилий-ҳуқуқий муаммолари: дисс. юридик фанлар номзоди. – Тошкент, 1995. – Б.34-48.
15. Қосимов Д. “Ногиронликнинг тиббий ва ижтимоий моделлари”// Қадрият, 2013. 22 июнь.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Nuralimova Gulsinoy**,
Farg‘ona davlat universiteti
Ijtimoiy ish mutaxassisligi magistranti
e-mail: nurolimovnns@gmail.com

# AHOLINING ZAIF QATLAMLARIGA KO‘RSATILADIGAN IJTIMOIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini tubdan isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari va innovatsion yondashuvlar atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”, “Inson” ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlari va mahalla darajasidagi “keys-menejment” tizimining samaradorligi ilmiy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish, proaktiv xizmat ko‘rsatish hamda aholining zaif qatlamlarini jamiyatga integratsiya qilishning zamonaviy modellari keng yoritilgan. Maqola yakunida ijtimoiy sohada boshqaruv samaradorligini oshirish, xizmatlar ko‘lamini yanada kengaytirish va tizimni xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish bo‘yicha muhim ilmiy-amaliy takliflar hamda dolzarb tavsiyalar muallif tomonidan atroflicha ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, zaif qatlam, ijtimoiy himoya, innovatsion yondashuv, raqamlashtirish, ijtimoiy xizmat, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, inson qadri, keys-menejment, mahalla, ijtimoiy adolat, kam ta’minlanganlik, reabilitatsiya, proaktiv ko‘mak, ijtimoiy xodim.

---

**Нуралимова Гулсуной,**
магистрант по специальности «Социальная работа»
Ферганского государственного университета
e-mail: nurolimovnns@gmail.com

# ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ, ОКАЗЫВАЕМЫХ УЯЗВИМЫМ СЛОЯМ НАСЕЛЕНИЯ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье проводится всесторонний анализ приоритетных направлений коренного реформирования системы социальной защиты в Новом Узбекистане и инновационных подходов. В исследовании научно изучена эффективность «Единого реестра социальной защиты», центров социальных услуг «Инсон» и системы «кейс-менеджмента» на уровне махалли. Также широко освещены модели цифровизации социальных услуг, оказания проактивной помощи и интеграции уязвимых слоев населения в общество. В завершение автором выдвинуты важные научно-практические предложения и актуальные рекомендации по повышению эффективности управления, дальнейшему расширению охвата услуг и приведению системы в соответствие с международными стандартами.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, уязвимые слои населения, социальная защита, инновационный подход, цифровизация, социальная услуга, Национальное агентство социальной защиты, достоинство человека, кейс-менеджмент, махалля, социальная справедливость, малообеспеченность, реабилитация, проактивная помощь, социальный работник.

---

**Nuralimova Gulsinoy**,
Master's student in Social Work,
Fergana State University
e-mail: nurolimovnns@gmail.com

# INNOVATIVE APPROACHES TO IMPROVING THE QUALITY OF SOCIAL SERVICES PROVIDED TO VULNERABLE POPULATIONS

**ABSTRACT**

This article provides a comprehensive analysis of the priority areas of radically reforming the social protection system in New Uzbekistan and innovative approaches. The research scientifically examines the effectiveness of the "Single Registry of Social Protection," "Inson" social service centers, and the "case management" system at the mahalla level. Furthermore, models for digitalizing social services, providing proactive assistance, and integrating vulnerable population groups into society are extensively highlighted. In conclusion, the author puts forward important scientific-practical proposals and relevant recommendations to enhance management efficiency and expand the scope of services.

**Keywords:** New Uzbekistan, vulnerable groups, social protection, innovative approach, digitalization, social service, National Agency for Social Protection, human dignity, case management, makhalla, social justice, low-income status, rehabilitation, proactive support, social worker.

---

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning markazida "Inson qadri uchun" tamoyili turadi. Ayniqsa, aholining zaif qatlamlarini – nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qotgan va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining strategik yo'nalishiga aylandi. Ilgari ijtimoiy yordam faqat pul mablag'larini tarqatish bilan cheklangan bo'lsa, hozirda zaif qatlamlarni og'ir ahvoldan chiqarish va ularning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan innovatsion tizimga o'tilmoqda.

Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi sohadagi tarqoqlikka chek qo'ydi va yagona davlat siyosatini shakllantirish imkonini berdi. Biroq, globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish uchun nafaqat moddiy resurs, balki boshqaruv va xizmat ko'rsatishda yangicha yondashuvlar talab etilmoqda. Ushbu maqolaning dolzarbligi ham aynan ijtimoiy sohada raqamli transformatsiya va individual keys-menejment tizimini joriy etish zarurati bilan belgilanadi. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy himoya faqatgina iqtisodiy tushuncha emas, balki inson kapitalini asrash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi innovatsion vositaga aylandi.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiylik, statistik guruhlash va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy himoyaga oid farmon va qarorlari, Xalqaro mehnat tashkiloti va YUNISEFning tavsiyalari asosiy metodologik baza bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha Germaniya, Skandinaviya mamlakatlari va Janubiy Koreya tajribalari innovatsion yondashuv sifatida o'rganildi va mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda sifat va miqdor ko'rsatkichlarini uyg'unlashtirgan holda ijtimoiy xizmatlar samaradorligini o'lchash modellari qo'llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari olindi. Maqolada qo‘llanilgan usullar quyidagi ilmiy qarashlarga tayanadi: Ijtimoiy himoyani yaxlit tizim sifatida o‘rganishda Talkott Parsonsning strukturaviy-funksional tahlil metodidan foydalanildi. Bu ijtimoiy institutlarning (masalan, “Inson” markazlari) jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi rolini ochib berishga xizmat qiladi [1, – C.102].Individual yondashuv va mijozga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish tamoyillari Meri Richmondning “Ijtimoiy tashxis” nazariyasiga asoslanadi. Uning fikricha, har bir ijtimoiy holat individual o‘rganishni talab qiladigan o‘ziga xos “keys”dir [2, – C.95].

Ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish samaradorligini baholashda E.Rojersning “Innovatsiyalar difuziyasi” nazariyasi qo‘llanildi. Bu texnologik yangiliklarning aholi qatlamlari tomonidan qabul qilinish jarayonini tushunishga yordam beradi [3, – C.5].

Skandinaviya “farovonlik davlati” modeli (G.Esping-Andersen tasnifi bo‘yicha) va Janubiy Koreyaning raqamli ijtimoiy yordam tizimi o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlar qiyoslandi[4, – C.62].

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining tarqoqligiga barham berish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi, olim A.Sen tomonidan ilgari surilgan “Imkoniyatlar yondashuvi” bilan hamohangdir. Ya’ni, davlat shunchaki moddiy yordam bermasdan, insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishi lozim [5, – C.38]. “Inson” markazlari va mahalla ijtimoiy xodimlari faoliyatida qo‘llanilayotgan keys-menejment tizimi – bu ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va ularni kompleks hal qilish usulidir. M.Payn ta’kidlaganidek, zamonaviy ijtimoiy ish – bu faqat yordam emas, balki muhtoj shaxsni o‘z-o‘ziga yordam bera olish darajasiga olib chiqish jarayonidir [6, – C.45].

**ASOSIY QISM**

Ijtimoiy himoya tizimini isloh qilishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni zamonaviy iqtisodiy maktablar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Xususan, Nobel mukofoti sovrindori Amartya Sen o‘zining “Imkoniyatlar yondashuvi” nazariyasida ta’kidlashicha, ijtimoiy himoya faqatgina moddiy resurslar taqsimoti emas, balki shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur bo‘lgan erkinlik va imkoniyatlarni yaratishdir [7, – C.72]. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar aynan ushbu nazariyaga hamohang bo‘lib, aholini boqimandachilikdan chiqarib, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan.

Q.X.Abdurahmonov ijtimoiy sohada raqamli texnologiyalarni qo‘llash xizmatlar sifatini oshirishning eng qisqa yo‘li ekanligini qayd etadi [8, – C.210]. Olimning fikricha, Ijtimoiy himoya yagona reyestri” kabi innovatsiyalar korrupsion omillarni bartaraf etish bilan birga, ijtimoiy yordamning “manzilliligini” ta’minlaydi. Bu qarash G‘arb iqtisodchilarining “Proaktiv davlat” konsepsiyasi bilan mos keladi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, davlat axborot tizimlari orqali muammoni u yuzaga kelmasidan avval aniqlashi va bartaraf etishi lozim [9, – C.92].

G‘arb olimlaridan N.Gilbert va P.Terrell ijtimoiy ta’minot modellarini tahlil qilar ekan, ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etishning afzalliklarini asoslab berganlar [10, – C.154].

O‘zbekistonda joriy etilgan “Inson” markazlari va mahalla darajasidagi “keys-menejment” tizimi aynan shu nazariy yondashuvning amaliy ko‘rinishidir. Mahalliy tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, keys-menejment – bu nafaqat xizmat ko‘rsatish usuli, balki zaif qatlam vakilining individual ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda unga psixo-ijtimoiy yordam ko‘rsatish va jamiyatga integratsiya qilish mexanizmidir [11, –C.95]. Bu jarayonda ijtimoiy xodim “vositachi” vazifasini o‘tab, davlat va muhtoj qatlam o‘rtasidagi masofani qisqartiradi.

Olim J.Midgli tomonidan ilgari surilgan “Ijtimoiy investitsiya” nazariyasi bugungi kunda O‘zbekiston ijtimoiy islohotlarining negizini tashkil etmoqda [12, –C.112]. Ijtimoiy himoyaning passiv shakldan (nafaqa berish) aktiv shaklga (bandlik va ko‘nikma hosil qilish) o‘tishi barqaror rivojlanishning muhim omilidir. Bu borada professor M.Bekmurodov ta’kidlaganidek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash jamiyatdagi ijtimoiy kapitalni boyitishga va milliy yuksalishga xizmat qiladi [13, – C.84].

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy strategiyasi “inson qadri uchun” tamoyili asosida aholining zaif qatlamlarini nafaqat moddiy qo‘llab-quvvatlash, balki ularni ijtimoiy muhitga to‘liq integratsiya qilishni nazarda tutadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ijtimoiy himoyaning samaradorligi uning “manzilliligi”va“faolligi” bilan belgilanadi [14, – C.156.].

Ijtimoiy himoya milliy agentligi va “Inson” markazlarining tashkil etilishi – tizimli innovatsiyaning asosi. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining tubdan isloh qilinishi va Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda “Inson” ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlarining tashkil etilishi sohadagi eng muhim institutsional o‘zgarish bo‘ldi.

Bu islohotlar “inson qadri uchun” tamoyilining amaldagi ifodasidir. Ilgari ijtimoiy himoya funksiyalari 6 ta turli vazirlik va idoralar (Sog‘liqni saqlash, Xalq ta’limi, Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish va b.) o‘rtasida tarqalib ketgan edi. Bu esa yagona boshqaruv va mas'uliyatning yo‘qligiga sabab bo‘lgan. “Inson”ijtimoiy xizmatlar markazlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sonli Farmoni bilan tashkil etildi [15, – C.2].

Ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, ijtimoiy sug‘urta tizimini joriy etish va og‘ir ahvoldagi oilalarni tizimli qo‘llab-quvvatlashmaqsadida tashkil etilgan. Bu markazlar agentlikning tuman (shahar) bo‘g‘inidagi asosiy ijrochi tuzilmalari hisoblanadi.

M.Bekmurodov o‘z tadqiqotlarida mahalla institutining ijtimoiy boshqaruvdagi o‘rnini alohida ko‘rsatib o‘tgan. Uning qarashlariga ko‘ra, ijtimoiy xodimning mahalla darajasida faoliyat yuritishi – bu “ijtimoiy diagnostika”ning eng samarali usuli bo‘lib, muammolarni mikrosotsium darajasida hal etish imkonini beradi [16, – C.196].

Ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishdagi eng katta innovatsiya – bu ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahalla darajasiga tushirilishidir. Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlari faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi “keys-menejment” usulini hayotga tadbiq etdi.

Keys-menejmentning mohiyati: ijtimoiy xodim har bir muhtoj oilaning muammosini alohida o‘rganadi, uning ehtiyojlarini baholaydi va individual reja asosida kompleks xizmatlar (psixologik, huquqiy, tibbiy, bandlik) ko‘rsatilishini muvofiqlashtiradi. Bu yondashuv aholining zaif qatlamlarini surunkali qashshoqlikdan chiqarish va ularda o‘z-o‘ziga yordam berish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Har bir mahalla darajasida ijtimoiy xodimlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish. Ular uyma-uy yurib, muhtoj oilalarning “ijtimoiy portreti”ni tuzadi. Psixologik yordam, huquqiy maslahatlar, reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash va ijtimoiy nafaqalar tayinlash kabi xizmatlarni ko’rsatadi.

Bundan tashqari markazlarda har bir murojaatchi bilan alohida, uning individual ehtiyojidan kelib chiqib ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Islohotlarning innovatsion jihati shundaki, u ijtimoiy himoyani shunchaki “pul tarqatish”(passiv model)dan “og‘ir vaziyatdan olib chiqish” (aktiv model)ga aylantirdi. 1-jadvalda ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlarning eski va yangi tizim qiyosiy tahlili keltirilgan.

**1-jadval**

**Ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlar: Eski va yangi tizim qiyosiy tahlili**

| Yo’nalish | Eski tizim | Yangi tizim (Agentlik –“Inson”) |
|---|---|---|
| **Yondashuv** | Ariza kutish | Uyma-uy borish |
| **Ma’lumotlar** | Qog‘oz ko‘rinishida | “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi |
| **Xizmat ko’rsatish** | Tarqoq idoralar | “Yagona darcha” tamoyili |

Raqamli texnologiyalar, keys-menejment va proaktiv yondashuvning birlashishi “ijtimoiy davlat” tamoyilini amalda ta’minlaydi. Bu tizim insonlarni shunchaki boqimandalikka emas, balki tizimli qo‘llab-quvvatlash orqali ularni jamiyatning faol va mustaqil a’zosiga aylantirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlarning yana bir yo‘nalishi – proaktiv ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishdir. Endilikda fuqaroning murojaat qilishini kutmasdan, tizimning o‘zi muhtoj shaxslarni aniqlaydi.

Masalan, nogironligi boʻlgan shaxslarga protez-ortopediya buyumlari yoki reabilitatsiya vositalarini berish jarayoni raqamlashtirilib, “elektron voucher” tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa xizmat oluvchilarga oʻzlari xohlagan servis provayderini tanlash imkonini berib, sohada sogʻlom raqobatni yuzaga keltirdi. Bundan tashqari Aholining zaif qatlamlari, ayniqsa nogironligi bor shaxslar uchun toʻsiqsiz muhit yaratish va ularni mehnat bozoriga jalb qilishda zamonaviy modellardan foydalanilmoqda.

Xususan, “Ijtimoiy korxonalar” tashkil etish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish orqali ushbu qatlamning iqtisodiy faolligi oshirilmoqda. Ijtimoiy himoyaning faqat “davlat yuki” emas, balki “inson kapitaliga investitsiya” sifatida koʻrilishi sohadagi boshqaruv samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.Oʻzbekistonda joriy etilgan “Mahalla ettiligi” (rais, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodim) tizimi — bu boshqaruv innovatsiyasidir. Bu tizim orqali “vertical” boshqaruvdan “gorizontal” hamkorlikka oʻtilmoqda. Bu innovatsiyaning afzalliklari:

- Ma’lumotlarning dublyaj boʻlishini oldini olish;
- Ijtimoiy yordamning manzilliligini 100% ga yetkazish;
- Byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish (fuqaro idorama-idora yurmaydi) [17, – C.12].

Dunyo amaliyotida ijtimoiy himoya tizimlari bir-biridan innovatsion yondashuvlari va moliyalashtirish manbalari bilan farq qiladi.Bulardan Skandinaviya modeli (Shvetsiya, Norvegiya) – “Universalizm”.Bu modelning asosi — ijtimoiy xizmatlarning barcha uchun tengligi va davlat tomonidan toʻliq kafolatlanishidir. “Faol qarilik” konsepsiyasi. Keksalarni faqat parvarish qilish emas, balki ularni jamiyatga qayta integratsiya qilish (masalan, keksalar va bolalar bogʻchalarini bir binoda tashkil etish orqali avlodlararo muloqotni tiklash).

Germaniya modeli – “Subsidiarilik”. Germaniyada ijtimoiy xizmatlar asosan nodavlat tashkilotlar (cherkovlar, xayriya jamgʻarmalari) tomonidan koʻrsatiladi, davlat esa ularni moliyalashtiradi. Ijtimoiy sugʻurta tizimining chuqurligi. Masalan, “Uzoq muddatli parvarish sugʻurtasi” orqali nogironligi bor shaxslarning xususiy sektordagi xizmatlari qoplanadi. Shu oʻrinda AQSh modeli juda ham samara beruvchi ijtimoiy xizmatlar modelidan hisoblanadi. Xalqaro tajribani oʻrgangan holda Oʻzbekistonda joriy etilayotgan **“**Ijtimoiy karta” tizimi bir vaqtning oʻzida ham toʻlov vositasi, ham ijtimoiy identifikator hisoblanadi. Bu Koreya Respublikasining “K-Social” tizimiga oʻxshash boʻlib, nafaqalarning maqsadli sarflanishini 100% nazorat qilish imkonini beradi.

**XULOSA**

Aholining zaif qatlamlariga ijtimoiy xizmat koʻrsatish tizimini takomillashtirish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, bugungi kunda ijtimoiy himoya shunchaki moddiy yordam berish emas, balki inson qadrini yuksaltirish va uning jamiyatdagi faolligini tiklashga qaratilgan kompleks jarayondir. Olib borilgan ishlar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Oʻzbekistonda ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasiga tushirilishi va “Inson” markazlarining tashkil etilishi ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirdi. Bu yondashuv fuqaro va davlat oʻrtasidagi masofani qisqartirib, byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etdi. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” va kelgusida joriy etiladigan “Ijtimoiy karta” tizimi mablagʻlarning maqsadli sarflanishini ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida har bir muhtoj shaxsning individual ehtiyojlarini aniqlash va unga mos “ijtimoiy paket” taklif qilish imkoniyati yaratildi.

Skandinaviya davlatlarining “faol qarilik” va Germaniyaning “subsidiarilik” modellari shuni koʻrsatadiki, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishda nafaqat davlat, balki xususiy sektor va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi (autsorsing) muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy xizmatlar sohasiga “Keys-menejment” usulini toʻliq joriy etish, har bir oila bilan individual ishlash va ularni boqimandalikdan chiqarib, mustaqil daromad manbaiga ega boʻlishiga koʻmaklashish tizimning asosiy drayveri boʻlishi lozim. Nogironligi boʻlgan shaxslar va keksalar uchun assistiv texnologiyalar hamda “toʻsiqlarsiz muhit”ni yaratish jamiyatning umumiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy koʻrsatkichdir.

Xulosa qilib aytganda, aholining zaif qatlamlariga koʻrsatiladigan ijtimoiy xizmatlarda innovatsion yondashuvlarni qoʻllash – bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikka erishish, balki jamiyatda

barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta’minlashning eng qisqa yo‘lidir. Taklif etilgan chora-tadbirlar “Ijtimoiy davlat” tamoyillarini hayotga to‘liq tatbiq etishga va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Aholining zaif qatlamlariga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish uchun nafaqat byudjet mablag‘larini ko‘paytirish, balki innovatsion boshqaruv modellarini keng joriy etish lozim. Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- mahalla darajasidagi “Ijtimoiy xodim” institutini to‘liq keys-menejment tizimiga o‘tkazish va ularning KPI ko‘rsatkichlarini belgilash.
- Ijtimoiy xizmatlar sifatini onlayn baholash tizimini joriy etish.
- Ijtimoiy tadbirkorlik sub’ektlariga soliq imtiyozlari berish orqali zaif qatlam bandligini ta'minlashning bozor mexanizmlarini ishga tushirish.

“Ijtimoiy xodim” instituti va keys-menejmentning joriy etilishi har bir muhtoj oilaga individual yondashish va aniq natijaga (KPI) erishishni ta’minlaydi. Onlayn baholash tizimi xizmat ko‘rsatishdagi korrupsiya va sansalarlikni kamaytirib, xalqning davlatga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Ijtimoiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish zaif qatlamni faqat nafaqa oluvchi emas, balki daromad topuvchi qatlamga aylantiradi. Ushbu choralar ijtimoiy himoyani “boqimandachilik” kayfiyatidan chiqarib, inson kapitalini rivojlantirish va ijtimoiy adolatni raqamli texnologiyalar hamda bozor mexanizmlari orqali ta’minlashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**


1. Parsons T. The Social System. – Routledge, 1951. – P. 102-115.
2. Richmond M. E. Social Diagnosis. – Russell Sage Foundation, 1917. –P.95.
3. Rogers E. M. Diffusion of Innovations. – Free Press, 5th Edition, 2003. –P.5.
4. YUNISEF “O‘zbekistonda bolalar va oilalar ijtimoiy himoyasi” hisoboti. 2024. – P.62-65.
5. International Social Security Review (Journal), 2023. – P.38-42.
6. Payne M. Modern Social Work Theory. – Palgrave Macmillan, 2014. – P. 45-58.
7. Sen A. Development as Freedom. – Oxford University Press, 1999. – P. 72-75.
8. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – B. 210.
9. Taylor-Gooby P. New Risks, New Welfare: The Transformation of the European Welfare State. – Oxford, 2014. – P.92-98.
10. Gilbert N., Terrell P. Dimensions of Social Welfare Policy. – Pearson/Allyn and Bacon, 2010. – P.154.
11. G‘aniyeva M.X. Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: 2023. – B. 95.
12. Midgley J. Social Investment and Social Welfare. – 2017. – P. 112-118.
13. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2020. – B. 84-88.
14. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – B. 156.
15. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023 yildagi PF-82-son Farmoni. Leks.uz. - 2023. – B.2-3.
16. Bekmurodov M**.** Ijtimoiy tahlil va prognozlashtirish metodologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022. – 196 b.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-sonli “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. – B.12-15.

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Mirzaaalieva Aziza,**
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosatshunoslik yunalishi tayanch doktoranti
email: azizamirzaaliyeva1@gmail.com

# SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA IJTIMOIY-SIYOSIY TAHLILNING NAZARIY MUAMMOLARI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.00000000**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalaridan ijtimoiy-siyosiy tahlilda foydalanish jarayonida ularni siyosiy-huquqiy legitimlikni asosiy o‘ringa qo‘yadigan qarorlar bilan boshqaruvda asosan samaradorlik va tezlik, optimallik talab qilinadigan ijroiy jarayonlardan farqlamaslik nazariy va amaliy xatolarga olib kelayotganligi tahlil qilingan. Muallif tomonidan sun’iy intellekt siyosiy haqiqatni anglay oladimi yoki faqat hisoblaydimi, degan savollarga javob topgan holda ba’zi nazariy muammolar, jumladan, epistemologik, ontologik, etik va normativ kamchiliklar bayon yetilgan.

**Kalit so‘zlar:** sun’iy intellekt, ijtimoiy-siyosiy tahlil, epistemologik muammo, normativ muammo, siyosiy haqiqat, ijro hokimiyati, siyosiy qaror chiqarish va qabul qilish.

---

**Мирзаалиева Азиза,**
Докторант направления политологии
Узбекского государственного университета мировых языков
email: azizamirzaaliyeva1@gmail.com

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется тот факт, что сегодня в процессе использования технологий искусственного интеллекта в социально-политическом анализе не проводится различий между ними и исполнительными процессами, которые в первую очередь требуют эффективности, скорости и оптимальности в принятии решений и управлении, что приводит к теоретическим и практическим ошибкам. Автор отвечает на вопросы о том, может ли искусственный интеллект понимать политическую истину или только вычисляет её, и излагает некоторые теоретические проблемы, включая эпистемологические, онтологические, этические и нормативные недостатки.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, социально-политический анализ, эпистемологическая проблема, нормативная проблема, политическая истина, исполнительная власть, принятие и утверждение политических решений.

**Mirzaaliyeva Aziza**
bekistan state world languages university
PhD student in political science
email: azizamirzaaliyeva1@gmail.com

## THE ORETICAL PROBLEMS OF SOCIO-POLITICAL ANALYSIS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

**ABSTRACT**

This article examines the use of artificial intelligence in socio-political analysis. It argues that prioritizing political and legal legitimacy while ignoring the differences between such decisions and executive processes focused on efficiency and speed can lead to theoretical and practical mistakes. The study also explores whether artificial intelligence can understand political reality or merely calculate it. In doing so, it identifies key epistemological, ontological, ethical and normative problems.

**Key words:** artificial intelligence, socio-political analysis, epistemologic problem, normative problem, political reality, executive branch, political desicion- making.

---

### KIRISH

Bugungi kunda siyosiy jarayonlarni tahlil qilish jarayonida aniq boʻlyaptiki, siyosiy boshqaruvga yangi texnologiyalarni tatbiq qilish koʻplab qulayliklar bilan birga qator muammoli va xavotirli vaziyatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Biz butun insoniyat taqdirini hal qila oladigan qonunlarga insoniy fikrlay olmaydigan texnikalarni jalb etishimiz qanday foyda beradi? Lekin har bir sohada jarayonni optimal va tezlashtirish imkonini beradigan texnologiyalardan foydalanmaslik tizimni qoloqlashtirmaydimi?

Sun’iy intellekt siyosiy haqiqatni qanchalik adolatli, toʻgʻri va mazmun jihatdan yaxshi anglay oladi, bu uchun nimalar qilish kerak kabi savollarga SI ni sohada qoʻllashdan oldinroq javob topilsa, uning oqibatlari ham koʻngildagidek boʻladi. Inson jarayon tahliliga tarixiy xotira, axloqiy baho, qadriyatlar va ma’no jihatdan yondashsa, SI tahlilga ma’lumot (data), statistik bogʻliqlik, ehtimollik va andoza tomondan qaraydi. Yigirma birinchi asrda sun’iy intellekt koʻplab muhokamalar va innovatsion yechimlarning markazida boʻlib kelmoqda hamda koʻplab hukumatlar uchun strategik resurs sifatida qaralmoqda. Aynan shu resurs mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy oʻsishni jadallashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt ichki siyosat manfaatlari yoʻlida, jumladan, davlat boshqaruvi sohasida ham “xizmat qiladi” [1].

### METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda sun’iy intellekt asosida ijtimoiy-siyosiy tahlilning nazariy muammolarini oʻrganishda turli siyosiy tadqiqot metodlari, statistik tahlil usullari hamda qiyosiy yondashuv asos qilib olinadi. Ushbu boʻlimda tadqiqotning metodologik asosi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, ma’lumotlar manbai va ishlatilgan metodlar tizimli ravishda yoritiladi.

### ASOSIY QISM

SI asosida qanchalik koʻp samaradorlik koʻrmoqchi boʻlsak, siyosiy hayotni shunchalik koʻp raqamlashtirishimiz kerak. Aks holda, sodda voqeilikka moʻljallangan model siyosiy reallikni buzib talqin qilib yuboradi. SI kodlarga tayangan holda «A» hodisa «B» ga olib keladi deb koʻrsatadi. Nega «A» «B» ga olib keldi, deb soʻralganda esa statistik moslikni koʻrgan holdagina javob beradi.

An’anaviy siyosatda har qanday qarorning subekti inson deb qaraladi. Chunki mas’uliyat bor. SI tavsiyalar beradi, vaziyatni prognoz qiladi va baholaydi. Lekin oqibatlarga javob bermaydi. Agar hukumat SI qaroriga bevosita tayanib qonun chiqarishi tuzatib boʻlmas xatolikni keltirib chiqarsa kim javobgar boʻladi? Bu texnologiyalar juda kuchli vositaligini ta’kidlagan holda shuni ham yesdan

chiqarmaslik kerakki, mustaqil va ideal siyosiy tafakkur yemas. Bu yesa hali sohaga koʻplab yangiliklar kiritilishi kerakligini talab yetadi.

Hokimiyatning asosiy tarmoqlari hisoblangan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud oʻzining, vakolatlar doirasi, funksional vazifalari va konstitutsiyaviy maqomi bilan bir-biridan tubdan farqlanadi. Shu bois, zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, raqamli va sun’iy intellekt asosidagi yechimlarni davlat hokimiyatining barcha tarmoqlariga yagona va standart model asosida koʻr-koʻrona tatbiq etish institutsional nomutanosibliklar va noroziliklarni yuzaga keltirishi tabiiy. Aksincha, har bir hokimiyat tarmogʻining huquqiy tabiatiga, qaror qabul qilish mexanizmlariga va mas’uliyat darajasiga mos ravishda ishlab chiqilgan, differensial yondashuvga asoslangan texnologik yechimlarni joriy etish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, siyosiy hamda huquqiy legitimlikni saqlash hamda boshqaruv barqarorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan ancha maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oksford lugʻatida sun’iy intellekt (SI) quyidagicha ta’riflanadi: «Oddiy ravishda inson aqlini talab qiladigan vazifalarni, masalan, vizual idrok, nutqni aniqlash, qaror qabul qilish va tillar oʻrtasida tarjima qilishni bajara oladigan kompyuter tizimlari nazariyasi va rivojlanishi»[2].

Shu bois, SI ijtimoiy-siyosiy tahlil jarayonida qaror chiqaruvchi subekt sifatida yemas, balki, bu jarayonni ratsionallashtiruvchi bir kuch sifatida qoʻllanishi zarur. Sud hokimiyati misolida olib qaralsa, «Sudya odob va axloqning umumetirof etilgan qoidalarga amal qilishi, har qanday vaziyatlarda haqiqatparvar boʻlishi, sud hokimiyatining nufuzini tushiradigan va sudyaning obroʻ-etiboriga putur yetkazadigan yoki uning xolisligi, mustaqilligi va begʻarazligiga shubha tugʻdirishi mumkin boʻlgan xatti-harakatlardan oʻzini tiyishi, oʻzining sudyalik lavozimi nufuzidan shaxsiy manfaatlari yoki boshqa shaxslarning manfaatlari yoʻlida foydalanishdan oʻzini saqlashi, huquq sohasida oʻzining kasb malakasini oshirib borishi, sud protsessida taraflarga sabr-toqatliligini va obroʻsini koʻrsatishi, shaxsiy hayotda yuksak axloqiy qoidalarga amal qilishi shart»[3].

Bundan kelib chiqadiki, sudya chiqarayotgan qaror faqat uning normativ bilim va koʻnikmasiga emas, balki uning insof, vijdon hamda odamiylik fazilatlari asosida qabul qilinadi.

Va aynan shu jihatdan sud hokimiyatini sun’iy intellekt texnologiyalariga butunlay topshirib qoʻyish juda katta xavflarni keltirib chiqaradi. Qaror qabul qilish asosan uch bosqichni oʻz ichiga oladi: avvalo muammoni aniqlab olish, mos variantlarni yaratish hamda optimal qaror chiqarish. Sun’iy intellekt bu jarayonni avtomatik shaklda tezlashtirib, inson koʻzga ilmaydigan kichik oʻzgarishlarni ham payqagan holda xatolarni topishga yordam beradi. Ammo uning axloqiy va huquqiy jihatlariga e’tibor qaratilmasdan «Human-centered AI» tamoyiliga amal qilinmas ekan, adolatsiz qarorlar chiqarlishi koʻpayadi.

Xususan, sud jarayonida jabrlanuvchi nomi bilan ishtirok etayotgan shaxs oʻzining moddiy kelib chiqishi yoki ijtimoiy aloqalari imkoniyatidan foydalanib, vaziyatni manipulyatsiya qilishi, jinoyat sodir etilganiga oʻxshash tashqi holatni puxta rejalashtirishi mumkin. Bunday holatda yesa ayblanuvchi deb qaralayotgan shaxs real ravishda qoidabuzarlik sodir etmaganligiga qaramasdan, yetarli himoya vositalari, dalillar yoki huquqiy savodxonlikka ega boʻlmagani sababli zaif nuqtaga tushib qoladi.

Bilamizki, sun’iy intellekt texnologiyalari bazada mavjud boʻlgan informatsiyalar, statistik hisob-kitoblar, dalillar va avvaldan belgilangan algoritmlar asosida oxirgi xulosani chiqaradi. Ular inson fe’l-atvoridagi nozik psixologik tafovutlarni, yashirin manfaatlar toʻqnashuvini, vijdoniy holatni yoki axloqiy kontekstni toʻliqligicha bilib olish qobiliyatiga ega emas. Oqibatda, sun’iy intellekt tomonidan chiqarilgan qaror tashqi va mavjud belgilar, formal mezonlarga tayangan holda shakllanib, adolat tamoyilini chetga surib qoʻyish xavfini keltirib chiqaradi.

Aynan shuning uchun ham, sud tarmog‘ida sun’iy intellektdan foydalanish masalasida uni asosiy va mustaqil qarorni qabul qiladigan subekt sifatida emas, balki sudyaga optimal yordamchi, tahliliy va texnik instrument sifatida cheklangan doirada qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuni inobatga olib, har tomonlama o‘ylab chiqilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti «Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi[4].

Unga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvardan boshlab «my.sud.uz» interaktiv xizmatlar portalida fuqarolarga huquqiy tomonlama yordam berish moduli tatbiq etiladi, sun’iy intellekt texnologiyasi asosida ishlaydigan virtual maslahatchi huquqiy murojaatlarga reaktiv tarzda javob beradi.

Davlat xizmatlari sohasida vaqtni tejash, xizmat ko‘rsatish samaradorligi va sifatining oshishi, xizmatlarning qulayligi hamda inklyuzivligining yaxshilanishi kabi aniq afzalliklardan tashqari, ko‘zga tashlanmaydigan boshqa ijobiy jihatlarga ham e’tibor qaratish lozim. Jamoatchilik bilan o‘zaro aloqada bo‘ladigan turli hukumat veb-portallariga kommunikativ sun’iy intellektni joriy etish xizmatlarni zarur darajada shaxsiylashtirish imkonini beradi. Biroq ushbu jihat yanada chuqur ilmiy tadqiqotlar va amaliy sinovlarni talab qiladi [5].

Shuni ta’kidlash joizki, ijro hokimiyati sun’iy intellektni faol tarzda qabul qila oladigan tarmoq hisoblanadi. Bu esa sun’iy intellekt normativ emas, balki, operatsion xarakterli ekanligidan kelib chiqib izohlanadi. Bugungi kunda asosiy e’tibor raqamli texnologiyalar yordamida fuqarolarning ehtiyojlarini yanada samarali qondirishga qaratilmoqda. Xususan, byudjet mablag‘laridan samaraliroq foydalanish orqali soliq to‘lovchilar uchun ko‘proq qiymat yaratish, moslashtirilgan, qulay va inklyuziv davlat xizmatlarini taqdim etish hamda fuqarolar bilan muloqot va ularning ishtirokini yaxshilash ustuvor vazifa hisoblanadi [5].

E’tiborlisi shundaki, bugun O‘zbekiston Respublikasining turli tizimlari o‘zining sun’iy intellektga asoslangan ilovalariga ega bo‘lib bormoqda. Xususan, Davlat Soliq Qo‘mitasi «DavrOn» nomli soliq to‘lovchilar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qila oladigan chat bot, Adliya vazirligida «lex.uz AI» normativ-huquqiy hujjatlar bazasi, bundan tashqari, ichki ishlar va xavfsizlik tizimida qoidabuzarliklarni aniqlash va videokuzatuvni amalga oshirish uchun «Face Id» tizimi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Lekin bularning barchasi hozirda o‘zining ilk bosqichida.

O‘zbekistonda SI holatini Ijro hokimiyati doirasida bosqichma-bosqich tahlil qilib, chet yel tajribasi asosida yangiliklar kiritish uchun takliflar ishlab chiqish mumkin. Jumladan, eng yuqori nuqtadagi Prezident Administratsiyasi va Hukumat doirasida SI analitik hamda yordamchi sifatida baholanadi: turli xil ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatgichlar prognozi, qarorlarning loyihalarini tayyorlash kabi masalalar shular jumlasidandir. Iqtisodiyot va moliya vazirligida sun’iy intellekt xarajatlar va tushumlarni bashorat qilib, xavfli tranzaksiyalarni aniqlash kabi mexanizmlar bilan bog‘liq vazifani bajaradi. Soliq tizimi yesa O‘zbekistonda sohada AI qo‘llash bo‘yicha oldingi o‘rinlarda turadi, soliq to‘lovchilarga maslahat, qonunbuzarliklarni aniqlash, elektron deklaratsiyalarni avtomatik tekshirish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, Bojxona qo‘mitasi, Ichki Ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, bandlik va ijtimoiy himoya tarmoqlarida ham sun’iy intellektdan foydalanish o‘zining boshlang‘ich qadamlarini tashlagan va rivojlanmoqda.

Sun’iy intellekt bo‘yicha chet davlatlari tajribasiga nazar solsak, Albaniya davlatida sun’iy intellekt (Diella) 2025-yil oxiriga kelib bosh vazir (siyosiy vakolati yo‘q) qilib tayinlandi. Vazifasi asosan korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolarga ko‘rsatilayotgan ba’zi xizmatlarni tezlashtirish [6].

O‘zbekiston uchun Adliya vazirligi hamda davlat xizmatlarida SI yuriqnomasini tashkil etish tajribasini olish mumkin. Bunda AI maslahatchi fuqarolar bilan NLP asosida gaplashadi, muammo bo‘yicha qaerga murojaat qilishni tavsiya qiladi, ma’muriy va korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlarini samarali va optimal qilish uchun asosiy mexanizm vazifasini bajaradi. Ispaniyadan ham o‘rganish mumkin bo‘lgan jihatlar mavjud: hukumat tomonidan SI ni Nazorat Qilish Agentligi tashkil etilgan bo‘lib, u tizimning huquqiy va etik monitoringini amalga oshiradi.

Aynan shu tizimning O‘zbekistonda ham tashkil etilishi bilan bugungi kunda hukumat tizimlarida ishlatilishi ommalashib borayotgan SI asosidagi texnologiyalarga rasman sertifikat berish, ularni ishonchilik darajasini tekshirish va shubhali, xatoliklarga yul qo‘yadigan turlarini cheklash kabi standardlarning keng qo‘llashga olib keladi. Bundan tashqari, Janubiy Koreyadan muhim jihatni olish mumkin, ya’ni O‘zbekistonda ham Vazirlar Mahkamasi yoki Prezident huzurida maxsus SI bo‘yicha qo‘mita tashkil etilib, uning faoliyatiga barcha sohalarda qo‘llanilayotgan SI boshqarmalari biriktirilsa, shundagina «javobgarlik» degan normativ va ontologik muammo bartaraf etiladi. Ta’kidlab o‘tish kerakki, hozirda Raqamli Texnologiyalar vazirligi bizda faoliyat yuritib boradi. Albatta, bu vazirlik juda muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Ammo, uning tasarruf doirasi keng: IT, raqamlashtirish, e-government, startaplar va AI texnologiyalarini joriy etish kabi. Tizim qanchalik aniq maqsadga yunaltirilgan bo‘lsa, mahsuldorlik ham oshadi.

Davlat boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanish faqat texnologik innovatsiyalarni emas, balki uni samarali va xavfsiz joriy etishni ta’minlaydigan tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar va siyosiy qarorlarni ham talab qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarni prognoz qilish maqsadida strategik rejalashtirishda sun’iy intellektdan foydalanish davlat siyosati uchun zarur hisoblanadi, ammo bu AI vositalaridan qanday foydalanish kerakligi va ehtimoliy suiiste’mollarning oldini olish uchun qanday cheklovlar joriy etilishi lozimligini belgilaydigan aniq tartibga solishni talab etadi [7].

Bugungi kunda sir emaski, Davlat xizmatlari yoki shunga o‘xshash fuqaro murojaatlari qabul qilinayotgan markazlarda inson omili sabab navbat juda ham ko‘pligi xizmat shaklini sekinlashtirib, fuqarolar ishonchini kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, ijro tizimining bir qismi hisoblangan adliya vazirligida quyidagi sxema bo‘yicha ishlaydigan, sun’iy intellektga asoslangan texnologiyaning kiritilishi ayni muddao. Bunda istalgan fuqaro onlayn tarzda o‘z murojaatlarini yozma yoki og‘zaki shaklda ilovaga yukllaydi.

Keyingi bosqichda kompyuter insonning nutqini «OCR (Optical Character Recognition - Optik belgilarni aniqlash)» texnologiyasi tasvirdagi matnni mashina o‘qiydigan shaklga o‘tkazish uchun ko‘plab tillarni qo‘llab-quvvatlaydi. Zamonaviy OSR tizimlari ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz va boshqalar) matnlarni, turli shrift va formatlarni aniqlay oladi, shuningdek, yomon yoritilgan sharoitda ham ishlaydi [8].

Bu bosqichdan keyin OCR kabi texnologiyalar yordamida raqamlashtiradi. Undan keyingi bosqichda matn tozalanadi hamda NLP (( Tabiiy tilni qayta ishlash) – bu suniy intellektning (AI) kompyuterlarga inson tilini (yozma va ogzaki) tushunish, tahlil qilish, talqin qilish va yaratish imkonini beruvchi kichik sohasi. U tilshunoslik va kompyuter o‘rganish usullarini birlashtirib, mashinalarga matn mazmuni va his-tuygularini tushunishga yordam beradi) [9] asosida standardlashtiriladi. Avtomatik ravishda muammoning mavzusi aniqlangach, bu muammo shoshilinchlik darajasi bo‘yicha yuqorimi yoki pastroqligi baholangan holda qaysi organ fuqaroning taqdim etgan muammosiga mosligi tavsiya etiladi. Eng asosiy va muhim jihati shundaki bu bosqichlardan so‘ng albatta holat inson (vakolatli shaxs) tomonidan ko‘rib chiqilib, ijroga yo‘naltiriladi (1-rasm).




**1-rasm. Fuqaro murojaatini qabul qilishda sun’iy intellektdan tizimli foydalanish**

**XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, bugun har bir sohada ehtiyoj sezilayotgan sun’iy intelektning barcha turi sohaga yo‘naltirishdan oldin qayta ishlanishga, millat mentalitetiga, davlatning rivojlanganlik darajasiga va aholining imkoniyatlariga maksimal tarzda moslashtirilishga muhtoj. Korxonalarda inson nazorati ostiga olingan, javobgarligi ham ma’lum bir shaxs yoki bo‘lim qo‘lida bo‘lgan sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi ish mahsuldorligini kafolatlaydi, ko‘ngilsizliklar oldi olinadi. Monitoring va nazorat tizimlari dinamik bo‘lishi va uzoq muddatga mo‘ljallangan holda ishlab chiqilishi kerak. Ya’ni, hatto sun’iy intellekt o‘z-o‘zini o‘rganish jarayonida ham bu tizimlar o‘zining asosiy tamoyillari va prinsiplarini yo‘qotmasligi lozim. Shuningdek, bunday tizimlar algoritmlarda yuz beradigan o‘zgarishlarga mos ravishda javob bera olishi kerak, ammo bu o‘zgarishlar tizimning asosiy vazifalari va texnik tuzilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi zarur. Chunki bu tizimlarni yaratishdan ko‘zlangan asosiy maqsad aynan shu barqarorlikni ta’minlashdir. Shu sababli bu vazifani amalga oshirish ancha murakkab hisoblanadi [10].

**Адабиётлар/ Литература/ References**


1. Dei H. Artificial intelligence in public administration: benefits and risks. Management (Montevideo). 2025; 3:137.
2. 23rd International Command and Control Research & Technology Symposium “Multi-Domain C2” “Artificial Intelligence for Decision Support in Command and Control Systems” Johan Schubert, Joel Brynielsson , Mattias Nilsson , Peter Svenmarck
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi & O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi. (1996-yil 20-dekabr). Sud hokimiyati to‘g‘risida: 1/60-son qaror.
4. https://uza.uz/oz/posts/sudlar-faoliyatiga-suniy-intellekt-texnologiyalari-joriy-etiladi_753553?utm_source=chatgpt.com
5. Rzycki B, Duenas-Cid D, Przegalińska A. Application of artificial intelligence by Poland’s public administration. In: Research Handbook on Public Management and Artificial Intelligence. Cheltenham: Edward Elgar Publishing Limited; 2024. p. 118-36
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Diella_%28AI_system%29?utm_source=chatgpt.comhttps://www.oecd.org/en/publications/governing-with-artificial-intelligence_

7. Ihor Rekunenko, Iana Kobushko, Oleksii Dzydzyguri, Inna Balahurovska, Oksana Yurynets and Oleksandr Zhuk (2025). The use of artificial intelligence in public administration: Bibliometric analysis. Problems and Perspectives in Management, 23(1), 209-224. doi:10.21511/ppm.23(1).2025.16.216

8. https://docs.cloud.google.com/vision/docs/languages

9. https://en.wikipedia.org/wiki/Natural_language_processing

10.Domashenko SV. Artificial intelligence in public administration. Collection of Scientific Papers. 2024;58- 60.

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

## JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000